Rentgenda o'pka ildizi sohasida o'pka rasmi kuchayganligi seziladi. Umumiy qon taxlilida leykotsitoz, EChT oshadi.

### **Parvarishlash va davolash.**

1. Tana xarorati ko'tarilganda yotoq rejimi,

2. Bemor yotgan xonani shamollatib turish, yelvizaklardan saqlanish.

3. Kalloriyali, issiq ovqatlar(qaynoq emas)

4. Kuniga bir necha bor (1osh qoshiq) asal aralashtirilgan iliq sut ichish.

5. Balg'amni suyultirish, yumshatish va ajralishini osonlashtirish uchun turli damlamalar, masalan 1stakan sutga 4ta kichik sarimsoq piyoz donachalari solib qaynatilgan qaynatmani kuniga 3-4 marta 0,5 stakandan ichish.

6. Ingalyatsiya - evkaliptli, ramashkali, shalfeyli sodali, chalg'ituvchi terapiya sifatida ko'krak qafasiga xantalma (gorchichnik) tavsiya etiladi.

Vrach ko'rsatmalariga binoan antibiotiklar, sulfanilamidlar, yo'talga qarshi vositalar, balg'am ko'chiruvchilar, immunitetni oshiruvchi preparatlar, vitaminlar, simptomatik davo choralari ko'riladi.

Fizioterapevtik va sanator-kurort sharoitida davolash kasallikni qaytalanishini va asoratlar yuzaga kelishini oldini oladi.

### **Surunkali bronxit.**

Surunkali bronxit - bronx shilliq pardasining uzoq cho'ziluvchi diffuz yallig'lanishi bo'lib, bronx devorlarini ancha chuqur qatlamlarigacha zararlaydi.

**Sabablari:** o'tkir bronxit, pnevmaniya, chekish, ba'zi kasb ishchilarida (qonchi, ip yigiruvchi, novvoy, bo'yoqchi va h.k.) sovuq qotish, zarali bug'lar, gazlar, yuqori nafas yo'lidagi o'choqli infeksiyalar, moddalar almashinuvining buzilishi, irsiy omil.

**Klinikasi.** Shilimshiq yiringli balg'am bilan kechuvchi yo'tal, umumiy darmonsizlik, subfebril isitma, xansirash, havo yetishmaslik, tez charchash, ko'p terlash, xansirash, lablarning ko'karishi.

O'pkani eshitganimizda qattiq nafas va quruq xirillashlar eshitiladi. Rentgenda o'pka ildizi sohasida o'pka rasmi kuchayganligini seziladi. Umumiy qon taxlilida leykotsitoz, EChT oshadi.

### **Parvarishlash va davolash.**

1.Zaxarli moddalarni bronx shilliq qavatiga ta'sirini to'xtatish.

2.Vaqtivaqti bilan kasalxona sharoitida davolanish.

3.Kasallik xuruji vaqtida antibiotiklar, sulfanilamidlar, yo'tal dori, balg'am ko'chiruvchilar, immunititni oshiruvchilar, vitaminlar, simptomatik davo.

Kasallik remissiya davrida fizioterapevtik va sanator-kurort sharoitida davolash kasallikni qaytalanishini va asoratlarni yuzaga kelishini oldini oladi.

**Asoratlari.** Bronxopnevmaniya, bronxoektaz kasalligi, o'pka empiemasi.

### **Bronxial astma.**

Bronxial astma infeksiyon - allergik kasallik bo'lib, bronxlar spazmi natijasida odamning nafasi qisib, bo'g'ilib qolishi, yo'tal, yopishqoq balg'am ajralishi bilan xarakterlanadi.

**Sabablari:** 1.Noinfeksiyon omillar: uy changlari, hayvon va o'simlik allergenlari, ovqat mahsulotlari, ba'zi dori-darmonlar, kimyoviy va toksik moddalar.

2.Infeksiyon omillar: turli xil bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar, gelmintlar, sodda xayvonlar kiradi. Juda ko'p xollarda yuqori nafas yo'llari, bronx, o'pka kasalliklari, irsiy omillar sabab bo'ladi.

Bronxial astma kelib chiqishida markaziy nerv sistemasining ahamiyati ham katta. Jismoniy va ruxiy zo'riqish, sovuq havoda nafas olish, klimaks davri kasallik xurujiga olib keladi.

**Klinikasi.** Kasallikni asosiy klinik belgisi nafas qisishi, bo'g'ilish xurujidir.

Bemorlar nafas chiqarishga qiynaladilar. Nafas olish shovqinli, xushtaksimon, masofadan ham eshitiladi. Kasallik xuruji tutib qolgan mahalda bemor qo'llari bilan tizzalariga tayangan, yelkari ko'tarilgan, biroz oldinga chiqqan holda o'tirib majburiy nafas ola boshlaydilar. O'pka auskultatsiyasida nafas chiqarishning cho'zilganligi, juda ko'p quruq hirillashlar eshitiladi. Perkussiya qilinganda quticha tovushi eshitiladi, o'pka xarakatlari chegaralangan, pastki chegaralari kengayganligi aniqlanadi. Bu o'pka emfizemasi deyiladi va yurak faoliyatini qiyinlashtiradi, pulsni tezlashishiga sabab bo'ladi. Xurujning avvalida balg'am ajralmaydi, keyinchalik yo'tal tutib shilimshiq yopishqoq balg'am ko'chadi. Balg'am o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, unda ko'p miqdorda eozinofillar, Krushman spirallari, Sharko-Leyden kristallari aniqlanadi.

Umumiy qon taxlilida eozinofillar ortadi. EKG da 2- va 3 - standart ulashda R-tishcha yuqori bo'ladi. Bronxial astmaning uzoq vaqt tutib turishi astmatik holat yoki astmatik status deb ataladi. Xuruj oralig'ida bemorlar o'zlarini yaxshi his qiladilar, xirillashlar eshitilmaydi.

**Davolash va parvarishlash.**

**Bronxial astma xurujida tez tibbiy yordam.**

1. Bemorga nafas olish uchun qulay xolat yaratish, yelkasiga 2-3ta yostiq qo'yish.
2. Toza xavo bilan ta'minlash, allergenlarni ta'sirini to'xtatish.
3. Bemorni sovuqotmasligi uchun ko'raga o'rash, yelvizaklardan asrash.
4. Ortiqcha jismoniy va ruxiy zo'riqishdan asrash.
5. Qisib turgan kiyimlarini yechish.
6. Issiqchoy, yoki 4/1choy qoshiq ichimlik sodasi qo'shilgan iliq sut berish.
7. Chalg'ituvchi terapiya, oyoqlarga vanna, ko'krak qafasiga xantalma qo'yish.
8. Cho'ntak ingalyatorlaridan foydalanish (astmopent, salbutamol, berotek, berodual va h.k.).

9. Vrach ko'rsatmalariga binoan dori vositalarini qo'llash. Xuruj vaqtida 1-yordam maqsadida eufillin 2,4%-5,0-10,0ml t/i qilinadi. Eufillin yordam bermaganda gormonlar tavsiya etiladi. Teofillin, eufillin tabletkalarini ichib turish xam mumkin.

Bronxial astma surunkali kasal bo'lgani uchun kasallik xurujlarini oldini olish maqsadida bemorlar vaqti - vaqti bilan shifoxonada davolanishlari shart. Antibakterial davo, antigistamin, antiallergik dorilar, bronxolitiklar, yo'tal dori, balgam ko'chiruvchi va simptomatik davo qiladilar. Fizioterapevtik davo, sanatoriya sharoitida davolanish tavsiya etiladi.

### O'choqli pnevmoniya

O'choqli PNEUMONIYA yoki bronxopnevmoniya, o'pkaning bir bo'lagi, ba'zan undan ham kam qismining yallig'lanishi bilan xarakterlanadi. Yallig'lanish o'choqlari ko'p bo'lib, bir yoki har ikkala o'pkada paydo bo'lishi mumkin. Yallig'lanish jarayonining, odatda, bronxit shaklida bronxlarda boshlanishi, so'ng o'pkaning bir yoki bir necha bo'lagini qoplab, alveolar to'qimaga o'tishi bu kasallik uchun xosdir. Bu infeksiyaning bronxogen deb ataluvchi tarqalish yo'lidir. kamroq hollarda yallig'lanish jarayoni infeksiyaning gemotogen yoki limfogen yo'li bilan tarqalishi oqibatida boshlanadi.

O'choqli pnevmoniya mustaqil, ko'pincha, boshqa kasalliklar asorat berishi oqibatida paydo bo'ladi. Amaliy maqsadlar uchun o'choqli pnevmoniyaning quyidagi tasnifidan foydalaniladi: gripp va boshqa yuqumli kasalliklarda bo'ladigan pnevmoniya (toshmali terlama, ornitoz va boshq.), gipostatik, aspiratsion, atelektatik, travmatik va operatsiyadan keyingi pnevmoniyadir.

Etiologiyasi. Bu kasallik bronxit, gripp, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi oqibatida vujudga keladi. kasallikning paydo bo'lishiga, stafillokokklar, streptokokklar, pnevmokokklar, Fridlender tayoq- chasi, viruslar, mikoplazma, rikketsiyalar sabab bo'ladi. Bundan tashqari, o'tkir o'choqli zotiljam qon aylanishi buzilganda, buyrak kasalliklarida, ko'kyo'tal, ichterlama, revmatizm, kollagenoz kasalliklarida, sepsis, ayrim gazlardan zaharlanganda, narkozdan so'ng (aspiratsiya), ko'krak qafasi, qorin, bosh jarohatlanganda yuzaga kelishi mumkin. kasallik kelib chiqishida mikroblar ko'pincha

### Nafas olish a'zolarini rentgenologik tekshirish

Sog'lom odamning ko'krak qafasi, rentgen nurlari yordamida tekshirilganda ekranda qovurg'alar va yorug' o'pka maydonlari ko'rinadi. O'pka maydonlarining markazida yurak, yirik tomirlar, traxeya,

qizilo'ngach, limfa tugunlari, shuningdek, umurtqa pog'onasidan iborat o'rtadagi soya ko'rinadi. Bu o'rtadagi soyaning chetlari bo'ylab o'pka ildizi soyasi deb ataluvchi va o'ng hamda chap o'pkaga boruvchi yirik tomirlardan va limfatik tugunlardan iborat uncha ifodalanmagan soya ko'rinadi.

O'pka yoki plevra kasalliklarida o'ziga xos o'zgarishlarni rentgenologik usul bilan aniqlash mumkin. Masalan, o'pkada yallig'lanish o'chog'i bo'lgan hollarda yallig'langan joydagi to'qima qalinlashadi va yonida joylashgan sog'lom o'pka to'qimasiga qaraganda rentgen nurlarini ko'proq tutib qoladi. Shuning uchun o'pka yallig'langan joyda ekran orqali uncha ifodalanmagan soya ko'rinadi. Yangi o'sma hosil bo'lgan hollarda, masalan, to'qima tig'iz bo'lib qoladigan va rentgen nurlarini juda kam o'tkazadigan o'pka saratonida ekranda yaxshi ifodalangan soya paydo bo'ladi, chetlarining qing'ir-qiyshiqi va qattiqligi uning xarakterli xususiyatidir.

O'pkaning o'tkir absessida ekranda shakli aniq bilinib turadigan soya ko'rinadi: agar absess o'rnida ko'pincha ichi suyuqlik bilan to'ladigan bo'shliq hosil bo'lsa, ekranda suyuqlik sathi va uning ustida havo tufayli paydo bo'lgan yorug' dog' ko'rinadi. O'pkada havo bilan to'lgan sil kavernasi bo'lsa, ekranda yorug', yumaloq dog' ko'rinadi.

O'pkada emfizematoz kengayish yuz bergan hollarda ekranda o'pka ildizlari yaxshi ifodalangan yorug' o'pka maydoni ko'rinadi. ko'krak qafasini tekshirayotganda harakatchanligi diafragma harakatiga bog'liq bo'lgan o'pka chetlariga har doim ahamiyat berish kerak. Masalan, agar bemor plevrasida yallig'lanish jarayoni davom etayotgan bo'lsa, u holda o'pkaning jarohatlangan tomonida diafragma harakati birmuncha chegaralangan bo'ladi. Agar diafragma bilan plevra bir-biriga yopishib qolgan bo'lsa, nafas olish vaqtida diafragma o'sha joyda erkin pastga tusha olmaydi, chunki uni yopishgan joyi ushlab turadi. Plevra bo'shlig'ida suyuqlik mavjud bo'lgan hollarda, o'pka maydonining pastki qismida gomogen intensiv soyani kuzatish mumkin.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Nafas yo'llari kasalliklari tasnifini ayting.
2. Yuqori va pastki nafas yo'llari kasalliklari o'rtasidagi farq nimada?
3. O'tkir bronxitning klinik belgilari va zamonaviy diagnostika usullarini tushuntiring.
4. Pnevmoniyani aniqlashda rentgen va KT tekshiruvlarining ahamiyati nimada?
5. Bronxial astma kasalligida zamonaviy tekshiruv usullarini sanang.
6. Spirometriya tekshiruvining maqsadi va ko'rsatkichlari qanday?
7. Surunkali obstruktiv o'pka kasalligi (SO'OK) patogenezi va tashxis mezonlarini tushuntiring.

8. Nafas yo‘llari infeksiyalarida laborator tekshiruvlarning roli qanday?
9. Nebulizer terapiyasining afzalliklari nimada?
10. Zamonaviy antibakterial va bronxolitik terapiya tamoyillarini tushuntiring.

### “Klinik konsilium” (Rol o‘ynash metodi)

#### **Maqsad:**

Talabalarda nafas yo‘llari kasalliklarini aniqlash, zamonaviy tekshiruv tanlash va davolash rejasini tuzish ko‘nikmasini shakllantirish.

#### **Ishtirokchilar:**

- 1 nafar “Bemor”
- 1 nafar “Shifokor”
- 1 nafar “Hamshira”
- 2 nafar “Ekspert”

#### **O‘yin jarayoni:**

O‘qituvchi 3 xil klinik vaziyatdan birini beradi:

Pnevmoniya

Bronxial astma

Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi

#### ***1-bosqich – Anamnez yig‘ish***

- Shikoyatlar
- Kasallik davomiyligi
- Xavf omillari

#### ***2-bosqich – Tekshiruv tanlash***

Talabalar quyidagilardan to‘g‘ri usulni tanlaydi:

- Ko‘krak qafasi rentgenografiyasi
- Spirometriya
- Laborator tahlillar
- Pulsoksimetriya

#### ***3-bosqich – Davolash rejasi***

- Antibiotiklar
- Bronxolitiklar

- Inhalyatsion steroidlar
- Kislorod terapiyasi
- Nebulizer terapiya

### **Baholash mezonlari:**

- To'g'ri tashxis – 5 ball
- To'g'ri tekshiruv tanlashi – 5 ball
- Zamonaviy davolash rejasini tuzishi – 5 ball
- Muloqot va gigiyena qoidasi – 5 ball

“Tezkor diagnostika estafetasi” (**Guruhli musobaqa**)

### **Maqsad:**

Nafas yo'llari kasalliklarida simptom–tashxis–tekshiruv–davolash bog'liqligini mustahkamlash.

### **Ishtirokchilar:**

Guruh 3 ta jamoaga bo'linadi.

### **O'yin qoidasi:**

Har jamoaga konvert beriladi. Ichida 4 xil kartochka bo'ladi:

- Belgilar (masalan: hansirash, nam xirillash, quruq yo'tal)
- Tashxis
- Tekshiruv usuli
- Davolash usuli

### **Vazifa:**

1. Belgiga mos kasallikni topish
2. Mos zamonaviy tekshiruvni tanlash
3. To'g'ri davolashni qo'shish

Vaqt: 3 daqiqa

### **1-vaziyatli masala**

#### **Vaziyat:**

45 yoshli erkak bemor 3 kundan beri yuqori harorat (38.8°C), balg'amli yo'tal, ko'krak qafasida og'riq va umumiy holsizlikdan shikoyat qiladi. Ko'rikda:

hansirash, perkussiyada o'ng pastki bo'limda bo'g'iq tovush, auskultatsiyada nam xirillashlar aniqlanadi.

**Savollar:**

1. Taxminiy tashxisni ayting.
2. Qaysi zamonaviy tekshiruv usuli tashxisni tasdiqlaydi?
3. Davolash tamoyillarini tushuntiring.

**Javob yo'nalishi:**

- Taxminiy tashxis: Pnevmoniya
- Tekshiruv: Ko'krak qafasi rentgenografiyasi, umumiy qon tahlili, CRP
- Davo: Antibiotik terapiya, simptomatik davolash, kislorod terapiyasi (zarurat bo'lsa)

**2-vaziyatli masala**

**Vaziyat:**

30 yoshli ayol bemor allergiyaga moyil. To'satdan nafas qisishi, ko'krakda siqilish, quruq yo'tal paydo bo'ldi. Auskultatsiyada quruq xirillash eshitiladi. Nafas chiqarish qiyinlashgan.

**Savollar:**

1. Taxminiy tashxis?
2. Qaysi tekshiruv usuli tashxisni aniqlashda muhim?
3. Shoshilinch yordam va zamonaviy davolash usuli?

**Javob yo'nalishi:**

- Taxminiy tashxis: Bronxial astma xuruji
- Tekshiruv: Spirometriya
- Davo: Inhalyatsion bronxolitiklar (salbutamol), inhalyatsion glyukokortikosteroidlar, nebulizer terapiya

**3-vaziyatli masala**

**Vaziyat:**

60 yoshli erkak, 30 yildan beri chekuvchi. So'nggi 5 yilda doimiy yo'tal va balg'am ajralishi bor. Oxirgi paytda hansirash kuchaygan. Spirometriyada FEV1 pasaygan.

**Savollar:**

1. Taxminiy tashxis?

2. Kasallikning asosiy xavf omili?
3. Zamonaviy davolash yondashuvi qanday?

**Javob yoʻnalishi:**

- Taxminiy tashxis: Surunkali obstruktiv oʻpka kasalligi
- Xavf omili: Chekish
- Davo: Bronxolitiklar (uzoq taʼsir qiluvchi), inhalyatsion steroidlar, kislorod terapiyasi, rehabilitatsiya, chekishni tashlash

**TEST SAVOLLARI**

**1. Pnevmoniyani tasdiqlovchi asosiy tekshiruv usuli:**

- A) EKG
- B) UTT
- C) Koʻkrak qafasi rentgenografiyasi \*
- D) Gastroskopiya

**2. Spirometriya qaysi kasallikda muhim diagnostik ahamiyatga ega?**

- A) Gastrit
- B) Bronxial astma \*
- C) Pielonefrit
- D) Anemiya

**3. SOʻOK uchun xos belgi:**

- A) Toʻsatdan yuqori isitma
- B) Quruq yoʻtal 1–2 kun
- C) Uzoq davom etuvchi yoʻtal va hansirash \*
- D) Qorin ogʻrigʻi

**4. Bronxolitik dorilar taʼsiri:**

- A) Haroratni tushiradi
- B) Bronxlarni kengaytiradi \*
- C) Qon bosimini oshiradi
- D) Ogʻriqni kamaytiradi

**5. Pnevmoniyada asosiy davolash vositasi:**

- A) Antigistamin
- B) Antiviral
- C) Antibiotik \*
- D) Vitamin

**6. Nafas yetishmovchiligining asosiy belgisi:**

- A) Bradikardiya

- B) Hansirash \*
- C) Ich ketish
- D) Qusish

**7. Nebulizer terapiyasi qaysi usulga kiradi?**

- A) Parenteral
- B) Inhalyatsion \*
- C) Enteral
- D) Jarrohlik

**8. Pnevmoniyada perkussiya natijasi:**

- A) Timpanik tovush
- B) Bo‘g‘iq tovush \*
- C) Qarsildoq tovush
- D) O‘zgarmaydi

**9. Bronxial astmada eshitiladigan nafas shovqini:**

- A) Nam xirillash
- B) Quruq xirillash \*
- C) Sistolik shovqin
- D) Ichak shovqini

**10. SO‘OK rivojlanishining asosiy xavf omili:**

- A) Allergiya
- B) Chekish \*
- C) Sovqotish
- D) Stress

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.G.Gadayev "Ichki kasalliklar propedevtikasi" darslik Toshkent 2023yil
2. A.G.Gadayev "Ichki kasalliklar" darslikToshkent 2014yil
- 3 .A.G.Gadayev "Ichki kasalliklar" darslik Toshkent 2022yil
- 4 . V.N.Turakulov."Terapiyada xamshiralik parvarishi " darslik Toshkent 2019yil
- 5 . A.G.Gadayev "Terapiya" o'quv uslubiy qo'llanma 2020y
6. F.A.Qulmurodova "Ichki kasalliklarda hamshiralik ishi" o'quv uslubiy qollanma 2024y
- 7 .Z.A.Safarov "Ichki kasalliklarda hamshiralik ishi" o'quv uslubiy qollanma Termiz 2024 yil

<b>2.2.O'quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>Nafas yo'llari kasalliklari va zamonaviy tekshirish va davolash usullari.</b>
---	--

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg'ulot</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	<p>4. Nafas olish a'zolarini kasalliklari</p> <p>5. Nafas olish a'zolarini tekshirish usullari.</p> <p>6. Nafas olish tizimini davolash.</p>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<p style="text-align: center;"><b>Pedagogik vazifalar</b></p> <p>Infeksion va noinfeksion nafas tizimi kasalliklar, SOO`Klar (Surunkali obstruktiv o'pka kasalliklari) sabablari va klinik kechishi, dunyo bo'yicha tarqalish yo'llari va ularning profilaktikasi. Kasalliklarni aniqlashda zamonaviy yondoshuv, bemorlarni zamonaviy tekshiruv usullarini o'tkazishda hamshiraning o'rni. Bronxit, bronxial astma kasalliklarni kelib chiqishida ekologiya, atrof-muhit, infeksiyaning ta'siri. Kasalliklarning tasnifi, zamonaviy tekshirish, davolash va parvarishlash usullari. Kasalliklarining profilaktikasi, asoratlarini oldini olishda hamshiralik jarayoni olib borish.</p>	<p><b>O'quv faoliyatini natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• nafas olish a'zolari tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlarini;</li> <li>• nafas olish a'zolari kasalliklarini sabablarini;</li> <li>• bemorlarni zamonaviy tekshiruv usullarini;</li> <li>• bronxit, bronxial astma kasalliklarni kelib chiqishi sabablarini;</li> <li>• zotiljam, o'pka sili, plevrit kasalliklarini sabablarini;</li> <li>• kasalliklarning zamonaviy tasnifini;</li> </ul>
O'qitish metodlari	<b>“Klinik konsilium “Tezkor</b>

	<b>diagnostika estafetasi”</b> usullari bilan ishlash
O’quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O’qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og’zaki so’rov, tezkor so’rovyozma so’rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o’quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg’ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
<b>1-bosqich o’quv mashg’ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<p style="text-align: center;"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O’qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o’quv bo’limi tomonidan berilgan ro’yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O’quv mashg’ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o’tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo’llaniladigan usullarni aytib o’yin qoidalirini tushintiradi.</p>	Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O’tgan mavzu bo’yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to’liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O’qitishning noan’anaviy usullarini qo’llagan xolda tinglovchilar bilimini</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o’qituvchi tomonidan “Ma’ruza o’qish” usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga <b>“Klinik konsilium”</b> “tarzida mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.</p> <p>Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo’llab javob oladilar.”</p>

<b>mustaxkamlash</b>		<b>Tezkor diagnostika estafetasi</b> sxemasi bo'yicha tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi
<b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Nafas yo'llari kasalliklari va zamonaviy tekshirish va davolash usullari mavzuni o'qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>4. A. Gadayev Ichki kasalliklar Toshkent-2022y;</p> <p>5. A. Gadayev, M. Ziyaeva, R.To'raqulov Terapiya o'quv qo'llanma Toshkent-2022y</p> <p>6. B.N.Turaqulov, L.X. Musadjonova, X.A. Raxmatov Terapiyada hamshiralik parvarishi o'quv qo'llanma Navoiy nashriyoti-2019 yil.</p>	Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar

**Mavzu: Nafas yo'llari kasalliklari va zamonaviy tekshirish va davolash usullari.**

**Reja:**

4. Nafas olish a'zolarini kasalliklari
5. Nafas olish a'zolarini tekshirish usullari.
6. Nafas olish tizimini davolash.

**Bronxit.**

Bronxit - bronx devorlari shilliq pardasining yallig'lanishi bo'lib, axoli o'rtasida nafas olish tizimi kasalliklari ichida eng ko'p uchraydigan kasallik xisoblanadi. Bronxitlar o'tkir va surunkali bo'ladi.

**O'tkir bronxit.**

O'tkir bronxit odatda yuqori nafas yo'llarining kasalliklari rinofaringit, laringit, traxeit kasalliklari bilan birga kuzatiladi.

**Sabablari:** sovuq qotish, yuqori nafas yo'llarining infeksiyalari, chekish, spirtli ichimliklar ichish, allergenlar ta'siri, nafas yo'llariga toksik moddalarni tushishi.

**Klinikasi.** Tana xarorati subfebril, ba'zan yuqori, tanada og'riq, qiyin ajralib chiquvchi shilimshiq balg'am bilan kechuvchi yo'tal, ko'krak qafasidagi og'riq, havo yetishmaslik, xansirash.

O'pkani eshitganimizda qattiq nafas va quruq xirillashlar eshitiladi.

Rentgenda o'pka ildizi sohasida o'pka rasmi kuchayganligi seziladi. Umumiy qon taxlilida leykotsitoz, EChT oshadi.

### **Parvarishlash va davolash.**

1. Tana xarorati ko'tarilganda yotoq rejimi,

2. Bemor yotgan xonani shamollatib turish, yelvizaklardan saqlanish.

3. Kalloriyali, issiq ovqatlar(qaynoq emas)

4. Kuniga bir necha bor (1osh qoshiq) asal aralashtirilgan iliq sut ichish.

5. Balg'amni suyultirish, yumshatish va ajralishini osonlashtirish uchun turli damlamalar, masalan 1stakan sutga 4ta kichik sarimsoq piyoz donachalari solib qaynatilgan qaynatmani kuniga 3-4 marta 0,5 stakandan ichish.

6. Ingalyatsiya - evkaliptli, ramashkali, shalfeyli sodali, chalg'ituvchi terapiya sifatida ko'krak qafasiga xantalma (gorchichnik) tavsiya etiladi.

Vrach ko'rsatmalariga binoan antibiotiklar, sulfanilamidlar, yo'talga qarshi vositalar, balg'am ko'chiruvchilar, immunitetni oshiruvchi preparatlar, vitaminlar, simptomatik davo choralari ko'riladi.

Fizioterapevtik va sanator-kurort sharoitida davolash kasallikni qaytalanishini va asoratlar yuzaga kelishini oldini oladi.

### **Surunkali bronxit.**

Surunkali bronxit - bronx shilliq pardasining uzoq cho'ziluvchi diffuz yallig'lanishi bo'lib, bronx devorlarini ancha chuqur qatlamlarigacha zararlaydi.

**Sabablari:** o'tkir bronxit, pnevmaniya, chekish, ba'zi kasb ishchilarida (qonchi, ip yigiruvchi, novvoy, bo'yoqchi va h.k.) sovuq qotish, zarali bug'lar, gazlar, yuqori nafas yo'lidagi o'choqli infeksiyalar, moddalar almashinuvining buzilishi, irsiy omil.

**Klinikasi.** Shilimshiq yiringli balg'am bilan kechuvchi yo'tal, umumiy darmonsizlik, subfebril isitma, xansirash, havo yetishmaslik, tez charchash, ko'p terlash, xansirash, lablarning ko'karishi.

O'pkani eshitganimizda qattiq nafas va quruq xirillashlar eshitiladi. Rentgenda o'pka ildizi sohasida o'pka rasmi kuchayganligini seziladi. Umumiy qon taxlilida leykotsitoz, EChT oshadi.

### **Parvarishlash va davolash.**

1.Zaxarli moddalarni bronx shilliq qavatiga ta'sirini to'xtatish.

2.Vaqtivaqti bilan kasalxona sharoitida davolanish.

3.Kasallik xuruji vaqtida antibiotiklar, sulfanilamidlar, yo'tal dori, balg'am ko'chiruvchilar, immunititni oshiruvchilar, vitaminlar, simptomatik davo.

Kasallik remissiya davrida fizioterapevtik va sanator-kurort sharoitida davolash kasallikni qaytalanishini va asoratlarni yuzaga kelishini oldini oladi.

**Asoratlari.** Bronxopnevmaniya, bronxoektaz kasalligi, o'pka empiemasi.

### **Bronxial astma.**

Bronxial astma infeksiyon - allergik kasallik bo'lib, bronxlar spazmi natijasida odamning nafasi qisib, bo'g'ilib qolishi, yo'tal, yopishqoq balg'am ajralishi bilan xarakterlanadi.

**Sabablari:** 1.Noinfeksiyon omillar: uy changlari, hayvon va o'simlik allergenlari, ovqat mahsulotlari, ba'zi dori-darmonlar, kimyoviy va toksik moddalar.

2.Infeksiyon omillar: turli xil bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar, gelmintlar, sodda xayvonlar kiradi. Juda ko'p xollarda yuqori nafas yo'llari, bronx, o'pka kasalliklari, irsiy omillar sabab bo'ladi.

Bronxial astma kelib chiqishida markaziy nerv sistemasining ahamiyati ham katta. Jismoniy va ruxiy zo'riqish, sovuq havoda nafas olish, klimaks davri kasallik xurujiga olib keladi.

**Klinikasi.** Kasallikni asosiy klinik belgisi nafas qisishi, bo'g'ilish xurujidir.

Bemorlar nafas chiqarishga qiynaladilar. Nafas olish shovqinli, xushtaksimon, masofadan ham eshitiladi. Kasallik xuruji tutib qolgan mahalda bemor qo'llari bilan tizzalariga tayangan, yelkari ko'tarilgan, biroz oldinga chiqqan holda o'tirib majburiy nafas ola boshlaydilar. O'pka auskultatsiyasida nafas chiqarishning cho'zilganligi, juda ko'p quruq hirillashlar eshitiladi. Perkussiya qilinganda quticha tovushi eshitiladi, o'pka xarakatlari chegaralangan, pastki chegaralari kengayganligi aniqlanadi. Bu o'pka emfizemasi deyiladi va yurak faoliyatini qiyinlashtiradi, pulsni tezlashishiga sabab bo'ladi. Xurujning avvalida balg'am ajralmaydi, keyinchalik yo'tal tutib shilimshiq yopishqoq balg'am ko'chadi. Balg'am o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, unda ko'p miqdorda eozinofillar, Krushman spirallari, Sharko-Leyden kristallari aniqlanadi.

Umumiy qon taxlilida eozinofillar ortadi. EKG da 2- va 3 - standart ulashda R-tishcha yuqori bo'ladi. Bronxial astmaning uzoq vaqt tutib turishi astmatik holat yoki astmatik status deb ataladi. Xuruj oralig'ida bemorlar o'zlarini yaxshi his qiladilar, xirillashlar eshitilmaydi.

**Davolash va parvarishlash.**

**Bronxial astma xurujida tez tibbiy yordam.**

1. Bemorga nafas olish uchun qulay xolat yaratish, yelkasiga 2-3ta yostiq qo'yish.
2. Toza xavo bilan ta'minlash, allergenlarni ta'sirini to'xtatish.
3. Bemorni sovuqotmasligi uchun ko'raga o'rash, yelvizaklardan asrash.
4. Ortiqcha jismoniy va ruxiy zo'riqishdan asrash.
5. Qisib turgan kiyimlarini yechish.
6. Issiqchoy, yoki 4/1choy qoshiq ichimlik sodasi qo'shilgan iliq sut berish.
7. Chalg'ituvchi terapiya, oyoqlarga vanna, ko'krak qafasiga xantalma qo'yish.
8. Cho'ntak ingalyatorlaridan foydalanish (astmopent, salbutamol, berotek, berodual va h.k.).

9. Vrach ko'rsatmalariga binoan dori vositalarini qo'llash. Xuruj vaqtida 1-yordam maqsadida eufillin 2,4%-5,0-10,0ml t/i qilinadi. Eufillin yordam bermaganda gormonlar tavsiya etiladi. Teofillin, eufillin tabletkalarini ichib turish xam mumkin.

Bronxial astma surunkali kasal bo'lgani uchun kasallik xurujlarini oldini olish maqsadida bemorlar vaqti - vaqti bilan shifoxonada davolanishlari shart. Antibakterial davo, antigistamin, antiallergik dorilar, bronxolitiklar, yo'tal dori, balgam ko'chiruvchi va simptomatik davo qiladilar. Fizioterapevtik davo, sanatoriya sharoitida davolanish tavsiya etiladi.

### O'choqli pnevmoniya

O'choqli PNEUMONIYA yoki bronxopnevmoniya, o'pkaning bir bo'lagi, ba'zan undan ham kam qismining yallig'lanishi bilan xarakterlanadi. Yallig'lanish o'choqlari ko'p bo'lib, bir yoki har ikkala o'pkada paydo bo'lishi mumkin. Yallig'lanish jarayonining, odatda, bronxit shaklida bronxlarda boshlanishi, so'ng o'pkaning bir yoki bir necha bo'lagini qoplab, alveolar to'qimaga o'tishi bu kasallik uchun xosdir. Bu infeksiyaning bronxogen deb ataluvchi tarqalish yo'lidir. kamroq hollarda yallig'lanish jarayoni infeksiyaning gemotogen yoki limfogen yo'li bilan tarqalishi oqibatida boshlanadi.

O'choqli pnevmoniya mustaqil, ko'pincha, boshqa kasalliklar asorat berishi oqibatida paydo bo'ladi. Amaliy maqsadlar uchun o'choqli pnevmoniyaning quyidagi tasnifidan foydalaniladi: gripp va boshqa yuqumli kasalliklarda bo'ladigan pnevmoniya (toshmali terlama, ornitoz va boshq.), gipostatik, aspiratsion, atelektatik, travmatik va operatsiyadan keyingi pnevmoniyadir.

Etiologiyasi. Bu kasallik bronxit, gripp, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi oqibatida vujudga keladi. Kasallikning paydo bo'lishiga, stafillokokklar, streptokokklar, pnevmokokklar, Fridlender tayoq- chasi, viruslar, mikoplazma, rikketsiyalar sabab bo'ladi. Bundan tashqari, o'tkir o'choqli zotiljam qon aylanishi buzilganda, buyrak kasalliklarida, ko'kyo'tal, ichterlama, revmatizm, kollagenoz kasalliklarida, sepsis, ayrim gazlardan zaharlanganda, narkozdan so'ng (aspiratsiya), ko'krak qafasi, qorin, bosh jarohatlanganda yuzaga kelishi mumkin. Kasallik kelib chiqishida mikroblar ko'pincha

### Nafas olish a'zolarini rentgenologik tekshirish

Sog'lom odamning ko'krak qafasi, rentgen nurlari yordamida tekshirilganda ekranda qovurg'alar va yorug' o'pka maydonlari ko'rinadi. O'pka maydonlarining markazida yurak, yirik tomirlar, traxeya,

qizilo'ngach, limfa tugunlari, shuningdek, umurtqa pog'onasidan iborat o'rtadagi soya ko'rinadi. Bu o'rtadagi soyaning chetlari bo'ylab o'pka ildizi soyasi deb ataluvchi va o'ng hamda chap o'pkaga boruvchi yirik tomirlardan va limfatik tugunlardan iborat uncha ifodalanmagan soya ko'rinadi.

O'pka yoki plevra kasalliklarida o'ziga xos o'zgarishlarni rentgenologik usul bilan aniqlash mumkin. Masalan, o'pkada yallig'lanish o'chog'i bo'lgan hollarda yallig'langan joydagi to'qima qalinlashadi va yonida joylashgan sog'lom o'pka to'qimasiga qaraganda rentgen nurlarini ko'proq tutib qoladi. Shuning uchun o'pka yallig'langan joyda ekran orqali uncha ifodalanmagan soya ko'rinadi. Yangi o'sma hosil bo'lgan hollarda, masalan, to'qima tig'iz bo'lib qoladigan va rentgen nurlarini juda kam o'tkazadigan o'pka saratonida ekranda yaxshi ifodalangan soya paydo bo'ladi, chetlarining qing'ir-qiyshiqi va qattiqligi uning xarakterli xususiyatidir.

O'pkaning o'tkir absessida ekranda shakli aniq bilinib turadigan soya ko'rinadi: agar absess o'rnida ko'pincha ichi suyuqlik bilan to'ladigan bo'shliq hosil bo'lsa, ekranda suyuqlik sathi va uning ustida havo tufayli paydo bo'lgan yorug' dog' ko'rinadi. O'pkada havo bilan to'lgan sil kavernasi bo'lsa, ekranda yorug', yumaloq dog' ko'rinadi.

O'pkada emfizematoz kengayish yuz bergan hollarda ekranda o'pka ildizlari yaxshi ifodalangan yorug' o'pka maydoni ko'rinadi. ko'krak qafasini tekshirayotganda harakatchanligi diafragma harakatiga bog'liq bo'lgan o'pka chetlariga har doim ahamiyat berish kerak. Masalan, agar bemor plevrada yallig'lanish jarayoni davom etayotgan bo'lsa, u holda o'pkaning jarohatlangan tomonida diafragma harakati birmuncha chegaralangan bo'ladi. Agar diafragma bilan plevra bir-biriga yopishib qolgan bo'lsa, nafas olish vaqtida diafragma o'sha joyda erkin pastga tusha olmaydi, chunki uni yopishgan joyi ushlab turadi. Plevra bo'shlig'ida suyuqlik mavjud bo'lgan hollarda, o'pka maydonining pastki qismida gomogen intensiv soyani kuzatish mumkin.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

11. Nafas yo'llari kasalliklari tasnifini ayting.
12. Yuqori va pastki nafas yo'llari kasalliklari o'rtasidagi farq nimada?
13. O'tkir bronxitning klinik belgilari va zamonaviy diagnostika usullarini tushuntiring.
14. Pnevmoniyani aniqlashda rentgen va KT tekshiruvlarining ahamiyati nimada?
15. Bronxial astma kasalligida zamonaviy tekshiruv usullarini sanang.
16. Spirometriya tekshiruvining maqsadi va ko'rsatkichlari qanday?
17. Surunkali obstruktiv o'pka kasalligi (SO'OK) patogenezi va tashxis mezonlarini tushuntiring.

- 18.Nafas yo‘llari infeksiyalarida laborator tekshiruvlarning roli qanday?  
19.Nebulizer terapiyasining afzalliklari nimada?  
20.Zamonaviy antibakterial va bronxolitik terapiya tamoyillarini tushuntiring.

### “Klinik konsilium” (Rol o‘ynash metodi)

#### **Maqsad:**

Talabalarda nafas yo‘llari kasalliklarini aniqlash, zamonaviy tekshiruv tanlash va davolash rejasini tuzish ko‘nikmasini shakllantirish.

#### **Ishtirokchilar:**

- 1 nafar “Bemor”
- 1 nafar “Shifokor”
- 1 nafar “Hamshira”
- 2 nafar “Ekspert”

#### **O‘yin jarayoni:**

O‘qituvchi 3 xil klinik vaziyatdan birini beradi:

Pnevmoniya

Bronxial astma

Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi

#### ***1-bosqich – Anamnez yig‘ish***

- Shikoyatlar
- Kasallik davomiyligi
- Xavf omillari

#### ***2-bosqich – Tekshiruv tanlash***

Talabalar quyidagilardan to‘g‘ri usulni tanlaydi:

- Ko‘krak qafasi rentgenografiyasi
- Spirometriya
- Laborator tahlillar
- Pulsoksimetriya

#### ***3-bosqich – Davolash rejasi***

- Antibiotiklar
- Bronxolitiklar

- Inhalyatsion steroidlar
- Kislorod terapiyasi
- Nebulizer terapiya

### **Baholash mezonlari:**

- To'g'ri tashxis – 5 ball
- To'g'ri tekshiruv tanlashi – 5 ball
- Zamonaviy davolash rejasini tuzishi – 5 ball
- Muloqot va gigiyena qoidasi – 5 ball

“Tezkor diagnostika estafetasi” (**Guruhli musobaqa**)

### **Maqsad:**

Nafas yo'llari kasalliklarida simptom–tashxis–tekshiruv–davolash bog'liqligini mustahkamlash.

### **Ishtirokchilar:**

Guruh 3 ta jamoaga bo'linadi.

### **O'yin qoidasi:**

Har jamoaga konvert beriladi. Ichida 4 xil kartochka bo'ladi:

- Belgilar (masalan: hansirash, nam xirillash, quruq yo'tal)
- Tashxis
- Tekshiruv usuli
- Davolash usuli

### **Vazifa:**

4. Belgiga mos kasallikni topish
5. Mos zamonaviy tekshiruvni tanlash
6. To'g'ri davolashni qo'shish

Vaqt: 3 daqiqa

### **1-vaziyatli masala**

#### **Vaziyat:**

45 yoshli erkak bemor 3 kundan beri yuqori harorat ( $38.8^{\circ}\text{C}$ ), balg'amli yo'tal, ko'krak qafasida og'riq va umumiy holsizlikdan shikoyat qiladi. Ko'rikda:

hansirash, perkussiyada o'ng pastki bo'limda bo'g'iq tovush, auskultatsiyada nam xirillashlar aniqlanadi.

**Savollar:**

4. Taxminiy tashxisni ayting.
5. Qaysi zamonaviy tekshiruv usuli tashxisni tasdiqlaydi?
6. Davolash tamoyillarini tushuntiring.

**Javob yo'nalishi:**

- Taxminiy tashxis: Pnevmoniya
- Tekshiruv: Ko'krak qafasi rentgenografiyasi, umumiy qon tahlili, CRP
- Davo: Antibiotik terapiya, simptomatik davolash, kislorod terapiyasi (zarurat bo'lsa)

**2-vaziyatli masala**

**Vaziyat:**

30 yoshli ayol bemor allergiyaga moyil. To'satdan nafas qisishi, ko'krakda siqilish, quruq yo'tal paydo bo'ldi. Auskultatsiyada quruq xirillash eshitiladi. Nafas chiqarish qiyinlashgan.

**Savollar:**

4. Taxminiy tashxis?
5. Qaysi tekshiruv usuli tashxisni aniqlashda muhim?
6. Shoshilinch yordam va zamonaviy davolash usuli?

**Javob yo'nalishi:**

- Taxminiy tashxis: Bronxial astma xuruji
- Tekshiruv: Spirometriya
- Davo: Inhalyatsion bronxolitiklar (salbutamol), inhalyatsion glyukokortikosteroidlar, nebulizer terapiya

**3-vaziyatli masala**

**Vaziyat:**

60 yoshli erkak, 30 yildan beri chekuvchi. So'nggi 5 yilda doimiy yo'tal va balg'am ajralishi bor. Oxirgi paytda hansirash kuchaygan. Spirometriyada FEV1 pasaygan.

**Savollar:**

4. Taxminiy tashxis?

5. Kasallikning asosiy xavf omili?
6. Zamonaviy davolash yondashuvi qanday?

**Javob yoʻnalishi:**

- Taxminiy tashxis: Surunkali obstruktiv oʻpka kasalligi
- Xavf omili: Chekish
- Davo: Bronxolitiklar (uzoq taʼsir qiluvchi), inhalyatsion steroidlar, kislorod terapiyasi, rehabilitatsiya, chekishni tashlash

**TEST SAVOLLARI**

**1. Pnevmoniyani tasdiqlovchi asosiy tekshiruv usuli:**

- A) EKG
- B) UTT
- C) Koʻkrak qafasi rentgenografiyasi \*
- D) Gastroskopiya

**2. Spirometriya qaysi kasallikda muhim diagnostik ahamiyatga ega?**

- A) Gastrit
- B) Bronxial astma \*
- C) Pielonefrit
- D) Anemiya

**3. SOʻOK uchun xos belgi:**

- A) Toʻsatdan yuqori isitma
- B) Quruq yoʻtal 1–2 kun
- C) Uzoq davom etuvchi yoʻtal va hansirash \*
- D) Qorin ogʻrigʻi

**4. Bronxolitik dorilar taʼsiri:**

- A) Haroratni tushiradi
- B) Bronxlarni kengaytiradi \*
- C) Qon bosimini oshiradi
- D) Ogʻriqni kamaytiradi

**5. Pnevmoniyada asosiy davolash vositasi:**

- A) Antigistamin
- B) Antiviral
- C) Antibiotik \*
- D) Vitamin

**6. Nafas yetishmovchiligining asosiy belgisi:**

- A) Bradikardiya

- B) Hansirash \*
- C) Ich ketish
- D) Qusish

**7. Nebulizer terapiyasi qaysi usulga kiradi?**

- A) Parenteral
- B) Inhalyatsion \*
- C) Enteral
- D) Jarrohlik

**8. Pnevmoniyada perkussiya natijasi:**

- A) Timpanik tovush
- B) Bo‘g‘iq tovush \*
- C) Qarsildoq tovush
- D) O‘zgarmaydi

**9. Bronxial astmada eshitiladigan nafas shovqini:**

- A) Nam xirillash
- B) Quruq xirillash \*
- C) Sistolik shovqin
- D) Ichak shovqini

**10. SO‘OK rivojlanishining asosiy xavf omili:**

- A) Allergiya
- B) Chekish \*
- C) Sovqotish
- D) Stress

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.G.Gadayev "Ichki kasalliklar propedevtikasi" darslik Toshkent 2023yil
2. A.G.Gadayev "Ichki kasalliklar" darslik Toshkent 2014yil
- 3 .A.G.Gadayev "Ichki kasalliklar" darslik Toshkent 2022yil
- 4 . V.N.Turakulov."Terapiyada xamshiralik parvarishi " darslik Toshkent 2019yil
- 5 . A.G.Gadayev "Terapiya" o'quv uslubiy qo'llanma 2020y
6. F.A.Qulmurodova "Ichki kasalliklarda hamshiralik ishi" o'quv uslubiy qollanma 2024y
- 7 .Z.A.Safarov "Ichki kasalliklarda hamshiralik ishi" o'quv uslubiy qollanma Termiz 2024 yil

<b>2.2.O'quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>SOO`K tushunchasi va klinik kechishi.</b>
---	--

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg'ulot</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. SOO`K tushunchasi va ta'rifi</li> <li>2. SOO`K etiologiyasi (asosiy va qo'shimcha sabablar)</li> <li>3. SOO`K patogenezini (rivojlanish mexanizmi)</li> </ol>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissinini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissinini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<p style="text-align: center;"><b>Pedagogik vazifalar</b></p> <p>Infeksion va noinfeksion nafas tizimi kasalliklar, SOO`Klar (Surunkali obstruktiv o'pka kasalliklari) sabablari va klinik kechishi, dunyo bo'yicha tarqalish yo'llari va ularning profilaktikasi. Kasalliklarni aniqlashda zamonaviy yondoshuv, bemorlarni zamonaviy tekshiruv usullarini o'tkazishda hamshiraning o'rni. Bronxit, bronxial astma kasalliklarni kelib chiqishida ekologiya, atrof-muhit, infeksiyaning ta'siri. Kasalliklarning tasnifi, zamonaviy tekshirish, davolash va parvarishlash usullari. Kasalliklarining profilaktikasi, asoratlarini oldini olishda hamshiralik jarayoni olib borish.</p>	<p><b>O'quv faoliyatini natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• nafas olish a'zolari tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlarini;</li> <li>• nafas olish a'zolari kasalliklarini sabablarini;</li> <li>• bemorlarni zamonaviy tekshiruv usullarini;</li> <li>• bronxit, bronxial astma kasalliklarni kelib chiqishi sabablarini;</li> <li>• zotiljam, o'pka sili, plevrit kasalliklarini sabablarini;</li> <li>• kasalliklarning zamonaviy tasnifini;</li> </ul>
O'qitish metodlari	<b>“SO`OK Klinik Qaror Qabul Qilish”, “Klinik xato toping” usullari</b>

	bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish</b> <b>10 daqiqa</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalarini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b> <b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash</b> <b>20-25 daq</b> <b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b> <b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga <b>"SO'OK Klinik Qaror Qabul Qilish"</b> "tarzida mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.</p> <p>Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar."</p> <p>"Klinik xato</p>

		toping” sxemasi bo’yicha tinglovchilar tomonidan to’ldiriladi
<b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag’batlantirilib, baxolar e’lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: SOO`K tushunchasi va klinik kechishi mavzuni o’qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>7. A. Gadayev Ichki kasalliklar Toshkent-2022y;</p> <p>8. A. Gadayev, M. Ziyaeva, R.To’raqulov Terapiya o’quv qo’llanma Toshkent-2022y</p> <p>9. B.N.Turaqulov, L.X. Musadjonova, X.A. Raxmatov Terapiyada hamshiralik parvarishi o’quv qo’lanma Navoiy nashriyoti-2019 yil.</p>	Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar

### **Mavzu: SOO`K tushunchasi va klinik kechishi.**

#### **Dars rejasi:**

- 4. SOO`K tushunchasi va ta’rifi**
- 5. SOO`K etiologiyasi (asosiy va qo’shimcha sabablar)**
- 6. SOO`K patogenezi (rivojlanish mexanizmi)**

**SOO`K (Surunkali obstruktiv o’pka kasalligi)** — bu o’pkada havo oqimining doimiy va qaytmas cheklanishi bilan kechadigan surunkali, asta-sekin rivojlanadigan kasallikdir. Bu kasallik bronxlar devorining surunkali yallig’lanishi, shilliq qavatning qalinlashishi va balg’am ishlab chiqarilishining ortishi natijasida yuzaga keladi. Natijada bronxlar torayadi va havo o’tishi qiyinlashadi.

SOO`K rivojlanishida o’pka to’qimasining elastikligi kamayadi, alveolalar (o’pka pufakchalari) shikastlanadi va gaz almashinuvi buziladi. Shu sababli organizm kislorod yetishmovchiligiga duch keladi. Kasallik ko’pincha uzoq muddatli chekish, zararli ishlab chiqarish omillari yoki havo ifloslanishi ta’sirida shakllanadi.

SOO‘K to‘liq tuzaladigan kasallik emas, lekin zamonaviy davolash usullari yordamida uning rivojlanishini sekinlashtirish va bemorning hayot sifatini yaxshilash mumkin. Kasallik odatda 40 yoshdan keyin aniqlanadi va vaqt o‘tishi bilan nafas qisishi, yo‘tal hamda balg‘am ajralishi kabi belgilar bilan namoyon bo‘ladi.

SOO‘K etiologiyasi (sabablari)

Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi rivojlanishida turli tashqi va ichki omillar muhim rol o‘ynaydi. Kasallik odatda uzoq muddat davomida zararli omillar ta’sirida asta-sekin shakllanadi.

SOO‘Kning asosiy sababi — chekishdir. Tamaki tutuni bronx shilliq qavatini doimiy zararlaydi, yallig‘lanishni kuchaytiradi va balg‘am ishlab chiqarilishini oshiradi. Natijada bronxlar torayadi va havo o‘tishi cheklanadi. Passiv chekish ham xavf omili hisoblanadi.

Kasbiy zararli omillar ham muhim sababdir. Chang, kimyoviy moddalar, gazlar va tutun bilan uzoq muddat ishlash bronxlar shilliq qavatining surunkali yallig‘lanishiga olib keladi. Ayniqsa konchilik, qurilish, metallurgiya va qishloq xo‘jaligi sohalarida ishlovchilar xavf guruhiga kiradi.

Atmosfera havosining ifloslanishi ham SOO‘K rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Sanoat chiqindilari, avtomobil gazlari va maishiy yoqilg‘i mahsulotlari nafas yo‘llariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tez-tez takrorlanadigan o‘tkir respirator infeksiyalar, ayniqsa bolalik davrida o‘tkazilgan og‘ir bronxit va pnevmoniyalar ham keyinchalik surunkali obstruksiya olib kelishi mumkin.

Irsiy omillar ham ma’lum ahamiyatga ega. Masalan, alfa-1 antitripsin yetishmovchiligi o‘pka to‘qimasining tez shikastlanishiga sabab bo‘ladi va emfizema rivojlanish xavfini oshiradi.

Shunday qilib, SOO‘K etiologiyasi ko‘p omilli bo‘lib, eng asosiy va oldini olish mumkin bo‘lgan sabab — chekishdir. Zararli omillarni bartaraf etish kasallikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega

SOO‘K patogenezi (rivojlanish mexanizmi)

Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (SOO‘K) patogenezi — bu kasallikning organizmda qanday rivojlanishi va o‘pka to‘qimalariga qanday zarar yetishini tushuntiradi. Kasallik asta-sekin, surunkali yallig‘lanish jarayonlari natijasida rivojlanadi.

Asosiy mexanizm quyidagilardan iborat:

1. **Bronx shilliq qavatining yallig‘lanishi**  
Chekish tutuni, chang, gazlar yoki boshqa toksinlar bronx shilliq qavatiga ta’sir qiladi. Natijada shilliq qavat qalinlashadi, yallig‘lanish hujayralari (leykotsitlar, makrofaglar) faoliyati kuchayadi va balg‘am ishlab chiqarilishi ortadi.
2. **Bronxlarning torayishi**  
Shilliq qavat qalinlashishi va bronx mushaklarining spazmi havo oqimini cheklaydi. Bu bronx obstruksiyasiga olib keladi. Havo bronxlarga kirib chiqishi qiyinlashadi, shuning uchun nafas qisishi paydo bo‘ladi.
3. **Alveolalarning (o‘pka pufakchalari) shikastlanishi**  
Surunkali yallig‘lanish alveolalar devorlarini buzadi, ularning elastikligi kamayadi va havo almashinuvi samarasi pasayadi. Bu jarayon emfizema deb ataladi.
4. **Gaz almashinuvi buzilishi**  
Oksigen qoni yetishmovchiligi (hipoksemiya) va karbonat angidrid ortishi (hiperkapniya) rivojlanadi. Shu sababli organizmda nafas yetishmovchiligi belgilari paydo bo‘ladi.
5. **Organizmning kompensator reaksiyalari**  
Yurak tezlashadi, nafas tezlashadi, mushaklar va yurak faoliyati o‘pka yetishmovchiligi bilan moslashishga harakat qiladi. Biroq, vaqt o‘tishi bilan bu mexanizmlar sustlashadi va kasallik og‘irroq bosqichga o‘tadi.

## SOO‘K klinik belgilari

Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (SOO‘K) asta-sekin rivojlanadigan kasallik bo‘lgani uchun uning belgilarini dastlabki bosqichlarda aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin. Kasallikning klinik kechishi ko‘plab simptomlar bilan namoyon bo‘ladi va ularni ikki guruhga ajratish mumkin: mahalliy (nafas yo‘llariga oid) va umumiy belgilar.

### 1. Mahalliy (nafas yo‘llari) belgilar:

- **Surunkali yo‘tal** – kasallikning eng erta va doimiy belgisi. Ko‘pincha ertalab kuchliroq bo‘ladi.
- **Balg‘am ajralishi** – balg‘am odatda shilliq va yopishqoq, kasallik rivojlangan sari ko‘payadi.
- **Nafas qisishi** – dastlab jismoniy harakat bilan paydo bo‘ladi, kasallik og‘irlashganda tinch holatda ham kuzatiladi.
- **Hansirash yoki hushtaksimon nafas** – bronxlar torayganligi sababli nafas olish vaqtida havo o‘tishi qiyinlashadi.
- **Ko‘krak qafasining o‘zgarishi** – uzoq davom etgan SOO‘Kda bochkasimon ko‘krak paydo bo‘ladi, o‘pka alveolalarining elastikligi kamayadi.

### 2. Umumiy belgilar:

- **Umumiy holsizlik** – bemor tez charchaydi, jismoniy yuklamaga chidamsiz bo‘ladi.
- **Siyanoz** – lablar va barmoqlarda ko‘kargan rang (kislorod yetishmovchiligi sababli).
- **Hujayralarda kislorod yetishmovchiligi** – bu simptomlar kasallik og‘ir bosqichga yetganini ko‘rsatadi.
- **Tez-tez infeksiyon kasalliklar qo‘shilishi** – surunkali bronxit yoki pnevmoniya rivojlanishi mumkin.

SOO‘K bosqichlari va og‘irlik darajalari

Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (SOO‘K) asta-sekin rivojlanadi va uning klinik kechishi bosqichma-bosqich kechadi. Kasallik bosqichlarini aniqlash bemorning davolash strategiyasini belgilashda muhimdir.

#### 1. Yengil bosqich (I daraja)

- Nafas qisishi faqat jismoniy faoliyat paytida seziladi.
- Yo‘tal va balg‘am ajralishi muntazam, ammo og‘ir emas.
- Tana holati nisbatan saqlangan.
- Bemor kundalik ishlarni bajarishga qodir.

#### 2. O‘rta bosqich (II daraja)

- Nafas qisishi kam harakat bilan ham paydo bo‘la boshlaydi.
- Yo‘tal va balg‘am ajralishi kuchayadi.
- Tez charchash va umumiy holsizlik kuzatiladi.
- Kasallikning og‘irlik darajasi oshadi, bemor jismoniy ishlarni cheklashga majbur bo‘ladi.

#### 3. Og‘ir bosqich (III daraja)

- Nafas qisishi tinch holatda ham seziladi.
- Yo‘tal, balg‘am ajralishi va hushtaksimon nafas kuchayadi.
- Sianoz (teri va lablarning ko‘karishi), oyoqlarda shishlar paydo bo‘lishi mumkin.
- Yurak va o‘pka faoliyati buzilishi (o‘pka yuragi) ehtimoli mavjud.
- Bemor kundalik faoliyatni bajarishda mustaqil bo‘la olmaydi.

#### 4. Juda og‘ir bosqich (IV daraja, terminal)

- Nafas yetishmovchiligi doimiy va kuchli bo‘ladi.
- Bemor doimiy kislorod terapiyasiga muhtoj.
- Surunkali asoratlar, o‘pka yuragi va yurak yetishmovchiligi rivojlanadi.
- Ko‘pincha og‘ir infeksiyalar qo‘shilishi xavfi yuqori bo‘ladi.

## SOO‘K asoratlari

Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (SOO‘K) uzoq vaqt davomida rivojlanganda turli og‘ir asoratlar paydo bo‘lishi mumkin. Bu asoratlar nafas yetishmovchiligi, yurak va boshqa tizimlarning ishdan chiqishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Asosiy asoratlar:

### 1. Nafas yetishmovchiligi

- O‘pka alveolalari va bronxlarning shikastlanishi natijasida kislorod qoni yetishmovchiligi rivojlanadi.
- Bemor tinch holatda ham nafas qisishi va charchashni sezadi.

### 2. O‘pka yuragi (cor pulmonale)

- Surunkali hipoksiya natijasida o‘ng yurak qorinchasida ortiqcha yuklanish paydo bo‘ladi.
- Natijada yurak yetishmovchiligi belgilari (oyoqlarda shish, tez charchash) kuzatiladi.

### 3. Takroriy respirator infeksiyalar

- Surunkali bronxit va pnevmoniyalar SOO‘Kda tez-tez uchraydi.
- Infeksiyalar kasallikni kuchaytiradi va nafas qisishini orttiradi.

### 4. Sianoz va hujayra kislorod yetishmovchiligi

Bemor behush yoki noadekvat holatda, bo'shashgan, sovuq ter bosgan, muskullar tonusi past. Tanasini ushlab ko'rganimizda, terisi nam bo'ladi. Qonda qand miqdori aniqlanib, vena tomiri ichiga glyukoza yuboriladi.

### **Giperglikemik koma.**

Giperglikemik komada qonda qand miqdorining oshib ketishi natijasida yuzaga keladi.

Bemor behush yoki noadekvat holatda, bo'shashgan, muskullar tonusi baland, qayt qilishi mumkin, shovqinli nafas oladi, o'zi sezmaganda holatda xarakatlanadi. Badanining terisi quruq bo'ladi. Tanasidan atseton hidi keladi. Qonda qand miqdori aniqlanib, vrach tavsiyasiga ko'ra insulin qilinadi.

### **Qandsiz diabet.**

Bu kasallik organizmda antidiuretik gormon, ya'ni vazopressin yetarlicha hosil bo'lib turmasligidan kelib chiqadi. Antidiuretik gormon - vazopressin gipofiz orqa bo'lagida ishlab chiqariladi.

**Sababi.** Qandsiz diabet kasalligi gipotalamo- gipofizar sistema o'tkir va surunkali infeksiyalar bilan zararlanganida yoki o'smalar paydo bo'lganida, bosh miya jaroxati oqibatida kuzatiladi.

**Klinikasi.** Tez-tez chanqash, ko'p suv ichish, tez-tez va ko'p siyish, bemorlar 10 litrgacha suyuqlik is'temol qilishlari mumkin. Teri qichishishi, quvvatsizlik, tez

charchash, bosh, yurak sohasida og‘riq, uyqu buzilishi, ko‘z xiralashuvi bezovta qiladi. Poliuriya natijasida bemor terisi quruqshab qoladi.

**Parvarishlash va davolash.** Antibiotiklar, antidiuretik gormonlar, simptomatik davo buyuriladi. Adiurekrin 0,03-0,05g dan har 6-8 soatda intranazal (engil nafas olish yo‘li) buyuriladi. Pituitrin yoki vazopressin 1,0ml teri ostiga kuniga 3-4 marta qilinadi.

Endokrin tizim kasalliklari ichki sekretiya bezlari faoliyatining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Eng ko‘p uchraydigan endokrin kasalliklarga qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklari, semizlik, gipofiz va buyrak usti bezlari patologiyalari kiradi. Ushbu kasalliklar ko‘pincha surunkali kechadi va uzoq muddatli davolash hamda rehabilitatsiyani talab qiladi.

Rehabilitatsiya – bu bemorning sog‘ligini tiklash, asoratlarni kamaytirish va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir.

## **1. Rehabilitatsiyaning maqsadi**

- Gormonal muvozanatni barqarorlashtirish
- Asoratlarning oldini olish
- Mehnat qobiliyatini saqlash
- Bemorning jismoniy va psixo-emosional holatini yaxshilash
- Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish

Masalan, Qandli diabet bilan og‘rigan bemorda rehabilitatsiyaning asosiy maqsadi — glikemiyani nazorat qilish va angiopatiya, nefropatiya kabi asoratlarni oldini olishdir.

## **2. Endokrin kasalliklarda rehabilitatsiya turlari**

### **1) Tibbiy rehabilitatsiya**

- Gormon terapiyasi (insulin, tiroksin va boshqalar)
- Dori vositalarini to‘g‘ri qabul qilish nazorati
- Laborator tekshiruvlar monitoringi
- Asoratlarni davolash

Masalan, Gipotireoz da levotiroksin bilan doimiy davolash zarur.

### **2) Jismoniy rehabilitatsiya**

- Davolovchi jismoniy mashqlar
- Yengil aerob yuklamalar (yurish, suzish)
- Nafas mashqlari
- Vazn nazorati

Semizlik va Metabolik sindrom da muntazam jismoniy faollik insulin sezgirligini oshiradi.

### **3) Psixologik reabilitatsiya**

- Stressni kamaytirish
- Psixolog bilan suhbat
- Motivatsion treninglar
- Oilaviy qo‘llab-quvvatlash

Surunkali kasalliklarda depressiya xavfi yuqori bo‘ladi, ayniqsa Gipertireoz da asabiylik va bezovtalik kuzatiladi.

### **4) Ijtimoiy reabilitatsiya**

- Mehnat sharoitini moslashtirish
- Ijtimoiy yordam
- Nogironlikni rasmiylashtirish (zarurat bo‘lsa)

## **3. Turmush tarzini o‘zgartirish tamoyillari**

### **1. To‘g‘ri ovqatlanish**

- Ratsional va muvozanatli dieta
- Shakar va tez hazm bo‘ladigan uglevodlarni cheklash
- Tuzni kamaytirish
- Hayvon yog‘larini qisqartirish
- Sabzavot va tolaga boy mahsulotlarni ko‘paytirish

Qandli diabetda “non birligi” tizimi asosida ovqatlanish tavsiya etiladi.

### **2. Jismoniy faollik**

- Haftasiga kamida 150 daqiqa o‘rtacha yuklama
- Har kuni 30–40 daqiqa piyoda yurish
- Ortiqcha vaznda bosqichma-bosqich yuklama oshirish

### **3. Zararli odatlardan voz kechish**

- Chekishni tashlash
- Spirtli ichimliklarni cheklash
- Uyqu rejimini normallashtirish

Chekish endokrin kasalliklarda yurak-qon tomir asoratlarini kuchaytiradi.

### **4. Stressni boshqarish**

- Meditatsiya
- Nafas mashqlari
- Psixogigiyena
- Dam olish rejimi

Stress kortizol miqdorini oshirib, glyukoza darajasini ko'tarishi mumkin.

#### **4. Hamshiralik roli**

##### **Endokrin kasalliklarda hamshiraning vazifalari:**

- Bemorni o'qitish (dori qabul qilish, glyukometrdan foydalanish)
- Ovqatlanish bo'yicha maslahat berish
- Insulin yuborish texnikasini o'rgatish
- Qon bosimi va glyukoza monitoringi
- Asoratlarni erta aniqlash

Hamshira bemorni mustaqil o'zini nazorat qilishga o'rgatadi.

#### **5. Asoratlarning oldini olish**

- Doimiy laborator nazorat
- Profilaktik ko'riklar
- Ko'z, buyrak va yurak tekshiruvlari
- Vazn va arterial bosim nazorati

#### **Nazorat savollari**

1. Endokrin tizimning asosiy bezlari qaysilar?
2. Gipofiz bezining vazifasi va uning sekret qiladigan gormonlari qanday?
3. Qandli diabetning 1-chi va 2-chi turi farqlari nimalardan iborat?
4. Qalqonsimon bez kasalliklarining asosiy belgilarini sanab bering.
5. Addison kasalligi va Cushing kasalligi o'rtasidagi farq nimada?
6. Gipertiroidizm va gipotiroidizmning klinik belgilarini taqqoslab yozing.
7. Paratireoid bezining vazifasi va paratireoid gormoni yetishmovchiligi qanday kasalliklarga olib keladi?
8. Endokrin bezlar tomonidan gormonlar sekretsiyasini boshqaruvchi mexanizmlar qaysilar?
9. Insulin va glyukagonning qondagi glyukoza darajasiga ta'siri qanday?
10. Endokrin tizim kasalliklarini diagnostika qilishda qaysi laborator testlar va usullar ishlatiladi?

#### **“Klaster” (Tarmoqlash) metodi**

##### **Metodning maqsadi:**

Talabalarda endokrin bezlar va ularning kasalliklari o‘rtasidagi bog‘liqlikni shakllantirish, tizimli fikrlashni rivojlantirish.

### **O‘tkazish tartibi:**

1. Doska markaziga: **“Endokrin tizimi”** deb yoziladi.
2. Talabalar navbat bilan asosiy bezlarni yozadilar:
  - **Gipofiz bezi**
  - **Qalqonsimon bez**
  - **Buyrak usti bezlari**
  - **Oshqozon osti bezi**
  - **Paratireoid bezlar**
3. Har bir bezdan uning:
  - ajratadigan gormoni
  - asosiy vazifasi
  - kasalligi (masalan: diabet, gipertiroidizm, Addison, Cushing va boshqalar)

ko‘rinishida tarmoqlar chiziladi.

4. Yakunda umumiy tahlil qilinadi.

### **“Vaziyatli rolli o‘yin” metodi**

#### **Metodning maqsadi:**

Talabalarda klinik fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish.

### **O‘tkazish tartibi:**

1. Talabalar 3 guruhga bo‘linadi:
  - 1-guruh: Shifokor
  - 2-guruh: Hamshira
  - 3-guruh: Bemor
2. Har bir guruhga alohida kasallik beriladi:
  - **Qandli diabet**
  - **Gipertiroidizm**
  - **Addison kasalligi**
3. Vazifa:
  - Bemor simptomlarni ifodalaydi
  - Shifokor tashxis qo‘yadi
  - Hamshira parvarish rejasini tuzadi
4. Yakunda boshqa guruhlar tahlil qiladi va xatolarni muhokama qiladi.

### **Natija:**

- Klinik fikrlash rivojlanadi
- Jamoaviy ishlash shakllanadi
- Amaliy bilim mustahkamlanadi

## Test savollar

### 1. Gipofiz bezining asosiy vazifasi nima?

- A. Tanadagi suv muvozanatini saqlash
- B. Metabolizmni boshqarish
- C. Organizmning boshqa bezlarini gormonlar orqali boshqarish\*
- D. Immunitetni mustahkamlash

### 2. Qandli diabetning 1-turida asosiy muammo nima?

- A. Insulin ishlab chiqarilishining yetishmasligi\*
- B. Insulinga qarshilik paydo bo'lishi
- C. Qon glyukoza darajasi past bo'lishi
- D. Gipofiz faoliyatining buzilishi

### 3. Qalqonsimon bez gormonlari qaysilar?

- A. Tiroksin (T4) va triyodtironin (T3)\*
- B. Insulin va glyukagon
- C. Kortizol va aldosteron
- D. Adrenalin va noradrenalin

### 4. Gipertiroidizmida asosiy simptom nima?

- A. Semirish
- B. Charchash va sustlik
- C. Tez yurak urishi, ishtaha oshishi\*
- D. Qon bosimi pasayishi

### 5. Cushing kasalligi qaysi gormonning ortiqcha ishlab chiqarilishi bilan bog'liq?

- A. Adrenokortikotrop gormon (ACTH)
- B. Kortizol\*
- C. Insulin
- D. Tiroksin

### 6. Paratiroid gormoni yetishmovchiligi nima kasallikka olib keladi?

- A. Osteoporoz\*
- B. Qandli diabet
- C. Gipertiroidizm
- D. Addison kasalligi

### 7. Gipotiroidizm belgilaridan biri qaysi?

- A. Charchash va vazn ortishi\*
- B. Tez yurak urishi

- C. Terining yupqalanishi
- D. Tez ishtaha oshishi

**8. Qandli diabetni diagnostika qilishda qaysi test ishlatiladi?**

- A. Qon glyukoza darajasini o'lchash\*
- B. Qon bosimi o'lchash
- C. EKG
- D. Rentgen

**9. Insulin qand miqdorini qanday boshqaradi?**

- A. Qon glyukoza darajasini oshiradi
- B. Qon glyukoza darajasini pasaytiradi\*
- C. Qon bosimini oshiradi
- D. Yallig'lanishni kamaytiradi

**10. Addison kasalligi qaysi bez bilan bog'liq?**

- A. Qalqonsimon bez
- B. Buyrak usti bezlari\*
- C. Gipofiz bez
- D. Paratireoid bez

**Vaziyatli masala**

**Gipertiroidizm (qalqonsimon bez faoliyatining oshishi)**

**Vaziyat:**

Bemor, 45 yoshli ayol, shifokorga tez charchash, tez yurak urishi, vazn yo'qotish va titroqdan shikoyat qilib keldi. Laborator tekshiruvda T3 va T4 gormonlari yuqori, TSH esa past.

**Savollar:**

1. Bemorning klinik simptomlari va laborator natijalariga qarab, eng ehtimoliy tashxisni belgilang.
2. Ushbu kasallikning sabablarini sanab bering.
3. Davolash va xamshiralik parvarishi bo'yicha asosiy choralarni yozing.

**Vaziyatli masala**

**Qandli diabet (2-tur)**

**Vaziyat:**

Bemor, 55 yoshli erkak, tez-tez chanqash, ko'p siydik chiqarish va vazn ortishdan shikoyat qiladi. Oilaviy tarixida qandli diabet mavjud. Qon glyukoza darajasi 9 mmol/L, HbA1c 8%.

**Savollar:**

1. Ushbu bemorning simptomlari va test natijalariga qarab, tashxisni belgilang.
2. Kasallikning oldini olish va nazorat qilish uchun qanday hayot tarzi o'zgarishlarini tavsiya qilasiz?
3. Davolash va xamshiralik parvarishi bo'yicha asosiy chora-tadbirlarni yozing.

<b>2.6.O'quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>Reabilitatsiya va turmush tarzini o'zgartirish.</b>
---	--

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg'ulot</b>
	1. Endokrin tizimi va uning asosiy

<p style="text-align: center;"><b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b></p>	<p>kasalliklari haqida umumiy tushuncha.</p> <p>2. Reabilitatsiya tushunchasi va uning turlari (tibbiy, ijtimoiy, psixologik).</p> <p>3. Qandli diabetda reabilitatsiya va hayot tarzini o'zgartirish.</p>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<p style="text-align: center;"><b>Pedagogik vazifalar</b></p> <p>Qalqonsimon bez faoliyati va uning garmonlari fiziologiyasi haqida ma'lumot. Diffuz toksik buqoq, Miksidema kasalligi va endemik buqoq kasallikni sabablari, belgilari, bemorlarni parvarishlash. Bemorni zamonaviy laborator va instrumental tekshirish usullariga tayyorlash. Qandli diabet kasalligi, kelib chiqish sabablari, belgilari, bemorlarni parvarishlash, asoratlari va ularni oldini olish. Semizlik va uning asoratlari. Insulin bilan davolash ahamiyati, dozalari, yuborish yo'llari, saqlash qoidalari.</p>	<p><b>O'quv faoliyatini natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• qalqonsimon bez faoliyati va uning gormonlari fiziologiyasini;</li> <li>• teriotoksikoz, gipotireoz va endemik buqoq kasalliklari sabablarini;</li> <li>• qandli diabet kasalligini kelib chiqish sabablarini;</li> <li>• qandli diabet kasalligi asoratlari va ularni oldini olishni;</li> <li>• insulin bilan davolashning ahamiyati va yuborish yo'llarini;</li> <li>• insulin turlarini;</li> <li>• insulinni saqlash qoidalarini;</li> </ul>
<p>O'qitish metodlari</p>	<p>“Gormonlar va bezlar labirinti”  “Bemor yo‘li: Qandli diabet bilan kun”  usullari bilan ishlash</p>
<p>O'quv faoliyatini tashkil etish</p>	<p>Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli</p>
<p>O'qitish vositalari</p>	<p>Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat</p>

	varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p style="text-align: center;"><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish</b> <b>10 daqiqa</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash</b> <b>20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga "Gormonlar va bezlar labirinti" tarzida mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar "Bemor yo'li: Qandli diabet bilan kun" sxemasi bo'yicha</p>

		tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi
<b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Reabilitatsiya va turmush tarzini o'zgartirish mavzuni o'qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:  40.A. Gadayev Ichki kasalliklar Toshkent-2022y;  41.A. Gadayev, M. Ziyaeva, R.To'raqulov Terapiya o'quv qo'llanma Toshkent-2022y  42.B.N.Turaqulov, L.X. Musadjonova, X.A. Raxmatov Terapiyada hamshiralik parvarishi o'quv qo'llanma Navoiy nashriyoti-2019 yil.</p>	Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar

### **Mavzu: Reabilitatsiya va turmush tarzini o'zgartirish.**

#### **Reja:**

1. Endokrin tizimi va uning asosiy kasalliklari haqida umumiy tushuncha.
2. Reabilitatsiya tushunchasi va uning turlari (tibbiy, ijtimoiy, psixologik).
3. Qandli diabetda reabilitatsiya va hayot tarzini o'zgartirish.

#### **Endokrin tizimi va uning asosiy kasalliklari haqida umumiy tushuncha**

Endokrin tizim — bu organizm faoliyatini gormonlar orqali boshqaruvchi bezlar tizimi bo'lib, u modda almashinuvi, o'sish va rivojlanish, jinsiy yetilish, stressga javob reaksiyasi hamda ichki muhit barqarorligini ta'minlaydi. Endokrin bezlar o'z sekretini to'g'ridan-to'g'ri qonga ajratadi va ular ishlab chiqargan gormonlar maqsad a'zolariga ta'sir ko'rsatadi.

Endokrin tizimning markaziy boshqaruvchisi — gipotalamus va gipofiz bo'lib, ular boshqa bezlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Muhim periferik bezlarga qalqonsimon bez, qalqonsimon oldi bezlari, oshqozon osti bezining Langergans orolchalari, buyrak usti bezlari hamda jinsiy bezlar kiradi.

Eng keng tarqalgan endokrin kasalliklardan biri — Qandli diabet hisoblanadi. Bu kasallik insulin yetishmovchiligi yoki to‘qimalarning insulinga sezgirligi pasayishi natijasida yuzaga keladi. Natijada qonda glyukoza miqdori oshadi (giperglikemiya). Qandli diabetning asosiy belgilari: ko‘p chanqash, tez-tez siyish, vazn yo‘qotish yoki semirish, holsizlik, yara bitishining sekinlashishi. Uzoq davom etganda yurak-qon tomir, buyrak, ko‘z va asab tizimi asoratlari rivojlanishi mumkin.

Yana bir keng tarqalgan kasallik — Gipotireoz bo‘lib, qalqonsimon bez gormonlari yetishmovchiligi bilan tavsiflanadi. Bemorlar lanjlik, sovuqqa chidamsizlik, vazn ortishi, teri qurishi, bradikardiya kabi belgilarni sezadilar. Aksincha, qalqonsimon bez gormonlari ortiqcha ishlab chiqarilganda Gipertireoz rivojlanadi. Unda asabiylik, yurak urish tezlashuvi, ozib ketish, ko‘z chaqchayishi kuzatiladi.

Endokrin tizim kasalliklari qatoriga shuningdek semizlik, metabolik sindrom, buyrak usti bezlari faoliyatining buzilishi (masalan, Itsenko–Kushing sindromi), jinsiy bezlar disfunktsiyasi va boshqa gormonal nomutanosibliklar kiradi. Ushbu kasalliklar ko‘pincha surunkali kechadi va uzoq muddatli nazorat hamda turmush tarzini o‘zgartirishni talab qiladi.

Endokrin kasalliklarning rivojlanish sabablari turlicha bo‘lishi mumkin: irsiy moyillik, noto‘g‘ri ovqatlanish, kamharakatlilik, stress, ekologik omillar, infeksiyalar va autoimmun jarayonlar. So‘nggi yillarda noto‘g‘ri turmush tarzi va semizlikning ortishi sababli endokrin kasalliklar soni sezilarli oshmoqda.

### **Reabilitatsiya tushunchasi va uning turlari (tibbiy, ijtimoiy, psixologik)**

Reabilitatsiya — bu kasallik natijasida buzilgan sog‘liq, funksional imkoniyat va mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir. Endokrin tizimi kasalliklarida reabilitatsiya ayniqsa muhim, chunki ko‘pchilik gormonal kasalliklar surunkali kechadi va bemor uzoq muddat nazorat ostida bo‘lishi kerak.

Endokrin kasalliklarda reabilitatsiyaning asosiy maqsadi — kasallikni kompensatsiya holatida ushlab turish, asoratlarning oldini olish, bemorning hayot sifatini yaxshilash va uni faol ijtimoiy hayotga qaytarishdir. Reabilitatsiya jarayoni individual bo‘lib, bemorning yoshi, kasallik turi, og‘irlik darajasi va psixo-emotsional holatiga qarab belgilanadi.

Reabilitatsiya quyidagi turlarga bo‘linadi:

#### ***1. Tibbiy reabilitatsiya***

Tibbiy reabilitatsiya — bu dori vositalari, parhez, jismoniy mashqlar, fizioterapiya va muntazam nazorat orqali organizm funksiyalarini tiklash jarayonidir. Masalan, Qandli diabetda glyukoza miqdorini nazorat qilish, insulin yoki peroral preparatlarni qabul qilish, ratsional ovqatlanish va jismoniy faollikni oshirish

muhim hisoblanadi. Gipotireozda esa gormon o‘rnini bosuvchi terapiya (levotiroksin) asosiy davolash usuli hisoblanadi.

Tibbiy rehabilitatsiya doimiy monitoringni talab qiladi: qon tahlillari, gormonal tekshiruvlar, arterial bosim nazorati, tana vaznini kuzatish va boshqalar.

## ***2. Ijtimoiy rehabilitatsiya***

Ijtimoiy rehabilitatsiya bemorni jamiyatga moslashtirishga qaratilgan. Surunkali endokrin kasalliklar bemorning mehnat faoliyati, o‘qishi va oilaviy hayotiga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli bemorga kasalligi haqida to‘liq ma’lumot berish, o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Masalan, diabet bilan yashayotgan bemor glyukometrda foydalanishni, to‘g‘ri ovqatlanishni va jismoniy yuklamani rejalashtirishni bilishi kerak.

## ***3. Psixologik rehabilitatsiya***

Gormonal buzilishlar ko‘pincha kayfiyat o‘zgarishi, depressiya, xavotir, asabiylik bilan kechadi. Masalan, Gipertireozda asabiylik va bezovtalik kuchayadi. Shuning uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash, motivatsion suhbatlar, stressni boshqarish usullari va kerak bo‘lsa psixolog yoki psixoterapevt yordami tavsiya etiladi.

Psixologik barqarorlik davolash samaradorligini oshiradi va bemorning rehabilitatsiya jarayoniga faol ishtirok etishini ta’minlaydi.

## **Qandli diabetda rehabilitatsiya va hayot tarzini o‘zgartirish**

Qandli diabet — surunkali metabolik kasallik bo‘lib, insulin yetishmovchiligi yoki to‘qimalarning insulinga sezgirliги pasayishi natijasida qonda glyukoza miqdorining oshishi bilan tavsiflanadi. Ushbu kasallik umr bo‘yi nazoratni talab qiladi. Shuning uchun rehabilitatsiya jarayoni doimiy va kompleks bo‘lishi zarur.

Qandli diabetda rehabilitatsiyaning asosiy maqsadi — glyukozani me’yor darajada ushlab turish, asoratlarning oldini olish va bemorning hayot sifatini yaxshilashdir.

### ***1. Parhez terapiyasi (diyetoterapiya)***

Ovqatlanish tartibi diabetni nazorat qilishning asosiy omillaridan biridir. Bemor:

- Tez hazm bo‘ladigan uglevodlarni (shirinliklar, oq non, gazli ichimliklar) cheklashi;
- Ratsionda murakkab uglevodlar, sabzavotlar, oqsil va tolaga boy mahsulotlarni ko‘paytirishi;
- Ovqatni kuniga 5–6 mahal, oz-ozdan iste’mol qilishi;

- Kaloriya balansini nazorat qilishi kerak.

Parhez individual tarzda tana vazni, yosh va jismoniy faollikka qarab belgilanadi.

## ***2. Jismoniy faollik***

Muntazam jismoniy mashqlar insulin sezgiriligini oshiradi va qondagi glyukozani kamaytiradi. Tavsiya etiladi:

- Har kuni 30–40 daqiqa tez yurish;
- Yengil yugurish, suzish yoki velosiped haydash;
- Ortiqcha vazn bo‘lsa, vazn kamaytirishga qaratilgan mashqlar.

Jismoniy yuklama glyukoza darajasini hisobga olib rejalashtiriladi.

## ***3. Dori terapiyasiga rioya qilish***

1-tip diabetda insulin terapiyasi majburiy hisoblanadi. 2-tip diabetda esa peroral gipoglikemik preparatlar yoki insulin qo‘llanilishi mumkin. Dori vositalarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri dozada qabul qilish kasallikni kompensatsiyada ushlab turishga yordam beradi.

## ***4. O‘z-o‘zini nazorat qilish***

Bemor glyukometr yordamida qondagi glyukozani muntazam o‘lchashi kerak. Shuningdek:

- Arterial bosimni nazorat qilish;
- Tana vaznini kuzatish;
- Oyoq parvarishiga e’tibor berish (diabetik oyoq sindromining oldini olish) muhimdir.

## ***5. Asoratlarning oldini olish***

Diabet yurak-qon tomir kasalliklari, nefropatiya, retinopatiya va neyropatiyaga olib kelishi mumkin. Shu sababli:

- Yiliga kamida 1 marta ko‘z shifokori ko‘rigidan o‘tish;
- Buyrak faoliyatini tekshirtirish;
- Qon lipidlarini nazorat qilish zarur.

## **Qalqonsimon bez kasalliklarida turmush tarzini to‘g‘rilash**

Qalqonsimon bez organizmda modda almashinuvi, yurak-qon tomir tizimi faoliyati, asab tizimi va tana haroratini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Uning funksiyasi buzilganda gormonal nomutanosiblik yuzaga keladi va bu butun organizm

faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Eng ko'p uchraydigan kasalliklar — Gipotireoz va Gipertireoz hisoblanadi.

Qalqonsimon bez kasalliklarida reabilitatsiya va turmush tarzini o'zgartirish kasallikni nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.

### ***1. Ratsional ovqatlanish va yod balansi***

Qalqonsimon bez faoliyati yod elementiga bog'liq. Yod yetishmovchiligi bez faoliyatini pasaytiradi. Shuning uchun:

- Yodlangan tuzdan foydalanish;
- Dengiz mahsulotlari (baliq, dengiz karami) iste'molini oshirish;
- Oqsil va vitaminlarga boy ratsion tuzish tavsiya etiladi.

Ammo gipertireozda ortiqcha yod qabul qilish tavsiya etilmaydi, shuning uchun parhez shifokor nazorati ostida belgilanadi.

### ***2. Dori terapiyasiga qat'iy rioya qilish***

Gipotireozda gormon o'rnini bosuvchi preparatlar (levotiroksin) muntazam va bir vaqtda qabul qilinadi. Gipertireozda esa tireostatik preparatlar qo'llaniladi. Dori dozasi mustaqil o'zgartirilmasligi kerak. Gormonal tekshiruvlar orqali nazorat olib boriladi.

### ***3. Stressni kamaytirish***

Stress qalqonsimon bez faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa gipertireozda asabiylik, bezovtalik kuchayadi. Shuning uchun:

- Yetarli uyqu (7–8 soat);
- Dam olish rejimi;
- Nafas mashqlari va relaksatsiya usullari tavsiya etiladi.

### ***4. Jismoniy faollik***

Gipotireozda modda almashinuvi sekinlashadi va vazn ortishi mumkin. Yengil jismoniy mashqlar (tez yurish, suzish, gimnastika) foydali. Gipertireozda esa yurak urishi tezlashgani sababli og'ir yuklamalardan saqlanish kerak.

### ***5. Muntazam tibbiy nazorat***

Bemorlar:

- Qonda TSH, T3, T4 gormonlarini muntazam tekshirtirish;
- Yurak faoliyatini nazorat qilish;

- Qalqonsimon bez UTT tekshiruvini o'tkazib turishlari zarur.

## **Semizlik va metabolik sindromda reabilitatsiya choralari**

Semizlik — organizmda ortiqcha yog' to'planishi bilan tavsiflanadigan surunkali holat bo'lib, u ko'plab endokrin va yurak-qon tomir kasalliklariga sabab bo'ladi. Ayniqsa Metabolik sindrom rivojlanish xavfi ortadi. Metabolik sindrom — bu arterial gipertenziya, qonda glyukoza va lipidlar miqdorining oshishi hamda abdominal semizlik bilan kechadigan holatdir. U ko'pincha Qandli diabet va yurak kasalliklariga olib keladi.

Semizlik va metabolik sindromda reabilitatsiyaning asosiy maqsadi — tana vaznini kamaytirish, modda almashinuvini yaxshilash va asoratlarning oldini olishdir.

### ***1. Parhez terapiya***

Ovqatlanish tartibini to'g'rilash asosiy bosqich hisoblanadi:

- Kaloriya miqdorini kamaytirish;
- Hayvon yog'lari va tez hazm bo'ladigan uglevodlarni cheklash;
- Sabzavot, meva, to'liq don mahsulotlari va oqsilga boy ovqatlarni ko'paytirish;
- Tuz va shakar iste'molini kamaytirish;
- Ovqatni kuniga 4–5 mahal, oz-ozdan iste'mol qilish.

Parhez individual ravishda tana massasi indeksi (BMI) va umumiy sog'liq holatiga qarab belgilanadi.

### ***2. Jismoniy faollikni oshirish***

Muntazam jismoniy mashqlar yog' to'planishini kamaytiradi va insulin sezgirlikni oshiradi. Tavsiya etiladi:

- Haftasiga kamida 150 daqiqa o'rtacha intensivlikdagi jismoniy faollik;
- Tez yurish, suzish, velosiped haydash;
- Mushaklarni mustahkamlovchi mashqlar.

Mashqlar bosqichma-bosqich va shifokor tavsiyasi asosida bajariladi.

### ***3. Dori terapiyasi va tibbiy nazorat***

Ba'zi hollarda vazn kamaytiruvchi preparatlar yoki glyukoza va lipid almashinuvini tartibga soluvchi dori vositalari qo'llaniladi. Arterial bosim, qondagi glyukoza va xolesterin darajasi muntazam nazorat qilinadi.

#### ***4. Psixologik qo‘llab-quvvatlash***

Semizlik ko‘pincha noto‘g‘ri ovqatlanish odatlari va stress bilan bog‘liq. Shuning uchun:

- Ovqatlanish madaniyatini shakllantirish;
- Stressni boshqarish;
- Motivatsion suhbatlar va psixologik yordam muhim ahamiyatga ega.

#### ***5. Hayot tarzini barqaror o‘zgartirish***

Reabilitatsiya vaqtinchalik emas, balki doimiy hayot tarziga aylanishi kerak. Sog‘lom turmush tarzi — bu muvozanatli ovqatlanish, muntazam harakat va zararli odatlardan voz kechishdir.

#### **Nazorat savollari**

1. Endokrin tizim nima va uning asosiy funksiyalari qanday?
2. Qaysi bezlar endokrin tizimga kiradi va ular qanday gormonlar ishlab chiqaradi?
3. Qandli diabetning asosiy turlari va ularning klinik belgilari nimalardan iborat?
4. Qalqonsimon bez kasalliklarida gormonal nomutanosiblik qanday simptomlar bilan namoyon bo‘ladi?
5. Reabilitatsiya tushunchasi va uning turlari haqida tushuntiring.
6. Qandli diabetda reabilitatsiya jarayoni qanday bosqichlardan iborat?
7. Semizlik va metabolik sindromni oldini olishda qaysi chora-tadbirlar samarali?
8. Gormonal kasalliklarda psixologik qo‘llab-quvvatlash nima uchun muhim?
9. Hamshiralik parvarishining endokrin kasalliklarda roli qanday?
10. Profilaktik chora-tadbirlar orqali endokrin kasalliklarni kamaytirish mumkinmi? Misol keltiring.

“Gormonlar va bezlar labirinti”

**Maqsad:** Bemor yoki talabalarni endokrin tizimi va reabilitatsiya choralari bo‘yicha tezkor fikrlashga o‘rgatish.

#### **Qoidasi:**

1. Xonaga “bezlar” va “gormonlar” kartochkalari joylashtiriladi. Masalan: qalqonsimon bez, gipofiz, insulin, T4, kortizol.
2. Har bir ishtirokchi kartochkani oladi va bemor holatiga mos gormon yoki bezni topishi kerak.

3. Vaziyatli savol o‘qiladi (masalan, gipertireozda qaysi gormon ortiqcha?).
4. To‘g‘ri javob bergan ishtirokchi keyingi bosqichga o‘tadi, noto‘g‘ri javob esa “tuzatish vazifasi” bilan qayta urinadi.
5. O‘yin oxirida kim eng tez va to‘g‘ri javoblar berdi, shuni baholash.

### Natija:

- Talabalar endokrin tizim kasalliklari va reabilitatsiya choralarini amaliy ravishda tez eslaydi.
- Bemor holatida qaror qabul qilish va diagnostik fikrlash ko‘nikmasi rivojlanadi.

“Bemor yo‘li: Qandli diabet bilan kun”

**Maqsad:** Talabalarni qandli diabet bilan yashovchi bemor hayotini boshqarish, reabilitatsiya choralarini amalda qo‘llash va klinik fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

### Kerakli jihozlar:

- Bemor kartochkalari: har birida kunning turli holatlari yoki simptomlari yozilgan (masalan, “Ertalab glyukoza o‘lchash”, “Ovqatlanish va parhez nazorati”, “Jismoniy mashq qilish”, “Yurak tez urishi, charchoq”).
- Qaror kartochkalari: “Dori qabul qilish”, “Ovqatni to‘g‘rilash”, “Glyukozani o‘lchash”, “Shifokor bilan maslahatlashish”.
- Stikerlar yoki rangli markerlar (har to‘g‘ri qaror uchun ball qo‘yish uchun).

### O‘yin ketma-ketligi:

1. Har bir jamoa yoki ishtirokchi bemor rolini oladi.
2. Moderator kunning turli vaziyatlarini o‘qiydi. Masalan:
  - “Bemor ertalab uyg‘onadi, glyukozani o‘lchashni unutgan.”
  - “Ovqatdan keyin bosh aylanish va charchoq sezilmoqda.”
3. Ishtirokchilar mos **qaror kartasini** tanlaydi (masalan: glyukozani o‘lchash, dori qabul qilish, shifokor bilan maslahatlashish).
4. To‘g‘ri qaror ball olib, keyingi bosqichga o‘tadi. Noto‘g‘ri qaror esa izoh bilan qayta urinadi.
5. Kun oxirida bemor “kunini to‘g‘ri boshqargan” jamoa yoki ishtirokchi g‘olib bo‘ladi.

### Vaziyatli masala

#### Vaziyat:

45 yoshli bemor qandli diabet bilan 10 yil davomida yashaydi. Oxirgi 2 oyda u tez-tez charchash, ko‘p chanqash va siyishni sezmoqda. Glyukozani o‘lchashda qonda

9–10 mmol/l miqdor qayd etilgan. Bemor jismoniy faolligi past va ovqatlanish tartibi noaniq.

### **Savollar:**

1. Ushbu bemorning qandli diabeti qaysi holatda ekanligini baholang.
2. Reabilitatsiya va hayot tarzini qanday o'zgartirish choralarini tavsiya qilasiz?
3. Glyukozani nazorat qilish va asoratlarni oldini olish uchun bemorni qanday o'qitasiz?

### **Javob yo'riqnomasi:**

- Bemor 2-tip diabetda va glyukoza nazorati yetarli emas, kompensatsiya holati buzilgan.
- Tavsiyalar: ratsional ovqatlanish, kunlik jismoniy faollik, dori vositalarini qat'iy qabul qilish, glyukometrdan foydalanishni o'rgatish.
- Asoratlarni oldini olish: oyoq parvarishi, ko'z va buyrak nazorati, motivatsion psixologik qo'llab-quvvatlash.

Vaziyatli masala

### **Vaziyat:**

30 yoshli ayol gipertireoz tashxisi bilan qabulga keladi. U tez charchash, qo'l titrashi, yurak urishi tezlashishi va vazn yo'qotishidan shikoyat qilmoqda. Shifokor tireostatik dori buyurgan, ammo bemor dori qabul qilishni unutib qolgan.

### **Savollar:**

1. Bemorning klinik holatini tahlil qiling.
2. Turmush tarzini qanday o'zgartirishni maslahat berasiz?
3. Asoratlarning oldini olish va dori qabul qilish intizomini oshirish uchun qanday qo'llab-quvvatlashni tavsiya qilasiz?

### **Test savollari**

#### **1. Qaysi bez endokrin tizimning markaziy boshqaruvchisi hisoblanadi?**

- A. Qalqonsimon bez
- B. Gipofiz va gipotalamus \*
- C. Buyrak usti bezlari
- D. Oshqozon osti bezining Langergans orolchalari

#### **2. Qandli diabetda qondagi glyukoza miqdori oshishining asosiy sababi nima?**

- A. Insulin yetishmovchiligi yoki sezgirlik pasayishi \*
- B. Qalqonsimon bez faoliyati ortishi

- C. Buyrak funksiyasi buzilishi
- D. Jismoniy faollikning oshishi

**3. Gipotireozda kuzatiladigan belgilar qaysilar?**

- A. Tez charchash, sovuqqa chidamsizlik, vazn ortishi \*
- B. Asabiylik, ko‘z chaqchayishi, vazn yo‘qotish
- C. Tez yurak urishi, terlash ko‘payishi
- D. Qon bosimi pasayishi, allergik reaksiya

**4. Qandli diabet bemoriga tavsiya etiladigan mashqlar qaysilar?**

- A. Har kuni 30–40 daqiqa tez yurish \*
- B. Og‘ir atletika mashqlari har kuni
- C. Uyda to‘liq dam olish
- D. Faoliyatni to‘xtatib, faqat dori qabul qilish

**5. Semizlik va metabolik sindromni oldini olish uchun eng samarali chora nima?**

- A. Faqat dori preparatlari qabul qilish
- B. Ratsional ovqatlanish, jismoniy faollik va muntazam nazorat \*
- C. Faqat og‘ir jismoniy mashqlar
- D. Ovqatni cheklash va stressni oshirish

<b>2.7.O‘quv moduliga ajratilgan soat 4.</b>	<b>Autoimmun biriktiruvchi to‘qima kasalliklarida diagnostika, davolash va hamshiralik parvarishi. Qaytalanuvchi bug‘im kasalliklarida parvarish va reabilitatsiya taktikasi</b>
--	--

**Ma‘ruza mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 160 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg‘ulot</b>
	1.Biriktiruvchi to‘qima kasalliklari kelib chiqishi sabablari klinikasi

<p align="center"><b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b></p>	<p>va asoratlari.</p> <p>2.Revmatizm kasalligini qo'zgatuvchisi haqida ma'lumot. Revmatik kardit yurak nuqsonlari.</p> <p>3.Bo'g'im kasalliklari haqida tushuncha,revmatik artrit va poliartrit sabablari.</p> <p>4. Qaytalanuvchi bug'im kasalliklarida parvarish va reabilitatsiya taktikasi.</p>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<p align="center"><b>Pedagogik vazifalar</b></p> <p>Biriktiruvchi to'qima kasalliklarini turlari o'tkir revmatik isitma, revmatoid artrit, podagra, Bexterev kasalligi. Kelib chiqish sabablari, bemor muammolarini aniqlash va bemorlarni parvarishlash. Biriktiruvchi to'qima kasalliklarida bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlash, bemorlar reabilitatsiyasi, bemorlar nogironligini oldini olish va ijtimoiy himoyalash masalalari.</p>	<p><b>O'quv faoliyatini natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• biriktiruvchi to'qima kasalliklarini turlarini;</li> <li>• revmatizm kasalligini kechishini;</li> <li>• revmatoid artritni kechishini;</li> <li>• podagra kasalligini kechishini;</li> <li>• Bexterev kasalligini kechishini;</li> <li>• biriktiruvchi to'qima kasalliklarida bemorlarni zamonaviy tekshirish usullarini;</li> <li>• bemorlar nogironligini oldini olish va ijtimoiy himoyalash masalalarini.</li> </ul>
<p>O'qitish metodlari</p>	<p>“Simulyatsiya: Bemor bilan konsultatsiya” “Diagnostika va davolash lavhalari”usullari bilan ishlash</p>
<p>O'quv faoliyatini tashkil etish</p>	<p>Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli</p>

O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalarini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga "Simulyatsiya: Bemor bilan konsultatsiya" tarzida mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar "Diagnostika va davolash lavhalari" sxemasi bo'yicha</p>

		tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi
<b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Autoimmun biriktiruvchi to'qima kasalliklarida diagnostika, davolash va hamshiralik parvarishi. Qaytalanuvchi bug'im kasalliklarida parvarish va reabilitatsiya taktikasi mavzuni o'qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:  43.A. Gadayev Ichki kasalliklar Toshkent-2022y;  44.A. Gadayev, M. Ziyaeva, R.To'raqulov Terapiya o'quv qo'llanma Toshkent-2022y  45.B.N.Turaqulov, L.X. Musadjonova, X.A. Raxmatov Terapiyada hamshiralik parvarishi o'quv qo'llanma Navoiy nashriyoti-2019 yil.</p>	Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar

**Autoimmun biriktiruvchi to'qima kasalliklarida diagnostika, davolash va hamshiralik parvarishi. Qaytalanuvchi bug'im kasalliklarida parvarish va reabilitatsiya taktikasi**

**REJA:**

1. Biriktiruvchi to'qima kasalliklari kelib chiqishi sabablari klinikasi va asoratlari.
2. Revmatizm kasalligini qo'zgatuvchisi haqida ma'lumot. Revmatik kardit yurak nuqsonlari.
3. Bo'g'im kasalliklari haqida tushuncha, revmatik artrit va poliartrit sabablari.
4. Qaytalanuvchi bug'im kasalliklarida parvarish va reabilitatsiya taktikasi

Autoimmun biriktiruvchi to'qima kasalliklari (ABTK) — bu organizmning immun tizimi o'zining biriktiruvchi to'qimalariga (teri, bo'g'im, mushak, qon

tomir, ichki a'zolar) qarshi autoantitanachalar ishlab chiqarishi natijasida rivojlanadigan surunkali yallig'lanish kasalliklaridir.

**Biriktiruvchi to'qima-** organizmning asosiy ximoya va tayanch negizi bo'lib, uning bog'lovchi tuzilmasi asosini tashkil etadi. U keng ma'noda bir necha xil, ya'ni suyak, tog'ay, bo'g'im, bog'lam, teri va qon tomirlaridan iborat bo'lsa ham, lekin uning asosini ichki a'zolar va ular oralig'ini to'ldiruvchi moddalar tashkil qiladi. Biriktiruvchi to'qima organizmning morfologik va funksional butunligini ta'minlaydi va universallik, to'qimaga xoslik, ko'p faoliyatlilik, ko'p tarkibli va polimorfizm, moslashishning yuqoriligi kabi xususiyatlarga ega.

Uning asosiy xujayrasi fibroblastlar xisoblanib, ularda

kollagenlar, elastinlar, proteoglikanlar va fermentlar sintezlanadi.

### **Revmatizm.**

Revmatizm biriktiruvchi to'qimani yallig'lanish kasalligi bo'lib, asosan yirik bo'g'imlar, yurak-qon tomir tizimi, miya xujayralarining zararlanish bilan namoyon bo'ladi. Kasallik odatda o'tkir infeksiyalar oqibatida rivojlanadi, masalan angina, otit, rinit, faringit va x.k.  $\beta$ -gemolitik streptokokk ko'proq yuqori nafas yo'llarini zararlaydi va qon orqali organizmga tarqalib, uning oqibatida revmatizm rivojlanadi.

Kasallikning klinik belgilari:

**1. O'tkir streptokokk infeksiyasiga bog'lik belgilar,** tomoqda og'riq, tana haroratini ko'tarilishi, holsizlik, va h.k. Odatda 2-4 hafta davom etadi. Simptomsiz, cho'zilgan streptokokk infeksiyasi belgilari bilan ham o'tishi mumkin.

**2. Revmatik poliartrit belgilari.** Yirik bo'g'imlarning yallig'lanish belgilari, masalan, tizza, yelka, tirsak, tovon va boshqalar.

Bunda yallig'lanishning 5 ta belgisini kuzatish mumkin.

1). Og'riq 2). Shish 3). Qizarish 4). Xarakatning chegaralanishi

5). Bo'g'im deformatsiyasi

Revmatizm uchun xos belgilar: uchib yuruvchi og'riqlar, simmerik bo'g'imlarning zararlanishi, xalqasimon eritemalar, bo'g'imlarda bug'doydan loviyagacha kattalikdagi revmatoid tugunchalarning paydo bo'lishi.

**3. Revmatik kardit.** Bunda V-gemolitik streptokokk ta'sirida yurakning barcha qavatlari zararlanishi mumkin. Eng ko'p namoyon bo'ladigan belgilardan biri yurak klapanlarining zararlanishi va oqibatda orttirilgan yurak nuqsonlarining paydo bo'lishidir.

**Revmatik kardit, yurak nuqsonlari belgilari:**

1) Taxikardiya

- 2)Yurakda shovkin paydo bo'lishi
- 3)Chap qorinchani kengayishi
- 4)O'ng qorinchani kengayishi
- 5)Yurak tonlarining o'zgarishi-bo'g'iqlashuvi

Yuqoridagilardan tashqari revmatizmda revmatik plevrit, revmatik nefrit, revmatik xoreya rivojlanishi mumkin.

**Revmatik yoki kichik xoreya** belgilari ko'proq qizlarda va xomilador ayollarda kuzatiladi. Xoreyaning sababi nerv tolalarining zararlanishi natijasidir.

**Kichik xoreya belgilari:** ruxiy holatning birdan o'zgarishi, egoistlik, emotsional labillik, agressivlik yoki passivlik, parishonxotirlik, tez charchash, muskullarning bo'shashishi, gipotoniya, tushunarsiz nutq, yozuvning o'zgarishi, qoshiq vilkalarni ushlay olmaslik, stulda o'tira olmaslik va h.k.

#### **Revmatizm bilan kasallangan bemorlarda laborator o'zgarishlar:**

- 1).EChTning 30 mm/sdan ortishi
- 2).Fermentlarning ortishi
- 3).Qondagi streptokokk antigeni ortadi

#### **Revmatizm bilan kasallangan bemorlarni parvarishlash:**

- 1).Stafilokokk infeksiyasini davolashga, og'iz bo'shlig'i sanatsiyasiga e'tibor berish.
- 2).Organizm intoksikatsiyasini kamaytirishga qaratilgan parvarish, ko'p miqdorda suyuqlik berish.
- 3).Bemor yotgan xonani tez-tez shamollatib turish, ultraviolet nurlari bilan nurlantirish
- 4).Vrach ko'rsatmalarini o'z vaqtida aniq bajarish, garmonal preparatlarni o'z vaqtida berish.

#### **Revmatizm bilan kasallangan bemorlarni davolash.**

**Davolash bosqichlari:** *Poliklinika-kasalxona-sanatoriya sharoitida davolanish.*

- 1).Antibiotiklar-pennitsillin guruxi.
- 2).Glyukokortikosteroid vositalar.
- 3).Nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalar.
- 4).Aminoxinolin preparatlari.

## **Kasallikni profilaktikasi.**

Organizmga tushgan infeksiyani o'z vaqtida davolash. Vrach nazoratida bo'lish. Vrach ko'rsatmalariga binoan bitsillin preparatlari bilan profilaktik ineksiyalar o'tkazish. Kasallik kuz-qish mavsumida xuruj qilmasligi uchun yiliga 2 marta kasalxona, yoki kunduzgi shifoxona sharoitida davolanish.

## **Bo'g'im kasalliklari - Artritlar.**

Artrit bo'g'im yallig'lanishi bo'lib, uning bir necha turlari bor.

1. Infeksiyon nospetsifik: revmatoid artrit, podagra, Bexterev kasalligi.
2. Infeksiyon spetsifik: suzak artriti, zaxm artriti, sil artriti, revmatizm, dizenteriya artriti va x.k.
3. Posttravmatik artrit.

## **Revmatoid artrit.**

Bu kasallik kollagenozlar guruxiga kiradi, asosan bo'g'implardagi biriktiruvchi to'qimaning birgalikda zararlanishi bilan xarakterlanadi, bo'g'im qopchasi va bo'g'im tog'aylari qalin tortadi, shunga ko'ra bo'g'im funksiyasi buziladi.

**Kasallik sabablari.** Organizmning sovuqotishi, surunkali infeksiyalar (tonzillit, otit, gaymorit, karioz tishlar), neyroendokrin buzilishlar, infeksiyon –allergik omil, irsiy omil.

**Kasallik belgilari.** Revmatoid artrit asta-sekin, ba'zan o'tkir boshlanadi. Bemorlarni bo'g'implarda shish, qizarish, og'riq, isitma, darmonsizlik, ko'p terlash bezovta qiladi. Oyoq-qo'llar mayda bo'g'implari ko'proq zararlanadi. Keyinchalik bo'g'implar o'zgarilib oyoq –qo'l panjalarideformatsiyaga uchraydi-ko'rinishi o'zgaradi.

Umumiy qon taxlilida EChT oshadi, leykotsitlar kamayadi. Rentgenda bo'g'im kengayganligini va panjalar qiyyshayganligini ko'ramiz.

**Parvarishlash va davolash.** Bemorlar o'zlarini sovuqdan ehtiyot qilishlari, og'ir jismoniy mexnatdan saqlanishlari kerak. Kasallikni davolagagda antibiotiklar, salitsilatlar, nosteroid preparatlar, gormonlar, simptomatik davo tavsiya etiladi. Kasallik remissiya davrida fizioterapevtik, sanatoriya sharoitida davolanish tavsiya etiladi.

## **Bexterev kasalligi.**

Bexterev kasalligi kollagenozlar guruxiga kiruvchi kasallik bo'lib, umurtqa pog'onasining bo'g'im –boylam apparatida distrofik o'zgarishlar bilan kechadi. Bemorlarning gavda tuzilishi o'zgaradi, bo'g'implar shakli buziladi.

**Kasallik sabablari.** Aniqlanmagan.

**Klinikasi.** Kuchli darmonsizlik, og'riq, ozish bezovta qiladi. Kasallikning og'irlashgan bosqichlarida xarakatning tamomila yo'qolishi va bemorning kaxeziya xolatigacha ozishi kuzatiladi.

**Parvarishlash va davolash.** Bemorlarni parvarishlashda yotoq yaralarini oldini olish, xarakatlanishiga yordam berish, ovqat yeyishiga ko'maklashish lozim. Davolashda antibiotiklar, nosteroid preparatlar, gormonlar, simptomatik davo, fizioterapevtik, sanatoriya sharoitida davolash tavsiya etiladi.

**Revmatoid artrit** o'tkir yoki sekinlik bilan boshlanadigan kasallik, bu kasallikka ko'pincha, mayda va o'rta oyoq bo'g'imlarining zararlanishi xosdir bo'g'imlardagi shaklni o'zgarishi va ularni vazifalarini buzilishi kuzatiladi, asta-sekin bo'g'imlarining ko'p qismi jaroxatlanadi. Kasallik harakat paytida jaroxatlangan bo'g'imlarini og'rishi bilan yashirin xolatda kechadi. Tana xarorati ko'tariladi, xolsizlik kuchayadi, terlaydi. Ko'rik paytida bo'g'imlarni shishganligi, harakatni umuman cheklanligini aniqlash mumkin. Panja bo'g'imlarning jaroxatida barmoklarining tirsak suyagi tomonga qayirilib qolishini ko'rish mumkin.

Panjalarining bu turi "morj suzgichlarini" (ulnarnaya deviatsiya), keyinroq esa panja suyaklarini "oq qush bo'yni" tipida deformatsiyalanishiga olib keladi.

Vaqt o'tishi bilan panja, yelka, bel, tos muskullari atrofiyasi, terida (teri osti qon talashi nekrozi), OIT (surunkali gastrit, kolit, enterit), jigar, o'pka, yurak (periokardit, miokardit, endokardit) buyrak va nerv sistemalardagi o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Kasallik tez-tez qaytalanib bo'g'imlarda jaroxatni umuman buzilishi bilan surunkali ko'rinishda o'tadi.

Revmatizmning klinik kechish turlicha. Revmatizimning bir qancha formasi bor tana xaroratining ko'tarilishi, xolsizlik, qondagi o'zgarishlar, yurak klapanlarining buzilishi bilan kechadi.

Yurak jaroxati bilan bir vaqtda bo'g'imlar xam jaroxatlanadi asosan tizza, to'piq, yelka, tirsak bo'g'imlari jaroxatlanadi. Harakat tizimi buziladi, jaroxatlangan bo'g'im ustidagi teri qizaradi, to'qimalar shishadi. Davolash davomida bo'g'imlardagi patologik o'zgarishlar yo'qoladi. Deformatsiyalar qolmaydi.

(1) Revmatizmning teri formasi: asosan terida o'zgarishlar kuzatiladi.

Teri osti yog' to'qimasida terini ko'karishi kuzatiladi, uzuksimon eritema xam uchrashi mumkin

(2) Serebral forma MNS jaroxatlanadi, klinik belgilar boshlanadi.

(3) Revmavaskulit bosh miya tomirlari jaroxatlanadi.

Bu bemorlarda kasallik bosh og'rig'i, bosh aylanishi, talvasa bilan boshlanadi

#### (4) Revmatizmning kardial formasi.

Bu kasallikda klinik belgilar nafas qisishi, yurak tez urishi bilan boshlanadi. Bunda endokard, miokard, perikard jaroxatlanadi. Klinikada miokardit simptomlari doimo ustun keladi: bular nafas qisishi, yurak chegarasining chapga kattalashishi, yurak tomirlarini pastligi, aritmiya, sistolik shovqin, jigar kattalashishi. Endokard jaroxatlanishida klapanlar deformatsiyasiga va yurak nuqsoniga olib keladi.

Revmatizmning 2 asosiy fazasi yallig'lanish belgilari va yuqorida aytib o'tilgan klinik formalar bilan xarakterlanadi.

#### 3) Bo'g'imlar funksiyasini baxolash.

##### **(1) Sub'ektiv ma'lumot**

###### 1. So'rov

- Bemorlarni shikoyatlari

Bo'g'implarda og'riq, harakatni cheklanganligi, xolsizlik, tana temperaturasini ko'tarilishi, terlash.

###### 2. Anamnez

Sovuq qotish, zax joylarda bo'lish, surunkali kasalliklar o'chog'ining bo'lishi, umumiy organizmni

immunitetining pastligi, nasliy kasalliklar, o'tkazilgan davolanishlar.

##### **(2) Ob'ektiv ma'lumot**

###### 1. Ko'rik

Nafas kisishi, terini ko'kimtir (sianoz) yoki och bo'lishi, barmok tirnoqlarining formasining o'zgarishi. Ko'z konyuktivalarida qon talash bo'g'imlar deformatsiyasi, past yoki yuqori A/B,oyoqlarda shish, subfebril temperatura yoki lixoradka

###### 2. Pal'patsiya

Jaroxatlangan bo'g'imlar bukilganda "qirsillash " aniqlanadi.

###### 3. Auskul'tatsiya

Yurak soxasida 1- tonning pasayishi va sistolik shovqin.

##### **(3) Tekshiruv natijalari**

1. Umumiy qon taxlili - leykotsitoz, EChTning ortishi

2. Bioximik qon taxlili - musbat revmaproba SRO, disproteinemiya, fibrinogenlar tarkibining ko'payishi.

### 3. Rentgenografiya

#### **Qaytalanuvchi bo'g'im kasalliklari.**

Qaytalanuvchi bo'g'im kasalliklari surunkali kechuvchi, davriy zo'rayish va remissiya bosqichlari bilan xarakterlanadigan patologik holatlardir. Bunday kasalliklar qatoriga Revmatoyid artrit, Reaktiv artrit, Podagra hamda Osteoartroz kiradi. Ushbu kasalliklarda asosiy muammo bo'g'implarda og'riq, shish, harakat cheklanishi va vaqt o'tishi bilan deformatsiya rivojlanishidir. Shuning uchun parvarish va reabilitatsiya uzoq muddatli, tizimli va individual yondashuvni talab qiladi.

Zo'rayish davrida parvarishning asosiy maqsadi og'riqni kamaytirish va yallig'lanish jarayonini nazorat qilishdan iborat bo'ladi. Bemor og'riq kuchli bo'lgan paytda shikastlangan bo'g'imga ortiqcha yuklama bermasligi kerak. Qisqa muddatli tinchlik rejimi tavsiya etiladi, ammo uzoq immobilizatsiya bo'g'im qotib qolishiga va mushaklar kuchsizlanishiga olib kelishi mumkin. Shifokor buyurgan yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi dori vositalarini o'z vaqtida qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Bo'g'implarni fiziologik holatda joylashtirish, ortopedik moslamalar yoki elastik bog'lamlardan foydalanish og'riqni kamaytiradi va deformatsiya xavfini pasaytiradi. Zaruratga ko'ra sovuq yoki issiq kompresslar qo'llanadi.

Remissiya davrida asosiy e'tibor harakat faolligini tiklash va saqlashga qaratiladi. Davolovchi jismoniy mashqlar bo'g'im harakatini yaxshilaydi, mushaklarni mustahkamlaydi va kontrakturalarning oldini oladi. Mashqlar muntazam, lekin me'yorida bajarilishi lozim. Ortiqcha yuklama qayta zo'rayishga sabab bo'lishi mumkin. Massaj va fizioterapiya muolajalari qon aylanishini yaxshilaydi, mushak spazmini kamaytiradi va tiklanish jarayonini tezlashtiradi.

Reabilitatsiya jarayoni bosqichma-bosqich olib boriladi. Stasionar sharoitda og'riqni kamaytirish va yallig'lanishni bostirishga qaratilgan muolajalar o'tkaziladi. Ambulator bosqichda esa asosiy maqsad bo'g'im funksiyasini tiklash va bemorni kundalik hayotga moslashtirishdan iborat bo'ladi. Sanator-kurort sharoitida balneoterapiya, loy muolajalari, parafin va ozokerit bilan davolash kabi usullar qo'llanib, organizmning umumiy tiklanishi ta'minlanadi.

Ovqatlanish tartibi ham muhim o'rin tutadi. Podagrada purinlarga boy mahsulotlarni cheklash, suyuqlikni ko'proq ichish tavsiya etiladi. Revmatoyid artritda yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadigan mahsulotlar, jumladan omega-3 yog' kislotalariga boy oziq-ovqatlar foydali hisoblanadi. Ortiqcha tana vazni bo'g'implarga yuklama oshiradi, shuning uchun vazn nazorati reabilitatsiyaning muhim qismi sanaladi.

Qaytalanuvchi bo'g'im kasalliklarida asoratlar, jumladan bo'g'im deformatsiyasi, ankiloz va mushak atrofiyasi rivojlanishi mumkin. Bularning oldini olish uchun

erta harakat, muntazam mashqlar va ortopedik moslamalardan foydalanish muhimdir.

Hamshiralik parvarishida og'riq darajasini baholash, bemorning harakat hajmini kuzatish, dorilarni to'g'ri qabul qilishini nazorat qilish va bemorni o'z-o'zini parvarishga o'rgatish katta ahamiyatga ega. Psixologik qo'llab-quvvatlash ham zarur, chunki surunkali og'riq va harakat cheklanishi bemorda tushkunlik holatini yuzaga keltirishi mumkin.

To'g'ri tashkil etilgan parvarish va rehabilitatsiya bemorning hayot sifatini yaxshilaydi, nogironlik xavfini kamaytiradi va ijtimoiy faolligini saqlab qolishga yordam beradi.

### **Tibbiy atamalar**

- 1.Artrit**-bo'g'im yallig'lanishi
- 2.Poliartrit**-mayda bo'g'imlarning yallig'lanishi
- 3.Dieta**-parhez bilan davolash
- 4.Etiologiya**-biror bir kasallikni kelib chiqishi
- 5.Simptom**-kasallik belgisi
- 6.Sindrom**-bir nechta simptomlar yig'indisi
- 7.Profilaktika**-kasallikni oldini olish
- 8.Obektiv**-ko'zdan kechirish
- 9.Anasarka**-teri va teri osti to'qimalarida suyuqlik yig'ilishi natijasida shish paydo bo'lishi
- 10.Apatiya**- bemorni bushashib, holsizlanib qolishi

### **Savollar**

- 1.Bo'g'im kasalliklari haqida tushuncha
- 2.Bo'g'im kasalliklarining sabablari
- 3.Revmatik artrit va poliartrit haqida tushuncha
4. Revmatik artrit va poliartritning sabablari
5. Revmatik artrit va poliartritning klinik belgilari
- 6.Deformatsiyalovchi ostioporoz kasalliklari haqida tushuncha

7. Deformatsiyalovchi ostioporoz kasalliklarini kelib chiqish sabablari
8. Deformatsiyalovchi ostioporoz kasalliklarining klinik belgilari
9. Davolash usullariga bemorni tayyorlash
10. Bemorni ko'zlash va parvarish qilish.

### **Test savollari**

#### **1. Revmatoid poliartrit bemorni ob'ektiv tekshirishda xamshira e'tibor berishi kerak**

1. \*bo'g'imlar konfiguratsiyasiga
2. shishlar borligiga
3. teri qoplamalarini tozaligiga
4. limfa tugunlarini kattalashishiga

#### **2. Revmatoidli poliartrit bilan og'riqan bemor yallig'lanishga qarshi nesteroid vositalar qabul qilayapti.**

##### **Bemor preparatlarni qachon va qanday qabul qilishi kerak?**

1. ovkatdan keyin ichiladi
2. ovkatdan oldin sut bilan ichiladi
3. ovkatdan oldin mineral suv bilan ichiladi;
4. xech kanday koidaga rioya kilinmaydi

#### **3. Revmatik poliartritga qaysi belgilar xos emas?**

1. bo'g'inlarning turg'un deformatsiyasi
2. ko'plab simetrik shikastlanish
3. bo'g'inlar ustidagi shish
4. bo'g'inlar ustidagi qizarish

#### **4. Artritni davolash uchun qaysi preparatni qo'llash mumkin emas**

1. \*atsetilsalitsil kislotasi
2. Diklofenak
3. Indometatsin
4. Ibuprofen

## **Muommoli masalalar**

### **Muommoli masala №1**

Bemor 46yoshda revmatologiya bo‘limida revmatoid poliartrit tashxisi bilan davolanayapti.

Bemor shikoyatlari: kaft panja bo‘g‘imlarida og‘riq, harakatning cheklanganligi, bo‘g‘imlarda shish, qizarish ko‘zatilayapti

Sizning taktikangiz?

### **“Simulyatsiya: Bemor bilan konsultatsiya”**

#### **Maqsad:**

Bemorning klinik belgilarini aniqlash va autoimmun kasalliklarni tashxislash bo‘yicha kommunikatsiya va hamshiralik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

#### **Kerakli jihozlar:**

- Rol o‘ynash uchun kartochkalar (bemor alomatlarini yozilgan)
- Steteskop, qon bosimi o‘lchagich, termometr
- Qog‘oz va ruchka

#### **Bajarish ketma-ketligi:**

1. Talabalar guruhlariga bo‘linadi: bir guruhi “hamshira”, ikkinchisi “bemor” rolini oladi.
2. Bemor kartochkasidan klinik simptomlarni o‘qib beradi (masalan: bo‘g‘im og‘rig‘i, teri shishishi, charchoq).
3. Hamshira simptomlarni so‘rab, qisqa anamnez oladi, zarurat bo‘lsa, hayotiy belgilarga qaraydi.
4. Hamshira diagnostika yo‘nalishini belgilaydi (qon tahlili, autoantitanalar, biopsiya).
5. Guruhlar rollarni almashtiradi va o‘yin davomida hamshiralik parvarishini rejalashtiradi.

#### **Nazorat va baholash mezonlari:**

- Bemor simptomlarini to‘g‘ri aniqlash
- Diagnostik yo‘nalishni aniq belgilash
- Hamshiralik parvarishi va maslahatlarni to‘g‘ri berish

### **“Diagnostika va davolash lavhalari”**

#### **Maqsad:**

Autoimmun biriktiruvchi to‘qima kasalliklarida laboratoriya va farmakologik davolash bo‘yicha amaliy bilimni mustahkamlash.

### **Kerakli jihozlar:**

- Diagnostika kartochkalari (qon tahlillari, autoantitanalar natijalari)
- Dori vositalari kartochkalari (kortikosteroid, DMARDs, biologik preparatlar)
- Taxt yoki flipchart

### **Bajarish ketma-ketligi:**

1. Talabalar guruhlarga bo‘linadi.
2. Har bir guruhga “bemorga oid laboratoriya natijasi” kartochkasi beriladi.
3. Guruhlar natijaga qarab, **tashxis va davolash rejasini** tayyorlaydi.
4. Har bir guruh o‘z rejasini taxtda taqdim qiladi va ustoz / boshqa talabalar baholaydi.
5. O‘yin oxirida to‘g‘ri tashxis va davolash yo‘llari muhokama qilinadi, hamshiralik parvarishi bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

<b>2.8.O‘quv moduliga ajratilgan soat2.</b>	<b>Asab tizimi kasalliklarida hamshira parvarishi</b>
---	---

### **Ma’ruza mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg‘ulot</b>
<b>Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi</b>	<b>1.Asab tizimi kasalliklarida hamshira parvarishi. 2 Asab tizimi kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari. Asab tizimi kasalliklarida reabilitatsiya choralari.</b>
<b>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</b>	

<p><b>1.Ta'limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<p><b>Pedagogik vazifalar</b>  Asab va bosh miya qon tomir kasalliklari. Ishemik va gemorragik insultlar sabablari, belgilari, kechishi. Zamonaviy tekshirish usullariga bemorlarni tayyorlash, hamshira parvarishi va davolash usullari. Neyroreabilitatsiya chora tadbirlari.  Miyada qon aylanishi buzilishi kasalliklari. Inson ruhiy o'zgarishlarida shaxslararo muloqot ko'nikmalarini qo'llashning ahamiyati. Reabilitatsiya chora tadbirlari.</p>	<p><b>O'quv faoliyatini natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• miyada qon aylanishi buzilishi kasalliklarini;</li> <li>• ishemik insultlar belgilari, kechishini;</li> <li>• gemorragik insultlar belgilari, kechishini;</li> <li>• yotoq yaralarni oldini olish chora tadbirlarini;</li> <li>• inson ruhiy o'zgarishlarida shaxslararo muloqot ko'nikmalarini qo'llashni; zamonaviy tekshirish va davolash usullari;</li> </ul>
O'qitish metodlari	“Simulyatsiya: Bemor bilan konsultatsiya” “rolli o'yin”usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b></p>	<p><b>Tashkiliy qism</b>  1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi</p>	

	<p>tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga "Simulyatsiya: Bemor bilan konsultatsiya" tarzida mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar "Diagnostika va davolash lavhalari" sxemasi bo'yicha tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi</p>
<p><b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Asab tizimi kasalliklarida hamshira parvarishi mavzuni o'qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 46.A. Gadayev Ichki kasalliklar Toshkent-2022y;</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar</p>

	<p>47.A. Gadayev, M. Ziyaeva, R.To'raqulov Terapiya o'quv qo'llanma Toshkent-2022y</p> <p>48.B.N.Turaqulov, L.X. Musadjonova, X.A. Raxmatov Terapiyada hamshiralik parvarishi o'quv qo'llanma Navoiy nashriyoti-2019 yil.</p>	
--	---	--

## **Mavzu: Asab tizimi kasalliklarida hamshira parvarishi**

### **Ma'ruza rejasi.**

**1.**Asab tizimi kasalliklarida hamshira parvarishi.

**2** Asab tizimi kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari. Asab tizimi kasalliklarida reabilitatsiya choralari.

### **NERV SISTEMASI.**

Odam organizmining barcha xujayra, to'qima va organlarning ishini boshqarish, tartibga solish xamda ularning bir-biri bilan bog'lanishini ta'minlashdan iborat. U odamning tashqi muxit va atrofdagi boshqa odamlar bilan muomalasini, organizmning tashqi muxit sharoitiga moslashuvini ta'minlaydi.

**NERV SISTEMASI**-ikki qismdan iborat: markaziy va periferik nerv sistemasi. Markaziy nerv sistemasiga - orqa va bosh miya kiradi. Periferik nerv sistemasiga orqa miyadan chiqadigan 31 juft sezuvchi, xarakatlanuvchi nerv

tolalari, bosh miyadan chiqadigan 12 juft nervlar xamda umurtqa pog'onasi atrofida va ichki organlarda joylashgan nerv tugunlari kiradi

Bajaradigan funksiyasiga ko'ra, nerv sistemasi ikki qismga bo'linadi: somatik va vegetativ nerv sistemasi. Somatik nerv sistemasi odam tanasining sezgi organlari, skelet muskullari ishini boshqaradi. Vegetativ nerv sistemasi ichki organlar (nafas olish, qon aylanish, ovqat xazm qilish, ayirish va xokazo) xamda ichki sekretiya bezlari ishini boshqaradi.

**Psixiatriya** - (grekcha jonni davolash degani) asosan asab tizimi va ruxiyatdagi o'zgarishlar, miyaning tashqi muxit ta'sirlarini qabul qilish, fikrlash, tasavvur qilish, va shunga o'xshash faoliyat qirralari kasalligining kelib chiqishi, davolash va ularning oldini olish bilan shug'ullanadi. Umuman asab va ruxiy kasalliklar zaminida nima yotganini, ularni kelib chiqish sababini, kasallik belgilarini xar bir o'rta tibbiyot xodimi bilishi kerak. Ayrim o'tkir kechuvchi kasalliklar, masalan gipertoniya kasalligi, yurak qon-tomir tizimi kasalliklari, jigar kaalliklarida asab va ruxiyatda turli o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bunday bemorlarni terapiya bo'limlarida davolasa xam bo'ladi. Chunki asosiy kasalliklarni davolash jarayonida qo'shimcha belgilar yo'qolib ketadi. Xar bir xamshira vrach kelgunga qadar bemorni ruxiy xolatidan olib chiqish uchun yuqori darajali tibbiy yordam ko'rsatishni bilishi zarur. Bemor bosh miyasida qon aylanishi buzilganda, tutqanoq xuruji tutganda, es-xushini yo'qotgan paytlarda, o'zini ushlay olmay atrofdagilarga zarar yetkashib qo'yishi mumkin. Shunday xolatlarda tibbiyot xodimi birinchi yordam berishi kerak.

Nerv tizimi organizmdagi ja'mi xayotiy a'zolar faoliyatini boshqarib, ularning ishini o'ziga xos tartibga solib, tashqi muxit bilan aloqasini tutib turadi. Nerv tizimi faqat a'zolar ishini avtomatik tarzda boshqarib turmay, balki uni tashqi muxit ta'sirotlari natijasida o'zgarib, moslashib turishini xam ta'minlaydi. Bosh miya kalla suyagi ichida joylashgan bo'lib, katta yoshdagi kishilardauning og'irligi erkaklarda 1375g, ayollarda 1275 g bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq miyasining og'irligi 330-340 ga teng. Odamning katta miyasi ikkita o'ng va chap yarim sharlardan iborat. Bu yarim sharlarning usti vertikal chuqur egat ikkiga ajratib turadi. Egatning ostki tomonida oq moddadan paydo bo'lgan qadoqsimon tana yotadi. Bosh miya yarim sharlarining usti juda murakkab tuzilishga ega bo'lib, ba'zan chuqur, ba'zan yuza egatlar bilan qoplangan. Odamning ruxiy xolatini, faoliyatini bir-biriga yaqin bo'lgan bir necha fanlar sinchiklab o'rganib keladi. Psixiatriya, psixologiya, nevrologiya fanlari bu o'rinda birinchi o'rinda turadi. Ruxiy faoliyat miyaning jami oliy reflektor xususiyatlaridir. Demak, ruxiy (psixik) faoliyat organi bosh miya

xisoblanadi. Inson dunyoni to‘la-to‘kis tasavvur qilishi, anglash, murakkabligini tushunishi uchun bosh miya to‘la rivojlanishi lozim. Shunda miya o‘zining boshqarish faoliyatini me‘yorda olib boradi. Ayniqsa bosh miya po‘stlog‘i insonni faqat tashqi muxit bilan bog‘lab qolmaydi, balki, uning axloq xulq, atvorini belgilaydi. Bosh miya po‘stlog‘i faoliyati ikki turda bo‘ladi:

1. Analizatorlik faoliyati.

2. Sintetik faoliyat.

Inson atrofdan kelayotgan axborotni qabul qilib, bu axborotni qanchalik kerak ekanini, qaysi birini miyada tutib turish lozimligini, unga qanday munosabatda bo‘lish kerakligini o‘ylaydi va shunga o‘xshash savollarga tezda javob topadi. Bunday murakkab vazifani bajarishda analizator o‘z ishini mukammal bajarishi lozim. Analizatorlar miyaning miyaning xar bir qismiga kelayotgan xar bir axborotlarni qo‘shib, mantiqiy atrof-muxit nomini yaratadi. Bunda deyarli miyaning katta qismi qatnashadi. Bunday murakkab faoliyat sintetik faoliyat deyiladi.

### **Ruxiy kasalliklarning alomatlari.**

**Idrok va tasavvo‘rning buzilishi.** Odam atrofni bilish yoki anglash jarayonida xodisalar yig‘indisini yaxlit ko‘rsatadi. Binobarin, odam narsalar buyumlarning aloxida xususiyatlari haqida xulosa chiqarmay, balki umuman narsalarning o‘zi haqida keng xulosa chiqaradi. Bu xol idrok etish deb aytiladi. Biz atrofimizdagi narsalarni ko‘ramiz, eshitamiz, demak biz ularni idrok etamiz. Idrok anglash faoliyatining yuqori bosqichidir. Idrok faoliyatining buzilishiga illyuziya, gallyutsinatsiya, psixosensor buzilishlar kiradi. Xis qilish bu – sezgi organlarining retseptor kismiga bevosita ta‘sir etish orqali atrofdagi narsalarni, vokea va xodisalarni aks ettirishdir. Sezish jarayoni bilan birgalikda xis qilish insonning tashki dunyoda bevosita xissiy muljalini ta‘minlaydi. Xis qilish bilim va tafakko‘rning muxim bosqichidir, va doimo u yoki bu darajada fikrlash, xotira, diqqat bilan bog‘likdir. Agar inson sezgi orqali atrofni urab turgan narsa, vokea – xodisalarning aloxida belgilarini ongida aks ettirsa, idrok etish orqali ularni butunligicha, barcha xususiyatlari bilan birgalikda yaxlit kabul kiladi. Lekin bunga asosan idrokni sezgilar yig‘indisi deb bulmaydi.

Idrok jarayonining asosida bir necha sezgi a‘zolariga barobar ta‘sir natijasida yuzaga keluvchi bosh miya pustlogidagi sintez, ya‘ni vaqtli bog‘lanish (shartli refleks) yotadi. Idrok odatda ixtiyoriy va ixtiyorsiz buladi. Ixtiyorsiz idrok xamisha ixtiyorsiz diqqat bilan bog‘lik bo‘lib, ma‘lum bir maksadsiz, xech kanday iroda kuchi sarf kilmasdan yuzaga keladi. Ixtiyoriy idrok esa oldindan belgilangan

biror maksad asosida amalga oshiriladi. Ixtiyoriy idrok odamda doimo irodaviy zur berishni talab qiladi, xar kanday ixtieriy iroda ishtirok etadi.

Ruxshunoslikda s o d d a va m u r a k k a b idrok tafovut etiladi: sodda idrokka kurish, eshitish, xid va ma'za bilish kirs, murakkab idrokka fazo (makon) va vaqtni idrok etish kiradi.

Idrok uziga xos sifatlarga ega buladi. Bular idrokning tezligi, tulaligi, ravshanligi, anikligi va tugriligidir. Turli ruxiy kasalliklarda ana shu sifatlarning u yoki bu darajada uzgarganligini yoki buzilganligini kuramiz. Shunday xollarda biz idrokning buzilishi xakida suz yuritimiz.

Illyuziyalar - real mavjud ob'ektni noto'g'ri, buzuq idrok etish. Idrok etilaetgan narsa, vokea-xodisaning mavjudligi bilan illyuziyalar gallyutsinatsiyalardan farq qiladi. Xuddi gallyutsinatsiyalar kabi, illyuziyalar xam sezgi organlari buyicha eshitish, kurish, sezgi, xid va ta'm bilish illyuziyalariga bulinadi.

Shuni xam aytib utish kerakki, illyuziyalar me'erde xam uchrab turadi. Bunga fizik (eki tabiiy) illyuziyalar misol bula oladi: stakandagi choyga solingan koshik xuddi singandek kurinadi, buni esa optika konunlari bilan tushuntirib berish mumkin.

Ruxiy kasalliklarda affektiv, verbal va pareydolik illyuziyalar uchrab turadi. Af f y e k t i v illyuziyalar. Qo'rquv, avotir, tushkunlikka tushgan bemorlarda uchraydi. Bunda osiglik turgan kiyim berkinib olgan qotil bo'lib ko'rinishi, oshxonadan eshilaetgan idish-tovoklar jarangi bemorni oldirish uchun tayerlanaetgan kurol ovozi bo'lib eshinishi mumkin.

V y e r b a l illyuziyalar. Atrofdagi odamlar suxbatining ma'nosi buzuk ravishda idrok etiladi. Bu illyuziyalar kuchli qo'rquv,vaxima xolatida, xar narsaga shubxa bilan karaydigan bemorlarda uchraydi. Bunda bemorlar atrofdagilarning ularga umuman tegishli bulmagan suxbatlarida ularga karshi fitna,giybatlarni eshitishlari mumkin.

P a r y e y d o l i k illyuziyalar affektning tub uzgarishlarisiz, ruxiy faoliyat tovushining pasayishi xolatlarida uchraydi. Mazmuni buyicha fantastik va obrazlidir. Devordagi, gilamdagi nakshlar, devor yeriklari bemorlar kuziga garoyib kurkinchli mavjudotlar, baxaybat binolar bo'lib ko'rinishi mumkin. Ilyuziyalar turli ruxiy kasalliklarda, kupincha intoksikatsiya psixozlarida uchraydi.

Real mavjud ob'ektsiz idrok etishga gallyutsinatsiya deyiladi. Gallyutsinatsiyalar ob'ektiv borlikdan tashkarida shakllanuvchi va uz-uzidan

paydo buluvchi tasavvurlardir. Gallyutsinatsiyalar inson ongida biron-bir tasavvo'ning dominantligi natijasida kelib chiquvchi xakikiy ta'sirotning soxta ichki (ongiy) obrazga aylanishi tufayli yuzaga keladi. Shuning uchun gallyutsinatsiyalar uz-uzidan kelib chiquvchi, intensiv xissiylik kasb etuvchi, real borlikka kuchirilgan va shu tafayli xakikiylik, ob'ektiv mavjudlik xususiyatini olgan tasavvurlar deb xisoblanadi. Goldshteyn fikri buyicha, «gallyutsinatsiyalar avval idrok etilgan narsalarni shu idrokka boglik bulgan yangi tashki ta'sirsiz xissiy ravishda boshdan kechirishdir».

Sezgi organlariga karab kurish, eshitish, xid va ta'm bilish, umumiy sezgi gallyutsinatsiyalari farklanadi.

Kurish gallyutsinatsiyalari. Eng oddiy kuruv gallyutsinatsiyalari fotopsiyalardir. Bunda bemor uziga shaklsiz, noanik narsalar kurinadi – olov tutun, tuman. Gallyutsinator obrazlar juda katta yoki juda kichkina bo'lib kurishini mumkin. Gallyutsinatsiyalar rangli yoki rangsiz, ba'zida esa bir rangli buladi. Saxnasimon gallyutsinatsiyalarda kuringan narsalar, vokea – xodisalar xuddi saxnada yoki kino ekranida uynalayotgandek kurinadi. Ekstrakampin gallyutsinatsiyalarda obrazlar bemorning kurish busagasidan tashkarida – yonida, orkasida paydo bo'lishi mumkin. Eshitish gallyutsinatsiyalariga jarang,bong,uk ovozi va shunga uxshash boshqa noanik gallyutsinatsiyalar kiradi va ular akoazmlar deyiladi.Eshitish gallyutsinatsiyalari intensivligiga karab sekin,baland,garang kiluvchi bo'lishi mumkin. «Ovozlar» yeki «tovushlar» tanish yeki notanish odamniki, erkakcha yeki ael kishiniki bo'lishi mumkin. Mazmuniga karab, eshituv gallyutsinatsiyalari kuyidagi turlarga bulinadi:

Sharxlovchi gallyutsinatsiyalar – bunda tovush yeki bir necha tovush bemorning xar bir kilgan ishini sharxlaydi,uz fikrini bildiradImperativ gallyutsinatsiyalarda «tovush» bemorga u yoki bu xarakatni qilishni buyuradi. Ba'zan bu xarakat bemor yoki uning atrofidagilarga zararli bo'lishi mumkin: tovushlar xarakat vaqtida poezddan sakrashni, birovni baland binodan tashlab yuborishni, uldirishni buyurishlari mumkin.

Xid, ta'm bilish gallyutsinatsiyalari odatda ikkilamchi bo'lib, vasvasa goyalari asosida kelib chikadi va mustakil ravishda kamdan –kam uchraydi.

Taktil gallyutsinatsiyalarda bemor terisida turli xashoratlarning yurganini, terida yeki teri ostida turli begona narsalarning mavjudligini xis kiladi.

Visseral gallyutsinatsiyalarda esa bemor tana bushliklarida,kupincha korinda, turli narsalar yeki tirik jonzotlar borligini xis kiladi.

Visseral va taktil gallyutsinatsiyalarni senestopatiyalardan farqlash lozim. Avvalo senestopatiyalar predmetsiz ogir xislardir. Shuningdek, senestopatiyalarda bemor ogir,kiynovchi xislar yoki ogriklarga shikoyat kilsa, gallyutsinatsiyalarda bemor ichiga kirib kolgan jonzod yoki biron predmet borligiga shikoyat kiladi.

Soxta gallyutsinatsiyalar. Bularning birinchi tulik ta'rifini V.X.Kandinskiy bergan. Bular kuyidagi alomatlari bilan chin gallyutsinatsiyalardan fark kiladi:

1. Bemorning gallyutsinatsiyalarga munosabati.  
Chin gallyutsinatsiyalargda bemor obraz yoki tovushlarni real mavjud narsalarga tenglashtiradi va ularni ob'ektiv borlikdan ajralmagan xolda kabul kiladi. Soxta gallyutsinatsiyalarda esa bemor antika ovozlari, obrazlar xakida gapiradi, ularni real borlik bilan tenglashtirmaydi, undan tashkarida kabul kiladi.
2. Soxta gallyutsinatsiyalar «kilinganlik», «yasamalik» xususiyatiga ega, ya'ni bemor kimlardir tomonidan «kilinayotgan» ovozlari eshitadi, obrazlar xam tashki ta'sir natijasida yuzaga keladi.
3. Chin gallyutsinatsiyada bemorga kurinayotgan yoki eshitalayotgan narsalarni atrofdagilar xam kurayotgandek, eshitayotgandek. Soxta gallyutsinatsiyalarda esa tovush va obrazlar fakat bemor uchun kilingan, fakat u gina sezayotgandek tuyuladi.
4. Chin gallyutsinatsiyalar kechgacha borib kuchayadi, soxta gallyutsinatsiyalar esa sutkacha davomida uzining intensivligini uzgartirmaydi.
5. Chin gallyutsinatsiyalar sezgi a'zolarining sezish busagasida yuzaga kelsa, soxta gallyutsinatsiyalar undan tashkarida buladi. Masalan, bir bemor kushni xonadan tovush eshitsa (chin gallyutsinatsiyada), ikkinchisi kushni shaxardan, boshqa sayyorada odamlarning tovushini eshitadi (soxta gallyutsinatsiyalarda). Kupincha soxta gallyutsinatsiyalarda tovushlar bemor tanasining ichidan keladi.
6. Soxta gallyutsinatsiyalar asosan endogen ruxiy kasalliklarga xosdir. Chin gallyutsinatsiyalar esa kupincha ekzogen ruxiy kasalliklarda uchraydi.  
Funksional gallyutsinatsiyalar biron bir sezgi a'zosiga bevosita ta'sir vaqtida yuzaga keladi. Masalan, poezd utib ketayotganda, krandan suv tushayotganda. Ta'sir tugagandan keyin gallyutsinatsiya xam tuxtaydi.

Gipnogagik gallyutsinatsiyalar uykuga ketish vaqtida, gipnopompik gallyutsinatsiyalar esa uykudan uygonish vaqtida paydo buladi.

Gallyutsinatsiyalarni aniklash va ularning kasallik klinik manzarasidagi o'rni belgilash bemorni davolashda juda katta ahamiyatga ega.

Gallyutsinatsiyalar kupincha ruxiy kasalliklarda – shizofreniyada, keksalik psixozlarida, bosh miya organik kasalliklaridagi psixozlarda, alkohol va narkotik moddalar bilan zaxarlanish natijasidagi – intoksikatsiyada uchraydi

## **Psixosensor buzilishlar.**

Psixosensor buzilishlarga metamorfopsiyalar, «tana tuzilishning» buzilishlari, depersonalizatsiya va derealizatsiya kiradi.

Metamorfopsiyalar. Idrok kilinaetgan narsa va makon kattaligi yeki tuzilishining buzilishi. Bunga mikropsiya, makropsiya, shuningdek, dismegalopsiya - predmetlarni uzunlashgan, kengaygan, aylanma xolda kabul qilish kiradi. Odatda dismegalopsiya xolatida makonni idrok etish xam uzgaradi. Makon kiska, predmetlar yakinda, va aksincha, makon uzunlashib, predmetlar uzoklashib ketgandek tuyuladi (porropsiya ).Bu xolatning gallyutsinatsiyalardan farqi shundaki, bunda real mavjud bulgan predmetlar uzgargan xolda aks ettiriladi, gallyutsinatsiyalarda esa yuk narsalar idrok etiladi. «Tana tuzilishining» buzilishlari. Uz tanasining tuzilishi va kattaligini sezishning buzilishi. Total buzilish xolatida bemorda uz tanasining kattalashib yeki kichiklashib, ogirlashib yeki yengillashib ketgani xakida tasavvurlar paydo bulsa, parsial buzilish xolatida tananing ayrim kislmlari uzgargandek seziladi, ya'ni bemorga oeklari yeki kullari kattalashib yeki kichiklashib ketgandek tuyulishi mumkin.

Depersonalizatsiya-uz shaxsini idrok etishning buzilishi, shaxs barcha ruxiy xususiyatlarining begonashuvi. Bunda bemorlarga fikr – xaellari, tafakkuri uzgargandek, avvalgidan boshqacha bo'lib kolgandek tuyuladi. Bemorlar uzgarib kolganliklari, boshqa odam bo'lib kolganliklari xakida gapiradilar. Depersonalizatsiyaga anaesthesia psychica dolorosa simptomi xosdir – bemor uz xislarni yukotganini, kuvonch, tashvish, ogrik sezmaetganligiini, ishtaxasi, uykusi yukligini gapiradi. Ba'zi xollarda shaxshing narchalanishi, ikkilanishi xissi xam kuzitiladi.

Derealizatsiya- ob'ektiv borlikni idrok etishning buzilishi. Bu xolatda bemorga olam uzgarib, uzoklashib kolgandek tuyuladi, atrof noanik, tushunarsiz, parda bilan uralgandek kurinadi, atrofdagi mavjudotning xakikiyiligiga shubxa tugiladi. Ba'zida bemorlarga uzlari yashab turgan joy, atrofdagi odamlar begonadek kurinadi («jamais – vu” –«xech kachon kurilmagan»), yeki aksincha, begona joy, begona odamlar xuddi tanishdek, avval xam kurgandek tuyuladi («deja – vu” –«avval kurilgan»).

### **Xissiet, xarakat, iroda va mayl buzilishlari.**

Xissiyot deb tashki olamdagi narsa va xodisalarga nisbatan bulgan munosabatlarimizning va bu munosabatlarimizdan xosil buladigan ichki xechinmalarimizning aks ettirilishini aytamiz.

Xissiyotning yuzaga kelishi odamning extiyojlari, kizikishlari va intilishlari bilan boglik buladi. Shunda kura, yukori va tub xissiyotlar tafovut etiladi. Insonning tub instinktlari bilan boglik ravishda yuzaga kelgan xissiyotlar (ovqat yeyish, uxlash,

jinsiy mayl bilan boglik xissiyot) tub xissiyotlar xisoblanadi. Insonning akliy rivojlanishi, madaniyati va boshqa yukori extiyojlari yukori xissiyotga kiradi.

Shuningdek, ijobiy va salbiy xissiyot farkanadi. Yokimli kechinmalar – xursandlik, shodlik, xuzur qilish ijobiy xissiyot, xafalik, gazablanish, gam, nafrat va boshqa yokimsiz kechinmalar salbiy xissiyotdir.

Xissiyot boshqa barcha ruxiy jarayonlar kabi bosh miya pustlok kismining faoliyati bilan boglikdir. Bosh miya xissiyotining kuchini va barkaroligini idora qilib turadi.

Xissiy xolatlar uzining paydo bo'lish tezligi, kuchi, davomiyligiga karab bir necha turlarga bulinadi.

Kayfiyat – unchalik, kuchli bulmagan, lekin uzok vaqt davom etadigan barkaror xissiy xolat. Kayfiyat soglom odamda xech kachon sababsiz shakllanmaydi. U odamning sixat-salomatligiga, atrof-muxit sharoitiga boglik ravishda uzgaradi.

Extiros xamisha biron ob'ektga, konkret bir narsaga karatilgan buladi, barkaror xissiy xolat bo'lib, butun umr davom etadi. Ijobiy extiros ilmga, san'atga, sportga, mexnatga karatilgan buladi. Salbiy extiros esa ichkilikbozlikka, kimorga, pulparastlikka karatilgan bulgan.

Affekt – tusatdan paydo bo'lib, nixoyat darajada kuchli, jushkinlik bilan utadigan kiska muddatli xissiy xolat. Birdaniga achchiklanish, gazablanish, kurish affektning ko'rinishlaridir.

Intellektual xislar odamning akliy faoliyati bilan boglik bulgan xislardir. Ular xar xil nazariy va amaliy savollar tugilganda, vazifa va masalalarni xal qilish chogida paydo buladi. Bularga urinchoklik, kizikish, taajub, shubxalanish va xokazolar kiradi.

Axlodiy xislar deb odamlar uzlari yashab turgan jamiyat tomonidan kabul kilingan axlodiy prinsiplarni ado etishlari yoki buzilishlari sababli paydo buladigan xislar ataladi. Bunga burch, dustlik, urtoklik, soflik, tugrilik xislari kiradi.

Estetik xislar deganda biz guzallikni idrok qilish, undan zavklanish, yaratishdagi intilishni tushunamiz.

Ruxiy kasalliklarda xissiyotning ma'lum darajada uzgarishlari tez-tez uchrab turadi. Eyforiya – maylning kuchayishi bilan boradtgan kuvonchli, kutaringi kayfiyat. Atrofdagi xamma narsa bu, bemorlarga chiroyli, kurkam kurinadi.

Distimiya – chuqur kaygu, xafakonlik, uta past kayfiyat xolati. Bu xolatda bemorlar ko'krak kafasi, yurakdagi ogriklarga xam shikoyat kidladilar.

Disforiya – xorgin-jaxldor, ba'zida qo'rquv bilan boruvchi kayfiyat. Odamovilik, agressivlik bilan boradi.

Xissiy labillik – arzimagan sabablarga kura kayfiyatning keskin uzgarishi. Bunda bemorda yukori darajadagi ta'sirchanlik kuzatiladi.

Xissiy ambivalentlik – bir vaqtning uzida biron kishi yoki predmetga karama-karshi xislarning mavjudligi.

Apatiya – mutlak lokaydlik, uzining xolatiga, atrofga kizikishning yukligi. Ba'za mualliflar bu xolatni uygok koma deb ataydilar.

### **Xissiy buzilishlar sindromlari.**

Maniakal sindrom kutarinki kayfiyat, fikrlashning tezlashishi va yukori darajadagi faollik bilan xarakterlanadi. Shu simptomlar doimo u yoki bu darajada tasvirlangan buladi. Fikrlashning tezlashuvi va yukori faollik sust (kuvnok maniya), yoki

aksincha, fikrlashning tezlashuvi uzuk-yuluklikkacha borishi (chigal fikrli maniya) mumkin. Ba’zida maniakal xolat cho’qqisida ongning xiralashuvi kuzatiladi (oneyroidli maniakal xolat). Gazabli maniya xolatida esa bemor jaxldor buladi.

Depressiv sindrom. Xafakon, xorgin, past kayfiyat, fikrlashning keskin sustlashuvi, xarakatlarning tormozlanishi simptomlari birgalikda depressiv sindromni tashkil etadi. Depressiv stupor xolatida yukori darajada xarakat sustlashuvi kuzatiladi.

Depressiv xolatlarda ruxiy anesteziya kuzatiladi.

Xissiy buzilishlar simptomlari shizofreniyada, maniakal-depressiv psixozda, nevrozlarda va boshqa ruxiy va somatik kasalliklarda uchraydi.

### **Iroda va mayl buzilishlari.**

Inson oldiga kuyilgan maksadga erishishga karatilgan faoliyat i r o d a deb yuritiladi.

Xar bir ruxiy akt, ongni ravishda kabul kilingan karor iroda jarayonining saklanganligi tufayli amalga oshiriladi. Iroda yunalishsiz bilimlar olish, ularni takomillashtirish mumkin emas.

Iroda jarayonni bir necha boskichlarga bo’lish mumkin:

- maksadga erishiga bulgan extiyojning uygonishi
- maksad kelib chikishning sabablari
- maksadni amalga oshirish

Ruxiy kasalliklarda iroda faoliyatining kuchayishi va sustlashishi uchrab turadi. Iroda kuchayishining ko’rinishlari impulsiv kilmishlar, xarakatga yoki faoliyatga intilish kirsas, iroda sustlashuvi ko’rinishlariga undalish va impulslarning sustlashishi yoki umuman yukolishi kiradi.

Impulsiv kilmish (xarakat)larga vaqti-vaqti bilan paydo bo’lib, inson aklini kamrab oladigan intilishlar kiradi.

Dipsomaniya – yengib bulmaydigan darajada ichkilikka mayldir.

Dromomaniya (vagobanda) – davriy ravishda paydo buladigan daydilikka, turar joyini uzgartirishga bulgan intilish.

Kleptomaniya – vaqti-vaqti bilan paydo buluvchi ugrilikka bulgan extiros. Odatda bu ugrilik maksadsiz, undagan sababsiz buladi.

Piromaniya – olovga, ut yokishga bulgan intilish.

Ruxiy kasallaklarda mayl buzilishlari anoreksiya – ovqatdan kolish, bulimiya – uta yaxshi, «burinikidek» ishtaxa, jinsiy instinktning sustlashishi – giposeksuallik, kuchayishi – giperoseksuallik, va boshqa ko’rinishlarda namoyon buladi.

Shuningdek, parabuliyalar xam tafovut kilinadi. Bularga uz-uziga zarar yetkazishga moyillik (to suitsidal fikrlargacha), ba’zi psixopatlarda uchrovchi temir narsalarni yutishga moyillik kiradi. Jinsiy maylning buzilishi gomoseksualizm – uz jinsiga bulgan moyillik va boshqa ko’rinishlarda namoyon buladi.

Iroda va mayl sustlashuvi yoki umuman yukolishi bilan beradigan boradigan xolat psixiatriyada apato-abulik sindrom deb yuritiladi.

### **Xarakatlarning buzilishiga taallukli sindromlar.**

Aktivlikning patologik oshishi – xarakatlar kuzgalishi xolatlari. Ruxiy faolikning oshishi xolatlariga kuzgalishlarning turli shakllari kiradi.

Maniakal kuzgalish xususiyatlari: bemorlar mudom faoliyat kursatishga intiladi va tinmay xarakterda buladi, juda kup va tez gapirashadi, ovozi bugilib koladi, eyforiya xolati («bir gapirib, un kulish»), bir ishni oxiriga yetkazmaydilar (dikkat-e'tibor chalgishi orqali). Maniakal xolatning birmuncha yengil formasi bu gipomaniakal xolatdir. Maniakal kuzgalish maniakal-depressiv psixozda kuzatiladi. Gebefrenik kuzgalish – bemorlarda sakrash, yugurish, aftini buzushtirish, sababsiz kulish, kurukdan-kuruk safsata sotish bilan band bo'lish, turli suzlar tukib chikarish va boshqa xolatlar («masxarabozlik») kuzatiladi. Bu sindrom asosan shizofreniyada uchraydi.

Katatonik kuzgalishda bemor bir xildagi stereotip, maksadsiz be'mani xarakterlar kiladi. Xarakter ba'zan ayrim muskul guruxlariga yoyiladi: masalan, bemor oyoklarini mutlako kimirlatmagani xolda kullari bilan xarakter qilib, aftini burishtiraveradi, ayrim suzlarni bakirib aytadi, ba'zida atrofdagi odamlarni suzlarini kaytaradi – exolaliya, yoki xarakterlarini – exopraksiya. Katatonik kuzgalish impulsiv ravishda, birdan, sababsiz boshlangan bulsa, shunday qilib tuxtaydi. Bu kuzgalish shizofreniya va boshqa psixozlarda kuzatiladi.

Faollikning patologik susayishi – stuporoz xolatlar. Stupor batamom yoki kisman xarakter kilmaslik xolatidir. Klinik psixopatologiyada stuporning xarakter depressiv, katatonik, apatik, isterik yoki psixogen turlari tafovut kilinadi. Depressiv stupor xolatida xarakterlar juda susayib, savollarga javob berish kiyinlashib uzok vaqtgacha savolga javob bera olmaydilar, shivirlab gapiradilar. Ovqatni uzlari kabul kilolmay kolishadi, bemorlarga ovqatni yedirib kuyishga tugri keladi. Tushkunlik, gamginlik, kurkish depressiv stuporning doimiy belgilari xisoblanadi. Bunda azoblanayotgandek mimika bilan kotib turish xarakterlidir. Depressiv stupor ba'zan tusatdan qattiq yurak siqilishi, vaximaga tushish bilan almashadi.

Katatonik stupor xammadan keng tarkalgan bo'lib, xarakterdan va tildan kolish – mutizm, faol va depressiv negativizm, katalepsiya – shagamdek kotib turish va xokazo belgilar kuzatiladi.

Shizofreniyadan tashkari katatonik stupor infeksiya va intoksikatsiyalarda uchraydi. U bir necha soatdan bir necha oylargacha davom etish mumkin. Stupor vaqtida bemorlar kupincha ovqat yemay kuyadi, ba'zida zond orqali ovqat berish kerak buladi, u odatda bosh miyaning juda ogir organik kasalliklarida kuzatilib, kupchillik olimlar apatik stupor emotsional befaxmlikning okibati deb xisoblaydilar. Sezgirlikning juda xam susayishi shunga olib keladiki, atrofdagi narsalarni idrok etish bemorlarda xech kandy kechinmani paydo kilmaydi.

Psixogen yoki isterik stupor psixik shikast yetishi: kurkish, tusatdan boshga musibat tushish, kungilni ranjitadigan gap-suzlarni eshitish, tabiy ofatdan sung paydo buladi. Shu kursatilgan vaziyatlardan keyin bemorlar kimirlamay, xech indamay utiradi. Katatonik stupordan farqi shundaki, bemorlar psixogen stuporni kelib chikargan axvol tugrisida kungilni ranjitadigan gap-suzlarni eshitishsa, ba'zan emotsional reaksiya kursatishadi: kizarib, okarib yiglashadi.

### **Ruxiy kasalliklarning etiologiyasi.**

Ruxiy kasalliklarning sabablari turlichadir. Ruxiy kasalliklarni kelib chiqishi haqidagi tushunchalarda ko'p noaniqliklar bor. Ruxiy kasalliklarga ko'pgina omillar sabab buladi.

Ruxiy kasalliklarning kelib chiqishi, rivojlanishi, kechishi va yakuni uni keltirib chiqargan sabab, muxitning turli zararli ta'sirotlari, tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillarning o'zaro munosabatiga bog'liqdir. Shunday qilib, ruxiy xastaliklarning sabablari ichki va tashqi omillarga bo'linar ekan.

Endogen omillarga irsiyat, nerv faoliyatining holati, odamning konstitutsional va xastalikdan oldingi davridagi xususiyatlari, jinsi, yoshi, organizmning immunologik va reaktiv holatlari kiritiladi.

Ekzogen omillarga infeksiyon (gripp, surunkali tonzillit, revmatizm, brutsellyoz, terlama kasalliklari, zahm, SPID, ensefalitlar va xokazolar), intoksikatsiyalar (alkogolizm, narkomaniyalar, giyoxlar, sanoat va qishloq xo'jalik zaharlari), bosh miya jaroxatlari, tananing o'tkir yoki surunkali kasalliklari (yurak-kon tomirlari, o'pka, me'da, hazm yo'llarining kasalliklari), endogen bezlar faoliyatining buzilishlari (qalqonsimon, me'da osti, buyrak usti va boshqa}. bosh miya tomirlarning kasalliklari (serebral arterioskleroz, hafaqon kasalligi), bosh miya o'smalari va parazitlari (exinokokk, sistitserkoz, ruxiy jaroxatlar va boshqalar) kiradi.

Psixiatriyada ham boshqa sohalarda bo'lgani kabi sabab va oqibat orasida anchagina o'rganilmagan masalalar bor. Turli kasallarda va xar xil ruxiy kasalliklarda endogen va ekzogen, etologik omillar-ning axamiyati turlichadir.

Tashqi muxitning yuqorida sanab o'tilgan zararlari, holatlar ba'zan ruxiy kasalliklarning sababi, boshqa xolatlarda kelib chiqishga sharoit yaratuvchi yoki uning kechishi og'irlashuviga yordam berishi mumkin.

Ichki va tashki muxit sharoitlari, aniq holatni hisobga olgaida kasallikning kelib chiqishiga to'sqinlik qilishi yoki yordam berishi mumkin.

Ruxiy kasallikning kelib chiqishida boshqa kasalliklardagi kabi ichki va tashqi muxit ta'siri xal etuvchi ahamiyatga ega, Sabab hamma vaqt xam kasallikni paydo qilavsrmaydi, balki ma'lum sharoitlar bo'lgandagina uni yuzaga keltiradi, bu fikr barcha sabablarga ham tegishlidir. Infeksiya qo'zg'ativchilari organizmga tushganda ba'zilar albatta kasallik qo'zg'aydi (o'lat), boshqalari ma'lum bir sharoit bo'lgandagina (gripp, ichburug') kasallik paydo qiladi. har qanday infeksiya kasallik paydo qilmaganidek, har

bir infeksiyon xastaligi ham psixoz keltirib chiqarmaydi. Nima uchun bitta sabab, masalan, gripp, bir xodisada o'tuvchi, boshqasida surunkali psixoz chaqiradi, juda ko'p odamlarda esa hech qanday ruxiy o'zgarishlarsiz o'tadi, degan savolga javob topish qiyindir. Ruxiy jarohatga nisbatan ham shunday hol ruy beradi, ya'ni bir xolatda o'tuvchi, boshqasida surunkali psixoz, uchinchisida esa hech qanday o'zgarish paydo qilmaydi.

Kasallikning sababi o'ziga xos usulda ta'sirotni qabul qila oladigan organizmning kasallik chakiruvchi ta'siri bilan o'zaro munosabati jarayonidir. Masalan, hatto bir xil rasmiy asosga ega bo'lgan bir tuxumli egizaklarda birining shizofre-

yoki -maniakal-depressiv psixoz bilan kasallanadi, ikkinchisi xam 100 foiz xollarda kasallanadi degan gap emas. Shuning uchun endogen omillar haqida gap borganda ruxiy kasallikning nasl surishi emas, balki unga moyillik haqida fikr yuritish kerak. Nasliy moyillik odam yashab tursan muxit sharoitlariga bog'liqdir.

Nasl suruvchi kasalliklar orasida ruhiy kasalliklar katta o'rin tutadi. Bularga shizofreniya, maniakal-depressiv psixoz, epilepsiya va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Bir va ikki tuxumli egizaklar oilasida ruxiy xastalikni o'rganishda, xususan shizofreniyaning rivojlanishida genetik omilning muhim ahamiyati borligi aniqlandi. Shuning bilan birga nasliy moyillik vujudga kelishida qo'shimcha zararlar xam ma'lum ahamiyatga ega. Ruhiy kasalliklarning kelib chikishda ona kornide embrion va xomilaning zararlanishi xam ma'lum ahamiyatga egadir. Xomiladorlik davrida onadagi xastaliklar (infeksiyon, alkohol intoksikatsiyasi, somatik. endokrii va boshqa kasalliklar), homiladorlik toksikozi, jismoniy va ruxiy jarohatlar. tug'ish vaqtidagi kasalliklar homilaning holatiga ta'sir ko'rsatib, u yoki bu ruhiy o'zgarishlar yoki kasalliklarni paydo qilishi mumkin. "O — 30 yosh orasida shizofreniya eng ko'p uchraydi, o'rta va katta yoshda anchagina kamayadi. Jinshing ta'siri, ayniqsa qarilik, involyutsion, tomirlar, alkoholizm, alkogolli va jarohat psixozlarida, maniakal-depressiv psixozlarda yaqqol bilinadi. Qarilik boshlanganda, qarilikda manna kal-depressiv psixozlar ayollarda ko'proq uchraydi. Ijtimoiy hayot tarzi bilan bog'liq, bo'lgan alkoholizm psixozlari, bangilik, jarohat; tomirlar, zaxm psixozlari erkaklarda ko'proq uchrashi tabiiydir. Shizofreniyaga kelganda erkaklar va ayollar baravar kasallanadilar.

Davriy kechuvchi endogen psixozlar uchun MDP, tutqanoq, asosan mavsumiy omillar ma'lum ahamiyatga egadir. Shunday qilib, kasallik sabablari xam, ichki va tashqi bo'lishi mumkin.

Klinik amaliyotda ko‘pincha kasallikning sababi va sharoitlarini, kasallik rivoji davomida sabab va oqibatlarini aniqlash juda qiyin bo‘ladi (I. V. Davidovskiy).

U yoki bu psixoznig kelib chiqishili qandaydir bir etiologik omilga bog‘lab bo‘lmaydi. Ruhii xastaliklarni omilga bog‘lab bo‘lmaydi. Ruhii kasalliklarning sababiga kelsak, bu ancha murakkab bo‘lib, bir qator omillarning o‘zaro ta‘siridan iborat bo‘lib, ba‘zilari asosii, boshqalari ikkinchi darajadagi ahamiyatga egadir.

Xar bir ruxii kasallikning aloxidaligini aniqlashda etiologiyasi va patogenezi birinchi o‘rinda turadi.

Patogenezi. Kasallikning taraqqiy qilish mexanizmi. Boshqacha qilib aytganda nozologik birlik (yunonna — patos kasallik). Mustaqil ruxii kasallik bir xil sabab ta‘siridan, bir xil taraqqiyot mexa-nyazmlaridan iborat kasalliklar xosilasidan tuzilgan. Bir sababdan paydo bo‘ladigan kasalliklarning rivojlanish mexanizmi turlicha bo‘lsa, nozologik mustaqil kasallikka kiritilmaydi. Etiologiyasi ji-hatidan bir xil, nozologik jihatidan har turli bo‘lgan kasalliklarga zahm psixozi, orka miyaning ko‘rishi, rivojlanuvchi falajliklarni kiritish mumkin. bu barcha kasalliklar zahm infeksiyasi tufayli vujudga kelsa-da, ammo ularning patogenezi o‘zgacha va bularni nozologik turli kasalliklar deb qaraladi. Oq alahlash, alkogolli gallyutsinoz, alkogoldan rashk vasvasasi, Korsakov psixozi haqida ham shunday deyish mumkii. Ularning etiologiyasi bita surunkali alkogolizm, ammo patogenezi turlicha bulgani uchun xar biri aloxida kasallik deb qaraladi.

Shuning bilan birga turli sabablar bir xil pato-genezga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, deliriy (alaxlash) sabablari bo‘lib ko‘pgina infeksiyalar, miya jarohati, tana kasalliklari xizmat qilishi mumkin. Ammo alohida olingan na sabab, na patogenezi nozologik shakl moxiyatini ochib berolmaydi, Nozologik shaklda etiologiya va patogenezi birlikda bo‘ladi.

Etiologiya va patogenezi birligi barcha ruxii kasalliklarda xam o‘rganilgan emas. Bir qator ruxii kasalliklarning sababi topilgan bo‘lsa xam patogenezi xali tekshirilmagan. Boshqalarida esa patogenezi mukammalroq o‘rganilganu, ammo etiologiyasi noma‘lum. Ko‘prina ruxii kasalliklar nozologik birlik sifatida klinik bir xil ko‘rinishlari asosidagina birlashtirilgan. So‘zsiz, bundan keyinti ruxii kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi va klinikasini tekshirish soxasidagi taraqqiyot kasalliklarni nozologik tashifiga malakali tuzatishlar kiritadi.

**Ruxii kasalliklarning kechishi va yakuni.**

Ruxiy kasalliklarning kechishi xar xil buladi. Psixozlarning bir kismi o'tkir boshlanadi va o'tuvchan-tranzitor xarakterga ega. Ko'pincha bular ekzogeip (intoksikatsiya-lar, infeksiion, miya-kalla jaroxati, tutqanoq va boshqa) psixozlardan alahlash xolatlari, xususan oq. vasvasa, alkogolli alaxsirash, ongning xiralashuvi, oneyroid, katatonik sindromlardir. O'tkir kechadigan ruxiy sindrom va kasalliklarning davomiyligi minut, soat, kun va kam hollarda — haftalab davom etadi. Ruxiy kasalliklarning boshqa qismi sekin rivojlanadi (zimdan), ruxiy sog'lomlik va kasallik orasi aniq bo'lmay qoladi, kasallikning boshlanish sanalarida yillab hatu qilinishi mumkin. Shunga o'xshash sezilarsiz, aniqmas, asta-sekin holat surunkali kechadigan kasalliklarga shizofreniya, tutqanoq, alkogolli paranoidlar (rashk vasvasasi) va surunkali gallyutsinozlar uchun xosdir.

Ruhiy kasalliklar kechishi bo'yicha progredieptli va gredishtsizlarga bo'linadi. Kasallik progredieptli usulda kechsa kasallik xolati asta-sekin yomonlashib, og'irlashib, doimiy mayiblikka olib boradi. Miyaning organik kasalliklari {keksalik psixoz, ayniksa miya jaroxatidan keyin paydo bo'lgan zaxm psixozlari, tomir psixozlari, ayniksa miyaga qon qo'yilgandan so'ng va boshqalar), alkogolizm, nashavandlik, shizofreniya, tutqanoq, va boshqalar aqlsizlikka olib keladi. Kasallik chegaralarida progredient darajalari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, oz progredieptlisiga rekurrent shizofreniya, qo'pol progredientlisiga yomon kechuvchi, o'smirlarda bo'ladigan kasallikni kiritish mumkin.

Ruhiy kasalliklarning kechishi uzluksiz yoki xurujsimon bo'lishi mumkin. Uzluksiz davom etganda kasallik kechishi davriy bo'lib (qaytalanuvchi) o'tkirlashuvi (qaytishi), bushashuvi kuzatiladi, ammo kasallikdan to'la forig' bo'lish kuzatilmaydi.

Xurujsimon kechganda ruhiy kasallik, kasallik belgilari bir necha kunlar davom etadigan yorug' kunlar intermissiya (amaliy sog'lomlik xolati) bilan uzilib turadi. Xurujsimon kechishniig bu xil ko'rinishini nptermittirlovchi yoki sirkulyar kasallik deyiladi. Shunga o'xshash maniakal-depressiv, sirkulyar, psixoz, davriy shizofreniya kechadi, Xurujdin keyin remissiya davrida bemor kasallik xolatidan to'liq chiqa olmaydi va stishmagan belgilar kasallik xuruji oshishi bilan ko'payadi. Kasallikning tranzitor o'tuvchi turi ko'pincha o'tkir, ekzogeip (oq. alahlash, infeksiion alahlash) psixozlarda ko'rinadi.

Shunday qilib, prognoz bo'yicha tranzitor (uguvchan) va sirkulyar turlari osonrok, kechadi. Kasallik kechishida ma'lum o'zgarishlar bo'lishi mumkinligini aytib qo'yish lozim. Masalan. tranzitor ko'rinishidagi kechishi,

sirkulyar instermittirlovchi yoki, aksincha, uzok yillar uzluksiz davom etadigai xurujsimon va remittirlovchi xarakterga o'tishi mum-kin. Ruxiy kasallik davomida qo'yidagi asosiy davrlar farqlanadi;

- 1) prodrom—dastlabki belgilarning paydo bo'lish Davri;

2) manifest — kasallikning to'la va murakkablashuv davri.

3) reduksiya — kasallikning orqaga qaytishi, belgilari susayishi, kasallik jarayonining aynish davri (kasallikning yakuni). Ruxiy kasallikning yakuni qisman tuzalish, yoki sog'ayish bo'lishi mumkin. To'la tuzalganda qoldiq. buzilishlar davomli qolishi mumkin, ular ruxiy olamning turli darajada susayishlaridan (doimiy astenizatsiya, psixopatizatsiya, his-hayajonning susayishlaridan) iboratdir. Progredientli kechadigan kasalliklarning faolligi, so'ngra pato-logik xolat anchagina ifodalangan qoldiqlar bo'ladi. Bular organik tutqanoq, yoki shizofrenik aqliy susayish xolatida bo'lishi mumkin. Ruxiy kasallikdan o'lish juda kam uchraydigan holdir.

### **Ruxiy kasalliklarni davolashni ikki usuli bor.**

1. Biologik davolash usuli.

2. Psixoterapevtik davolash usuli.

Biologik davolash usullari turli tuman. Bularga quyidagilar kiradi.

Psixofarmakoterapiya, insulin bilan davolash-moddalar almashinuvida ma'lum o'zgarish yasab ,intoksikatsiyani kamaytiradi, insulin shokini keltirib chikarish bilan davolash. Elektr toki bilan davolash(elektrosudorojnaya terapiya), tutqanoqqa qarshi dorilar, fototerapiya. uyqusizlik bilan davolash. Lazer bilan, nina bilan davolash(iglorefleksoterapiya), fizioterapiya, garmonlar bilan davolash.

Biologik davolash usulini eng yaxshi samara beradigani- psixofarmakoterapiyadir.

Psixotrop preparatlar bilan davolash yaxshi natija beradi.

Psixotrop preparatlar 6 sinfga ajratiladi.

1. neyroleptiklar.

2. antidepressantlar

3. trankvilizatorlar.

4. psixostimulyatorlar.

5. nootrop preparatlar.

6. affekt stabilizatorlari.

Dori vositalarini zararli ta'sirini xar bir meditsina xamshirasi bilishi kerak

Neyroleptiklarni salbiy ta'siri-Parkinson sindromini keltirib chiqarishidir.

Shuning uchun xam ularni antiparkinsonik preparatlar bilan berish maqsadga muvofiqdir (siklodol, akineton). Neyroleptiklarni yana bir xafvli asorati-ongning xiralashivi, nutqning tezlashuvi, xaroratning ko'tarilishi, somatovegetativ disfunktsiyalardir. Eng yaxshi psixotrop neyroleptik-aminazindir. Levomepromazin (tizersin) Sulpirid (topral) Preparatlari manikal qo'zg'aluvchanlik va gallyutsinator alaxsirashlarda ishlatiladi. Ampulada va tabletkalarda chikariladi.

Klozapin (azaleptin, leponeks)-kuchli sedativ va antipsixik tasir ko'rsatadi. O'tkir va surunkali psixozlarda qo'llvniladi. Tioproperazin (majeptil) kuchli neyrleptik. Amitriptilin (saroten, saroten-retard, triptizol) —Keng foydalanilayotgan antidepressant-sedatik. Fenazepam —keng foydalanilayotgan trankvilizatorov-sedatik. Kofein-psixostimulyator.

Nootroplar-miyada moddalar almashinuvini yaxshilab, kislorod bilan ta'minlanishiga yordam beradi-antigipoksik ta'sir qiladi.

Piratsetam (nootro-pil) —keng foydalaniladigan nootrop. Ainalon (gammalon) —piratsetamga qaraganda yaxshiroq ta'sir qiladi.

### **Drugie metody biologicheskoy (nemedikamentoznoy) terapii**

Lechenie deprivatsiey (lisheniem) sha. Metod zaklyuchaetsya v nepreryvnom boдрstvomani bolnyx na protyazhenii I —3 sutok ili v sokращениi nochnogo sha do 3—4 chasov v techenie nedeli.

## **Gidrotsefaliya**

Gemorragik insult natijasidagi shikastlanishlar ortiqcha suyuqlik hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

**Belgilari:** Bosh og‘rishi, ko‘ngil aynash, qayt qilish, muvozanatni yo‘qolishi

## **Chuqur venalar trombozi (ChVT)**

Chuqur venalar trombozining belgilariga quyidagilar kiradi: Shish, og‘riq, terining iliqqligi, og‘riq yoki sezgirlik, qizarish, ayniqsa tizzadan pastda oyoq orqasida

**Hamshira bemor va uning oila a‘zolariga asab kasalliklarini oldini olish bo‘yicha maslahat berishi kerak.**

- ▶ Sog‘lom parhez yoki ovqatlanish, doimiy jismoniy mashqlar
- ▶ Chekishdan voz kechish va spirtli ichimliklarni ortiqcha iste‘mol qilmaslik, mashqlar

**Periferik neyropatiya– periferik nerv tizimining zararlanishini aks ettiruvchi atama hisoblanadi.**

**Hamshira periferik nervlarning zararlanishi natijasida quyidagi belgilar kuzatilishini bilishi kerak:**

- Qo‘l va oyoq panjalarida sanchish bo‘lishi va sezgirlikni yo‘qolishi
- Kuydiruvchi, o‘yuvchi yoki sanchuvchi og‘riq
- Organizmning zararlanish kuzatilgan qismlarida harakatlarning nomuvofiqligi
- Mushak holsizligi

**Hamshira, bemorda polineyropatiya belgilari kuzatilganda, vrachni bundan xabardor qilishi kerak, chunki bu belgilar qancha erta aniqlansa, jiddiy asoratlarning xavfi shuncha kamayadi.**

**Periferik neyropatiya belgilari ko‘pincha oyoq-qo‘llarning kaftlarida rivojlanadi.** Ko‘p hollarda motor va sensor nervlar zararlanadi. Neyropatiyaning bu turiga *sensor-motor polineyropatiya deyiladi.*

Sensor-motor polineyropatiya belgilariga quyidagilar kirishi mumkin:

- Zararlangan joyda sanchish va chimchilash sezgilarini paydo bo'lishi
- Og'riq sezgisining pasayishiva uvishish yoki haroratni ayniqsa oyoq kaftlarida o'zgarishi.
- Oyoq va oyoq kaftlarida kuyishish va og'riq hamda bu holatni qo'l kaftlarga kuchayib boruvchi polineyropatiya belgisi sifatida tarqalishi, o'tkir shiddatli og'riq, uning ko'pincha kechalari kuchayishi, mushak holsizligi, muvozanatni yo'qotish, mushak falaji.

Periferik neyropatiya belgilari uning turiga qarab har xil bo'ladi

Ba'zi polineyropatiyalı odamlarda *dizesteziya* ham bo'ladi (sezgining o'zgarishi va buzilishi) – bemorga teqinganda muammo aniqlanadi va quyidagi belgilar namoyon bo'ladi:

- Teridagi kuyishish va sanchish hislari
- Notabiiy sezgi, teri boshqa jihozlar, masalan choyshab, sochiq bilan aloqada bo'lganda o'tkir og'riqni his qilishi

Ishtirokchilar avtomatik neyropatiya belgilariga quyidagilar kirishini **bilishi kerak:**

- Muvozanat va harakatni buzilishi, disfagiya, ko'ngil aynashi va/yoki qayt qilish, axlat tuta olmaslik, qabziyat yoki diareya, ortiqcha ter ajralishi, jinsiy zaiflik (impotensiya), yurakning tez urishi (taxikardiya), siydik pufagini to'liq bo'shamasligi, mushaklar tonusining pasayishi.

**Ishtirokchilarga** ba'zi hollarda periferik neyropatiyaga olib keluvchi shikastlanish bita nerv bilan chegaralanishi mumkin, bunday holatga *mononeyropatiya* deyiladi.

Mononeyropatiya belgilariga quyidagilar kiradi: Diplopiya (narsalarni ikkita bo'lib ko'rinishi) yoki ko'zning aniq ko'rishi bilan bog'liq boshqa muammolari, ko'zlardagi og'riq, yuzning bir tomonida zaiflik yoki falajlanish, tovon yoki boldir yoki ko'krakdagi og'riqlar

*Kaft tunnel sindromi* (KTS) – mononeyropatiya turlaridan biri, ko'proq qandli diabetli bemorlar orasida tarqalgan.

**Ishtirokchilarga hamshira bemorlarga quyidagi holatlarda tibbiy yordamga murojaat qilish kerakligi bo'yicha maslahat berish:**

- Tovondagi tuzalmayotgan shilinish, yorilish yoki yarachalar
  - Oyoq tovonı yoki kaftlaridagi uvushish, zaiflik, sanchish yoki og'riq hissi
  - Ko'p hollarda gipotenziya tufayli o'rindan turayotganda bosh aylanishi
- Siydik pufagi va ichaklar faoliyatidagi o'zgarishlar, ya'ni doimiy ich ketish yoki qabziyat, to'satdan siydik ushlolmaslik.

Hamshira periferik neyropatiyani aniqlashda ishlatiladigan sinov va tahlil natijalarini tushuntira olishi kerak:

**Oyoq kaftini parvarishlash:** Oyoq kaftini har kuni qavariqlar, yarachalar, shilinishlar borligiga tekshirish

- Zich poyafzal va tor paypoqlar holatni murakkablashtirib, bitmaydigan yaralarga sabab bo'lishi mumkin.
- Bemor ustiga yopadigan ko'rpa sezgir bo'lib qolgan oyoq kaftiga tegmasligi uchun yarim oysimon gardish ishlatilishi mumkin.

### **Chekishni tashlash**

Chekish oyoq kaftlariga qon kelishini pasaytirishi va gangrena rivojlanishi hamda keyinchalik amputatsiya xavfini oshirishi mumkin.

### **Sog'lom me'yoriy ovqatlanish**

Yog'siz go'sht, sut mahsulotlari, ko'p meva va sabzavotlar, hamda foydali boshhoqlilarni iste'mol qilish. Alkogolni o'rta me'yorda qabul qilish.

### **Oyoq kaftini uqalash**

Uqalash qon aylanishini yaxshilashga yordam beradi, nervlarni ta'sirleydi va og'riqni vaqtincha tinchlantirishi mumkin

### **Oyoq kaftining davomiy qisilishini oldini olish**

Tizzalarni chalishtirish yoki uzoq vaqt tirsaklarni qisilishi, nervlarning yangi zararlanishlariga sabab bo'lishi mumkin. Shu tufayli bu holatlardan ehtiyot bo'lish kerak.

Hamshira, yuqoridagi maslahatlarga rioya qilinganda, uyqu 3-4 hafta mobaynida yaxshilanishi mumkinligini tushuntirishi kerak.

Birinchi 2 hafta davomida uyqu yaxshilanishdan oldin yomonlanishi mumkin, ammo uyquning yaxshilanishi og'riq kuchini susaytirishi va kayfiyatni yaxshilanishiga olib kelishi mumkin.

## **Rolli o'yin**

Akmal aka 64 yoshda, oldin maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan. 3 yildan beri ishlamaydi. Kuniga yarim pochka sigaret chekadi. Spirtli ichimliklar ichish onda-sonda bayramlarda ichadi. Anamnezida bir haftadan beri o'zini yomon his qilgan, qo'l va oyoq panjalari sekin-sekin sanchib og'riq

boshlangan. Qo‘l va oyoq panjalarida sanchish bo‘lishi va sezgirlikni yo‘qolishi, sanchuvchi og‘riq, mushak holsizligidan shikoyat qildi.

**Hamshira taktikasi:**

Hamshiralik tekshiruvlarini o‘tkazish

Hamshira tashxisini qo‘yish va parvarishlash

Maslahat va tavsiyalar berish.

***ASAB TIZIMI PATOLOGIYASIDA SHIFOBAXSH JISMONIY TARBIYA***

ShJT ning vazifalari: - restitutsiya — dastlabki holiga qayta oluvchi shikastlangan strukturalarning tiklanish jaraèni. Restitutsion mexanizmlar asosan membranalarning qo‘zg‘aluvchanligi va o‘tkazuvchanligining tiklanishi, hujayraichi oksidlanish-qaytarilish jaraènining normallashishi va fermentlar tizimi faollashishi tufayli amalga oshadi buning natijasida hujayra strukturalarining bioenergetik va oqsil-sintezlovchi faoliyati normallashadi va asab tolalari va sinapslari bo‘yicha o‘tkazuvchanlik tiklanadi. - regeneratsiya — to‘qimalar spetsifik elementlarining (orqa miya tolalariga nafaqat morfologik regeneratsiya, balki funksional tiklanish ham mosdir; èsh kattalashgan sari regeneratsiyaga bo‘lgan qobiliyat pasayadi; funksional tiklanish ayniqsa homila rivojlanaètgan davrda va erta postnatal davrda yaqqol ifodalangan) o‘sishi va rivojlanishi natijasida shikastlangan to‘qima va a‘zolar butunligining strukturaviy-funksional tiklanishidir. ShJT vositalari: - holat bilan davolash (korreksiya), - DG, - uqalash - uqalash. Holat bilan davolash — bu bemor tanasi va oèq-qo‘llarining maxsus holati bo‘lib, mushak kontrakturalari rivojlanishi va bo‘g‘imlar harakati qotib qolishi oldini oladi, periferik qon aylanishini yaxshilaydi(to‘qimalar trofikasi), bunda bo‘g‘imlar va parezlangan mushaklar optimal o‘rta fiziologik holati ta‘minlanadi, faol harakatlarning erta tiklanishiga olib keladi. Holat bilan davolashning shartli ravishda ikki turi ajratiladi: a) lokal (oèq-qo‘l segmentlari, yaxlit oèq-qo‘llar, mushak guruxlari uchun) va b) umumiy xarakterga ega (tana va yaxlit oèq-qo‘llar uchun). Masalan, oèqlarni davolashda shikastlangan oèqning tashqi tomoni bo‘ylab uzun valik (qum bilan og‘irlashtirilgan paxta-matoli) qo‘yiladi èki sonning tashqi rotatsiyasini cheklash uchun oèq maxsus shinaga joylashtiriladi. Spastiklik èki mushaklar rigidligining oshishi, gipostatik shishlarning mavjudligi, og‘riq, uvishib qolish, harakatning qotib qolishi kabi shikoyatlarning bo‘lishi fiksatsiyaning noto‘g‘riligi hamda vaqt bo‘yicha mushaklarni cho‘zishda dozasi oshirib yuborilganligidan dalolat beradi. Kun davomida bir necha seans bilan holat bilan davolashni jismoniy mashqlar, uqalash

va fizioterapevtik muolajalar bilan almashtirib qo'llash tavsiya etiladi. Davolovchi gimnastika.

Umumquvvatlovchi DG' – parez va ataksiyalarni davolash uchun asoshi tashkil qiladi, bemorni umumiy sog'lomlashtirishga imkon yaratadi. Bemorning uzoq vaqt harakatsizlanganligi, turli vegeto-somatik buzilishlar, premorbid jismoniy shug'ullanishlarning yo'qligi umumquvvatlovchi DG ni tavsiya etishga ko'rsatma bo'lib hisoblanadi. Jismoniy mashqlar shikastlanishning xarakteriga, mushakli tiklanishning intensivligiga va kasallikning darajasiga qarab tanlanadi. Bunda asabmushak apparatining to'laqonli stimulyatorlari sifatida faol harakatlardan foydalanish muhim. Asosiy jismoniy mashqlar: • Saqlangan mushak guruxlari uchun (bemor organizmini umumiy mustahkamlash va paretik muskulaturaga reperkussiv ta'sir maqsadida); • Paretik muskulaturani jalb etish bilan bo'g'imlar funksiyasini saqlash maqsadida passiv harakatlar. Bu mashqlar paretik mushaklarning qisqarishiga va antogonistlarning uzayishiga olib keladi, bu kontrakturalarning oldini olishda ahamiyatga ega; • Sog'lom va shikastlangan o'eq-qo'llarning aktiv harakatlari. Aktiv mashqlarni olib borishni iloji bo'lmaganda paretik muskulaturaning qisqarishiga iroda impulsi yuborish (ideomotor mashqlar) e'ki paretik muskulatura tonusini reflektor oshirish maqsadida sog'lom o'eq-qo'llar mushaklarini taranglashtirishdan (izometrik mashqlar) foydalaniladi; • O'eq-qo'llar og'irligini yengmasdan dastlabki yengillashtirilgan holatlardan elementar aktiv harakatlar; • Vikar ishlovchi muskulaturalar e'ki neyrojarrohlik amaliyotidan so'ng mushaklar ma'lum guruxini qayta tarbiyalash hisobiga o'rin bosuvchi funksiyalarning rivojlanishiga mashqlar; • Suv muhitida aktiv mashqlar; • Erkin aylanma harakatlar bilan kuch ishlatmasdan aktiv mashqlar: a) hamkor (sog'lom o'eq-qo'llar bilan birga); b) hamkor bo'lmagan (alohida paretik mushak guruxlari uchun); • Kuchaytirishni oshirib borish bilan mashqlar; • Harakatlar koordinatsiyasi va tayanch funksiyalarini rivojlantirishga mashqlar; • Ham sog'lom ham paretik o'eq-qo'llarning harakatning maksimal amplitudasini olish uchun optimal dastlabki holatlar.

Parez va paralichlari bo'lgan barcha bemorlarga shikastlanmagan o'eqqo'llarning simmetrik mushaklari uchun mashqlar tavsiya etiladi. I.M.Sechenov bir qo'l mushagining ishlashi boshqa qo'lning ishlash qobiliyatini oshirishini isbot qilgan. Orqa miyada tor anatomofiziologik aloqa tufayli trofik metamer reaksiyalar tananing qaramaqarshi tomonidagi simmetrik uchastkalarda ham namo'èn bo'ladi.

Maxsus DG – buzilgan harakat funksiyalarni tiklash (harakatga solish) va yo'qotilganlarni kompensatsiya qilish (o'rnini bosish) bo'yicha turli jismoniy mashqlardan foydalanishni ko'zda tutadi. DG metodikasida quyidagilarni ko'zda

tutmoq zarur: • Birinchi navbatda bemorlar mushaklarni faol bo'shashtirishning maxsus ko'nikmalariga o'rgatilishi lozim (avval sog'lom, so'ngra paretik mushaklarni bo'shashtirish); antogonistik mushaklar boshqalarga qaraganda bo'shashishga oson chalinadi, chunki bu yerda qarama-qarshi guruxdagi mushaklarning taranglashishi vaqtida mushak faolligining fiziologik retsiyolik kamayishi erdamga keladi (masalan, yelka ikki boshli mushagining erkin taranglashishida uning antogonisti - uch boshli mushakning yetarli darajada bo'shashishiga oson erishiladi); so'ngra bemor mushak guruxlari va alohida mushaklarni sekin-asta uning kuchini oshirish bilan dozalash va differensiyali zo'raytirishga qodir bo'lgan mashqlar guruxiga o'tiladi; bir vaqtning o'zida alohida mushak guruxlarini differensiyalangan zo'rayishga bo'lgan qobiliyatni tiklash va harakatlar maplitudasining differensirovkasi o'tkaziladi. Bu guruxdagi mashqlar uch bo'limdan iborat (V.L.Naydin): a) differensiyalangan bo'shashish analogiyasi bo'yicha reedukatsiya o'tkaziladi, so'ngra mushak guruxlarinig ham izometrik, ham izotonik tartibda bo'g'imlarda mos harakatlar bilan faol taranglashishi o'tkaziladi; bunda harakatning tekisligi qat'iy tanlanadi va harakatning yengillashtirish usullariga rioya qilinadi, bunda aktiv mashqlar bemorning harakat imkoniyatlariga adekvat bo'lishi lozim. Taranglashtirish mushaklarni bo'shashtirish bilan almashtirib turiladi; b) bemorlar metodist tayinlangan passiv holatda shug'ullanadilar. Dastavval ular faqat ko'chishning qo'pol parametrlarini aniqlaydilar – yuqoriga, pastga, atrofga; so'ngra amplitudaning to'liqligi aniqlanadi; v) parezlangan o'eq-qo'l segmentining tayinlangan amplitudani erkin bajarish bilan aktiv harakatlar kiritiladi; bunda shuni e'dda tutish kerakki, erkin harakat xajmi qanchalik bu bo'g'im uchun imkon darajasiga yaqinlashsa, bunday harakatning aniqligi shunchali kamayadi; • Mushaklar kuchlanishining nozik dozirovkasi, harakatlar amplitudasini differensiyalash, minimal zo'raytirishni vaqtinchalik factorsiz va birinchi navbatda harakatning optimal tezligini hisobga olmasdan amalga oshirib bo'lmaydi, shuning uchun bemorlar o'z harakatlarining vaqtinchalik parametrlarni baholashga, harakat akti tezligini uni bajarishning turli bosqichlarida erkin o'zgartirishga o'rganadilar; • Oddiy hamkor harakatlarni tiklash. Kompleks harakatlar barcha uch o'qlar bo'yicha bajariladi: buqilish va rostlanish, olib kelish va orqaga qaytarish, ikki asosiy diagonal tekislik bo'yicha turli kombinatsiyalarda ichki va tashqi tomonga aylantirish. Boshga tomon yo'nalish bo'yicha harakat - buqilish (elka va tos-son bo'g'imida harakatlar xarakteri bo'yicha), pastga va boshdan orqaga harakat - rostlanish, o'rta chiziqqa – olib kelish, o'rta chiziqdan – orqaga qaytarish deb hisoblanadi.

### ***DAVOLOVCHI UQALASH***

Uqalash (uqalash) to'qimalarda qon – va limfa aylanishining tiklanishiga olib keladi, mushaklar qo'zg'aluvchanligini yaxshilaydi, asabmushak hosilalarning iroda impulslarini qabul qilishga tayèrligini yaratadi. Ma'lum darajada uqalash mushak tonusini normallashtiradi, boshlanaètgan kontrakturalarda uni pasaytiradi èki paretik mushaklarda tonusini oshiradi. Klinik amaliètnda reflektor (nuqtali) va klassik uqalash, kasallikning klinik kartinasiga qarab - tormozli èki stimulyatsiya qiluvchi usul qo'llaniladi. Davolovchi uqalashda tormozli (tinchlantiruvchi) va tonuslovchi (stimulyatsiyalovchi) usullar farqlanadi, ularning realizatsiyasiga uqalashning ma'lum ko'nikmalari bilan, bajarilishining tezligi va yo'nalishi bilan erishiladi. Tonuslovchi effekt sust va yuzaki ta'sirda va uni tez bajarganda yuzaga keladi. Katta intensiv va sekin harakat tormozlash maqsadida qo'llaniladi. Nuqtali uqalashda tormozli ta'sir o'tkazish ga silliq aylanma sillash sekin-asta stabil ezg'ilash va keyin ezg'ilashda barmoqlarni uzmasdan - uzluksizga o'tish bilan erishiladi. Mahkam ushlab olish va uzluksiz vibratsiya bilan uqalash sedativ effektga ega. Stimulyatsiyalovchi usulda impulsi, shu bilan birga aylantirish, shapillatib urish èki vibratsiya yo'li bilan yuzaki va qisqa vaqtli (23soniya, keyin barmoqni teridan uzish bilan) ta'sir o'tkaziladi. Uqalash metodikasi nevrologik sindromlarning asosiy tiplariga qarab tanlanadi. Birinchisiga asab-mushak strukturalarining irritatsiya belgilarining ustun turishi bilan sindromlar kiradi; mushak tonusining oshishi, pay va periostal reflekslarning kuchayishi, og'riqlar, giperesteziyalar, paresteziyalar va boshqa vegetativ buzilishlar. Uqalash bilan davolash tormozlovchi, tinchlantiruvchi xarakterga ega. Ikkinchi tipdagi

sindromlarda periferik nervlar bo'yicha nerv impulslari o'tkazuvchanligining èmonlashishi bilan chaqirilgan asab-mushaklarning tushib qolishi holatlari ustunlik qiladi (mushaklarning sustligi va atrofiyasi, umumiy mushak tonusining pasayishi, teri trofikasining buzilishi va sh.o'). davolash stimulyatsiyalovchi xarakterga ega. Nuqtali va klassik uqalashni ham davolash kursida, ham bir muolajada qo'shib olib borish maqsadga muvofiq, bunda ikkala uqalash turining metodikasi bir tomonlama yo'naltirilgan bo'lishi lozim: ya'ni, è tormozlovchi, èki stimulyatsiyalovchi.

### ***BOSH MIYA TOMIRLARINING SHIKASTLANISHIDA QO'LLANILADIGAN REABILITATSIYA.***

Insuldda rehabilitatsiya 4 bosqichda olib boriladi. Tiklantiruvchi davolash. I-bosqich. Vazifalari: 1 - organizmning umumiy tonusini oshirish; 2 - faol harakatlarni ishlab chiqarish; 3 - kontraktura va ankilozlarning oldini olish; 4 - nafas va yurak-tomir tizimi funksiyalarini yaxshilash; 5 - ètoq yaralar profilaktikasi; 6 - harakat ko'nikmalarini kompensatsiya qilish. Rehabilitatsiya jaraènida davolovchi uqalash,

passiv mashqlar, bo'shashtiruvchi faol mashqlar, o'z-o'ziga xizmat qilish bo'yicha mashqlar qo'llaniladi. Qat'iy nazoratga olingan dozali zo'riqishlar qo'llash talab etiladi, bemorning charchab qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Harakatlar amplitudasi oldin kichik, keyin esa sekin-asta oshiriladi. Mashqlar vaqtida nafas olish ravon bo'lishi kerak, nafashing tutilib qolishi, kuchanishni inkor qilish kerak. Uqalash miyaning o'tkir holati pasaygandan keyin 4-6 kunga tavsiya etiladi, oldin 5-7 daqiqa, sekin-asta vaqti 10 daqiqaga uzaytiriladi. Uqalash oldin silash, keyin esa yengil uqalash bilan olib boriladi. Insultdan keyingi fizik reabilitatsiyaning II – III – bosqichi poliklinikada èki reabilitatsiya markazida olib boriladi. Bosqichning vazifalari: - adaptatsion va kompensator jaraenlarini stimulyatsiya qilish; - bemorning faolligini oshirish; - o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini mashq qildirish; - buzilgan funksiyalarni tiklash; - kasbiy orientatsiya. Davolovchi jismoniy mashq usullari: - yurish; - autogen mashqlar; - uqalash; - mehnat terapiyasi; - gidrokinezoterapiya. Sanator-kurort davo (IV – bosqich). Bu bosqich insult o'tkazgan bemorlarda tiklantiruvchi davo tizimida muhim zveno hisoblanadi. Vazifalari: - reabilitatsiya markazida erishilgan ijobiy siljishlarni mustahkamlash; - kasallikning asoratlarini yo'qotish (parez, paralich, nutqning buzilishi); - miyada qon aylanishi buzilishining qaytalanishini oldini olish; - bemorning jismoniy va ruhiy faolligini oshirish; - organizmning adaptatsion qobiliyatlarini oshirish, ya'ni mehnat faoliyati va o'z-o'ziga xizmat qilish. Bu vazifalarni bajarish uchun kurortning klimatik faktorlari, balneoterapiya, balchiq bilan davolash, turli fizik faktorlar, uqalash, davolovchi gimnastika, psixoterapiyadan foydalanish mumkin.

### ***BOSH MIYA TOMIR KASALLIKLARIDA DAVOLOVCHI UQALASH***

Boshning soch qismi va èqa zonasi, parezlangan oèq-qo'llar bemor o'tirgan holatda uqalash qilinadi, sekin tempda. Muolaja davomiyligi 15 daqiqagacha. Asosan yengil silash, ezg'ilash, uzluksiz vibratsiya usullari qo'llaniladi. Yoqa zonasi orqani uqalash qilish bilan almashtirib turiladi. Davolash kursi 20 muolaja. ***QARSHI KO'RSATMALAR*** O'tkir infeksiya va psixik kasalliklar, o'tkir davrdagi qon kasalliklari, xavfli o'smalar, harakat buzilishi bilan kechuvchi kasalliklar èki holatlar, tos organlari funksiyalarining buzilishi, nutqning buzilishi, dipressiya holati. ***ENSEFALITDA DAVOLOVCHI UQALASH*** Suvosti uqalashi. Muolaja suv 1,5-2 atm bosim ostida shlangadan yuborish bilan bajariladi. Suv harorati 36-37°S. Davomiyligi 15-20 daqiqa, har kuni èki kun ora. Davo kursi - 10-15 muolaja. ***QARSHI KO'RSATMALAR*** Kasallikning o'tkir davrida, harakatning buzilishi (paralich), tos a'zolari funksiyalari buzilishi. ***YUZ NERVI NEVRALGIYASIDA DAVOLOVCHI UQALASH*** Kerakli yuz sohasi va èqa sohasiga uqalash qilinadi. Seans davomiyligi 15-20 daqiqa, har kuni èki kun ora. Kurs - 10-15 muolaja. ***QARSHI KO'RSATMALAR*** Bosh miya nervlari jarohati va kasalliklarining o'tkir davri.

## **Adabiyotlar.**

1. «Professionalnye bolezni» V.G.Artomonova, N.N.Shatalov

2. Asosiy yuqimsiz kasalliklar bo'yicha klinik protokollari SST

Takomillashtirish (salomatlik-3) loyixasi Toshkent-2017 yil 131-143bet

## **Rolli o'yin**

Akmal aka 64 yoshda, oldin maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan. 3 yildan beri ishlamaydi. Kuniga yarim pochka sigaret chekadi. Spirtli ichimliklar ichish onda-sonda bayramlarda ichadi. Anamnezida bir haftadan beri o'zini yomon his qilgan, qo'l va oyoq panjalari sekin-sekin sanchib og'riq boshlangan. Qo'l va oyoq panjalarida sanchish bo'lishi va sezgirlikni yo'qolishi, sanchuvchi og'riq, mushak holsizligidan shikoyat qildi.

### **Hamshira taktikasi:**

Hamshiralik tekshiruvlarini o'tkazish

Hamshira tashxisini qo'yish va parvarishlash

Maslahat va tavsiyalar berish.

<b>2.9.O'quv moduliga ajratilgan soat 2.</b>	<b>Temir tanqisligi anemiyasida diagnostika va hashiralik parvarishi. Gematologik bemorlarni reabilitatsiya qilish usullari</b>
--	---

### **Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg'ulot</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	1. Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklarida hamshira parvarishi 2. Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklarda bemorlarni tekshiruv usullariga tayyorlash.

	<p>3. Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklarda bemorlarga tavsiyalar berish.</p> <p>4. Sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish.</p>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<p><b>Pedagogik vazifalar</b>  Gemotologik kasalliklar, anemiya turlari, kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, bemorlar parvarishi.  Gemorragik diatez turlari, kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, bemorlarni parvarishlash. Qon yaratish a'zolari kasalliklarini zamonaviy laborator tekshirish usullari. Bemorlarga to'g'ri ovqatlanish, kun tartibini to'g'ri tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar berish.  Anemiya turlari, kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, bemorlar parvarishi. Gemorragik diatez turlari, kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, bemorlarni parvarishlash. Qon yaratish a'zolari kasalliklarini zamonaviy laborator tekshirish usullari.</p>	<p><b>O'quv faoliyatini natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• anemiya turlarini;</li> <li>• anemiyani kelib chiqishini;</li> <li>• gemorragik diatez turlarini;</li> <li>• leykozlarni kechishini;</li> <li>• gemofiliya kasalligini kechishini;</li> <li>• qon yaratish a'zolari kasalliklarini zamonaviy laborator tekshirish usullarini.</li> <li>• Bemor holatini muntazam monitoring qilish</li> <li>• Infeksiyadan himoya: aseptika va antiseptika qoidalari</li> </ul>
<p>O'qitish metodlari</p>	<p>“To'g'ri tashxisni top”  “Reabilitatsiya zanjiri”usullari bilan ishlash</p>
<p>O'quv faoliyatini tashkil etish</p>	<p>Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli</p>
<p>O'qitish vositalari</p>	<p>Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar</p>
<p>Qayta aloqaning usul va vazifalari</p>	<p>Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma</p>

so'rov test, misol, va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b></p>	<p><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar, yozib oladilar</p>
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga "To'g'ri tashxisni top" metodini qo'llash orqali mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar "Reabilitatsiya zanjiri" sxemasi bo'yicha tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi</p>
<b>3-bosqich</b>	Dars xulosalanib, aktiv	Tinglaydilar,

<p><b>Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Temir tanqisligi anemiyasida diagnostika va hashiralik parvarishi. Gematologik bemorlarni reabilitatsiya qilish usullari mavzuni o'qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>49.A. Gadayev Ichki kasalliklar Toshkent-2022y;</p> <p>50.A. Gadayev, M. Ziyaeva, R.To'raqulov Terapiya o'quv qo'llanma Toshkent-2022y</p> <p>51.B.N.Turaqulov, L.X. Musadjonova, X.A. Raxmatov Terapiyada hamshiralik parvarishi o'quv qo'llanma Navoiy nashriyoti-2019 yil.</p>	<p>uyga vazifani belgilab oladilar</p>
--------------------------------	--	--

**Mavzu: Temir tanqisligi anemiyasida diagnostika va hashiralik parvarishi.  
Gematologik bemorlarni reabilitatsiya qilish usullari**

**Reja:**

1. Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklarida hamshira parvarishi
2. Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklarda bemorlarni tekshiruv usullariga tayyorlash.
3. Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklarda bemorlarga tavsiyalar berish.
4. Sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish.

**QON SISTEMASI KASALLIKLARINING ASOSIY**

## **SIMPTOMLARI.**

Qon va qon yaratuvchi a'zolar kasalliklarining spetsifik simptomlari yuk, kasalliklar bilan boglagan xolda, ya'ni kasallikni kism-larga bulingan xolda tekshirib kurilganda aniklanadi. Klinik tekshirishlarda aniklanadigan simptomlarga kuyidagilar kiradi:

Lanjlik (yoki bushashish), tez charchash, xansirash, kamqonlik kasalligi («anemiya» qon tarkibida eritrotsitlar mikdorining kamayishi) kurinishlari yoki gemoblastozda (utkir va surunkali) leykotsitlarning zur berib parchalanishi natijasida kelib chikadigan intoksikatsiya klinik belgilari bulishi mumkin.

Tana xaroratiniig kutarilishi (isitma) sezilarsiz yoki sezilarli bulishi mumkin (utkir va surunkali leykozda, juda kup mikdorda leykotsitlarning parchalanishi). Leykotsitlar yadrosidagi purin moddalarining kup mikdorda ajralishi, pirogensimon ta'sir natijasida kelib chikadi. Isitma yana utkir gemoblastozda va surunkali gemoblastozning terminal boskichida xam bulishi mumkin.

Terida kichishishlar-gemoblastozning bir kancha turlarida (eritre-miya, limfogramulematozda) aniklanadi

Bir necha turdagi qon ketishlarning kuchayishi, mayda toshmalarsimon teriga qon kuyilishi, kup qon yukotish yoki qon ketish kuzatiladi (burundan, bachadondan, me'da-ichak yulidan, upkadan va b.). Kupincha bu xolat qon tarkibidagi trombositlar mikdori va bir kancha qon ivishida ishtirok etuvchi oksil moddalarining kamayishi xamda mayda qon tomirlar devorining buzilishi evaziga kelib chikadi.

Chap kovurga ostidagi ogriklar-talok xajmining kattalashishi va kapsulasining taranglashishi natijasida kuzatiladi. Utkir ogrik talokning biror qon tomirining trombozi sababli, talok infarkti kelib chikishi klinikasiga xosdir. Keyinchalik talok usti soxasida korin parda tebranishining shovkini eshitiladi.

Teri va shillik pardalar rangining okarishi - periferik qon tarkibida eritrotsitlar mikdorining kamayishi belgisi. Mayda qon tomirlar kiskarishi natijasida xam bulishi mumkin.

Teri, sochda, tirnoklardagi trofik uzgarishlar - (sochlar tukilishi, tirnoklarning oson sinadigan bulib kolishi, tirnoklardagi teri-larning yupkalashishi). Organizmda temir saklovchi fermentlar yegishmovchiligi belgisidir.

Suyaklardagi ogrik - gemoblastoz kasalligida suyak kumigi kismi usishi (giperplaziya) natijasida aniklanadi.

## **Anemiyalar.**

Anemiyalar eng ko‘p uchraydigan kasallikdir, bunda gemoglobin va eritrotsitlar kamayadi. Anemiya - ko‘p qon yo‘qotish(qon ketganda), qizil suyak ko‘migi funksiyasining pasayishi, organizmga qon yaratilishi jarayonlari uchun zarur moddalar, xususan sianokobalamin yoki temiretishmovchiligi, shuningdek suyak ko‘migiga infeksiyon toksik ta’sir oqibatida yuzaga keladi. Qonning rang ko‘rsatkichi bo‘yicha gipoxrom va giperxrom anemiyalar farqlanadi.

**Parvarishlash va davolash.** Kasallikni davolashda avval uni sababini aniqlash va so‘ngra davolash lozim. Ushbu kasallikda to‘la ratsional ovqatlanish tavsiya etiladi, temir preparatlari, vitaminlar, ayniqsa V12, qon va qon preparatlari buyuriladi. Gemolitik anemiyada sababi qon yaratilish anamaliyasi bo‘lsa taloq olib tashlanadi.

### 9.3. Temir yetishmasligidan paydo bo‘ladigan anemiya (temir tanqisligi anemiyasi)

Temir organizmning hayot faoliyatida muhim rol o‘ynaydi: u eritrotsitlar tarkibidagi gemoglobinning tuzilishi uchun zarur, chunki gemoglobin o‘pkadan to‘qimalarga kislorod yetkazib beradi. Temir yetishmaganda hazm bezlari, nerv sistemasi, muskul apparatining ham funksiyasi buziladi.

Etiologiyasi. Bu kasallikni kelib chiqishiga qon yo‘qotish sabab bo‘ladi. Oz-ozdan uzoq vaqt qon ketib turganda: bavo sir, me‘da va o‘n ikki barmoqli ichak yarasi kasalligida; hayz qoni uzoq muddat va ko‘p ketadigan ayollarda; anemiya paydo bo‘lishida bot-bot homilador bo‘lish, uzoq vaqt bola emizish katta rol o‘ynaydi. Chunki homiladorlik va emizikli davrida ona organizmidagi temir zaxirasining bir qismi bolaga o‘tib ketadi; vaqtida ovqatlanmaslik, noto‘g‘ri ovqatlanish, o‘zida temir tutadigan ovqatlarni kam iste‘mol qilish; me‘da shirasida kislotalarning kamayib qolganligi munosabati bilan temirni o‘zlashtirish buziladi. Chunki me‘da shirasida kislotalarning kamayishi me‘da-ichak yo‘lida so‘rilish funksiyasining buzilishiga olib keladi.

Klinikasi. katta yoshdagi odam uchun massasining har bir kilogramiga 0,001—0,002 g temir talab etiladi.

Temir tanqisligidagi anemiyalar jumlasiga:

- 1) yuvenil xloroz (o‘smirlar xlorozi);
- 2) kechki xloroz;
- 3) axlorgidrik (gastrogen) anemiya kiradi.

Yuvenil yoki ilk xloroz (rangparlik kasalligi) — umumiy darmonsizlik, nafasning qiyinlashib va tezlashib qolishi, ishtaha yo‘qligi, bemorlar bo‘r, ohak yeydigan bo‘lib qolishadi. Yuz terisi zaxil tortib, teri tiniq tortib qoladi. Qonda gemoglobin pasayib ketadi. kechki xloroz, 35—45

yoshlardagi ayollarda uchraydi, baʼzan klimaks boshlanishi oldidan koʻriladi. Taʼm va hid bilish buzilishi, disfagiya, sochlarning toʻkilib ketishi, tirnoqlarning moʻrt boʻlib

qolishi koʻriladi.

Qonda rang koʻrsatkichining keskin pasayib ketishi gipoxrom anemiya, eritrotsitlarda degenerativ oʻzgarishlar borligi bilan taʼriflanadi.

Axlorgidrik (gastrogen) anemiyada, darmonsizlik, oyoq- qoʻllarning uvushishi, chumoli yurgandek boʻlib sezilishi bezovta qiladi. Ishtaha pastligi, koʻngil aynishi, kekirish, baʼzan qayt qilishdan noliydilar. koʻpincha til achishgandek boʻlib tuyuladi. Boshi ogʻriydi, yurak oʻynashi kuzatiladi.

DAUOLASH UA profilaktikasi. Diyetoterapiya: oqsil, uglevod, yogʻ, vitaminlarga boy ovqatlar beriladi. Ovqat tarkibida jigar, goʻsht, tuxum va tarkibida temir moddasi koʻp boʻlgan ovqatlarni isteʼmol qilish lozim.

Tarkibida temir bor preparatlar: feramid, ferrokal, ferbitol, ferroleks, ferroseron, fitoferrolaktol, ferrumlek beriladi. B<sub>1</sub>, B<sub>12</sub>, B<sub>2</sub> va C vitaminlari tavsiya qilinadi.

Shifokor koʻrsatmasiga binoan, kunora qon, qon oʻrnini bosuvchi eritmalar quyiladi. Glukozani 5 % li eritmasidan 400 ml, 40 % li eritmasidan 20 ml tomir ichiga yuboriladi.

### **ritamini (folat kislota) yetishmasligidan kelib chiqadigan anemiya (Addison-Birmer kasalligi)**

Odatda, bu kasallik bilan 35—40 yoshdagi, kamdan kam hol- larda 22—27 yoshdagi odamlar xastalanadi. Xastalik birinchi marta 1855-yilda Addison va 1888-yilda Birmer tomonidan tasvir- langan.

B<sub>12</sub> vitamini yoki folat kislota yetishmasligi oqibatida kelib chi- qadi.

Addison-Birmer kasalligi surunkali kasallik boʻlib, tobora

zoʻrayib boradigan kamqonlik, meʼda axiliyasi va nerv sistemasining shikastlanishi bilan xarakterlanadi.

Etiologiyasi. Meʼda tubining maxsus bezlaridan gastromu- koprotein ishlanib chiqishi toʻxtab qolganda, meʼda shilliq pardasi atrofiyaga uchraganda, meʼdada polipoz, oʻsma paydo boʻlganida. Meʼda jarrohlik usuli bilan qisman olib tashlanganda. Ichakda B<sub>12</sub> vitaminining soʻrilishi buzilganda. Homiladorlikda organizmda vitamin sarfi kuchayganida kasallik paydo boʻladi.

Meʼda tubining maxsus bezlari tomonidan ishlab chiqariladigan gastromukoprotein hamda tashqaridan tushgan B<sub>12</sub> vitamini bilan beqaror birikma hosil qiladi. B<sub>12</sub> vitamini ichak devori orqali qonga

oʻtib plazma oqsili bilan birikadi. U B<sub>12</sub>— protein kompleksi koʻri- nishida jigarga yigʻiladi, u yerda bir qancha vaqtgacha tutilib qoladi. B<sub>12</sub> vitamini jigardan qonga oʻtib, koʻmikka qon yaratilishini tartibga soluvchi sifatida


ta'sir etadi.

Klinikasi. kasallik zimdan boshlanadi. Bemorlar darmonsizlik, tez charchash, bosh aylanishi, nafas qisishi, yurak urishi, yurak sohasida og'riq, tana haroratining ko'tarilishi, ovqat yeyish vaqtida tilning achishib og'rishi, ba'zan oyoqlarda shish, barmoq uchlarining uvushib qolishi va ularda chumoli yurayotgandek sezgi paydo bo'lishi, qo'l panjasi, oyoq panjasining sanchib turishidan shikoyat qilishadi.

Ba'zida kekirish, ko'ngil aynishi, ich ketishi kuzatiladi. Nerv sistemasiga taalluqli o'zgarishlar — paresteziyalar (bemorlar yurganda gandaraklaydilar) sodir bo'ladi. Nerv yo'llari bo'ylab og'riq bo'ladi, chanoq organlari funksiyasining buzilishi ko'riladi. Yurak-qon tomirlar sistemasida puls tezlashishi, yurak tovushlarining sustlashishi, uchida yurak asosida va uch tavaqali klapan

sohasida sistolik shovqin eshikladi. Til to'q qizil rangli, sugonlari bo'rtgan, kechki bosqichlarida u silliqlashgan, burmalari, sugonlari yo'qolib, go'yo yaltirab turadi (Gunter glossiti) (38-rasm).

Laboratoriya tahlili. Eritrotsitlar miqdori gemoglobindan ko'ra ko'proq kamaygan, rang ko'rsatkichi birdan ortiq—1,8 ga



yetadi. Qonda makro va megalotsitlar, megaloblastlar va eritroblastlar bo'lishi kasallikning muhim alomatidir. Leykopeniya — leykotsitlar miqdori kamaygan  $1 \text{ mm}^3$  da 3000—7000 gacha, neytropeniya, limfositoz kuzatiladi: eozinofillar va monotsitlar soni kamaygan. Qonda bilirubin miqdori ko'paygan, natijada sterkobilin ko'p bo'ladi.

DAUOLASH VA profilaktikasi. Diyetoterapiya qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Bemorga har kuni 200 g dan jigar beriladi (jigar dimlamasi), kuniga 120—140 g qaynatilgan mol yoki qo'y go'shti buyuriladi. Bundan tashqari, yangi mevalar, sabzavotlar iste'mol qilish tavsiya etiladi.

Shifokor ko'rsatmasiga binoan, C, B<sub>12</sub> vitaminlari, folat kislota, kampilon, gepalon, ferramid buyuriladi. Bemorlarga kunora 200 ml qon quyiladi, qon o'rnini bosuvchi preparatlardan tavsiya etiladi. Glukozani 5 % li eritmasidan 400 ml, 40 % li eritmasidan 20 ml tomir ichiga yuboriladi.

## Gemolitik anemiya

Gemolitik anemiya eritrotsitlarning ortiqcha yemirilib turishi bilan xarakterlanadi. Fiziologik sharoitlarda eritrotsitlarning yashash davri 100—120 kunningi tashkil qiladi, anemiyada 14—16 kunga qisqaradi. Organizmda autoantitelolar paydo bo'lishi natijasida yoki xastalikdan eritrotsitlar tug'ma nuqsoni borligi tufayli parchalanadi. Etiologiya: turli xil yuqumli kasalliklardan keyin (sepsis, malyariya); turli xil dorilarni organizmga

salbiy ta'siri (sulfanilamid preparatlari, Bertolle tuzi); yovvoyi qo'ziqorindan zaharlanish; ilon va kuchli zaharli gazandalar chaqishi; tug'ma kasalliklar. Kasallik asosida kamqonlik va sariqlik yotadi. Sariqlik eritrotsitlarning yemirilishi natijasida paydo bo'ladi (gemolitik sariqlik).

Bilirubin qondan jigar hujayralari tomonidan ushlanadi va o't qopchasiga, so'ng o't chiqaruvchi yo'llarga boradi. Bilirubini ko'p bo'lgan o't ichaklarga tushadi, bu yerda ichak bakteriyalari ta'sirida bilirubindan urobilinogen hosil bo'ladi: bu esa najas va siydikni to'q jigarrangga bo'yaydigan sterkobilinga aylanadi. Urobilinogenning talay qismi ichakdan qonga so'riladi va darvoza venasi orqali yana jigarga keladi; qisman kupfer hujayralari tomonidan ushlab olinib, bilirubinga aylanadi, boshqa qismi esa yana umumiy qon oqimiga tushadi va buyraklar tomonidan siydik bilan urobilin ko'rinishida ajratiladi.

### **Leykozlar.**

Leykozlar yoki gemoblastozlar - qon yaratuvchi to'qimalarning o'sma kasalligi hisoblanadi. Leykozlarning 2 ta asosiy turlari farqlanadi;

1. Leykozlar - asosan suyak ko'migining birlamchi o'sma kasalliklari bilan kechuvchi kasalliklar.

2. Limfomalar - suyak ko'migidan tashqari qon yaratuvchi va limfa to'qimalarining birlamchi o'sma kasalligidir.

Kasallikning asosiy sabablari xromasomalardagi o'zgarishlar bo'lib, radiatsiya, ximiyaviy omillar, onkoviruslar ta'sirida rivojlanadi. Leykozda suyak ko'migi, taloq, limfa tugunlari zararlanadi. Periferik qonda ko'p miqdorda yetilmagan leykotsitlar bo'ladi. Leykotsitlarning umumiy miqdori kamaymaydi, ular sifat jihatidan o'zgaradi. Jigar va taloq kattalashadi.

**Parvarishlash va davolash.** Ratsional parhez, temir preparatlari, vitaminlar, qon va qon preparatlari, gormonlar, immunitet oshiruvchilar buyuriladi. Surunkali leykozlarda limfa tugunlari va taloq rentgen nuri bilan nurlantiriladi, kimyoterapevtik preparatlar qo'llaniladi. Bemorlarni qunt bilan parvarishlash lozim, ularga qulay sharoit yaratish, og'iz bo'shlig'ini nam tampon bilan artish, og'izni tez-tez chayib turish, yotoq yaralarning oldini olish nihoyatda muhim.

### **Gemorragik diatez, Verlgof kasalligi, gemofiliya.**

Bu kasalliklarning asosiy belgisi qon sistemasida qon ivish mexanizmi buzilganligi va qonning oquvchanligi oshganligi bilan bog'liq bo'lgan

kasalliklardir. Verlgof kasalligida(trombotsitopenik purpura) qonda trobotsitlar kamayadi. Gemofiliya bilan asosan erkaklar kasallanadi. Bu irsiy kasallikdir.

**Parvarishlash va davolash.** Ratsional parxez, temir preparatlari, vitaminlar, qon va qon preparatlari, gormonlar, immunitet oshiruvchilar, askarbonat kislata, kalsiy xlorid, fibrinogen, aminakapron kislata buyuriladi. Verlgof kasalligida og'ir hollarda taloq olib tashlanadi, kasallik og'ir kechadi, ko'p qon yo'qotish oqibatida yuz bergan anemiya, falajlar bilan o'tadigan pernitsioz anemiya, gemolitik kriz, nekrotik angina va gipoplastik anemiyalardagi boshqa asoratlarda, o'tkir leykoz, gemofiliya va bemorlarning ahvoli og'ir bo'lganda pavarish qilish ayniqsa muhim. Davolashning ta'siri ko'p jihatdan hamshiraning parvarishiga bog'liq. Bunda bemorlarga ovqatlanishda yordamlashish, yotoq yaralarini oldini olish, og'riq qoldirishga xarakat qilish, o'z vaqtida bog'lamlarni almashtirish kabi vazifalarni bajarish hamshiradan talab etiladi.

### **Tibbiy atamalar**

**1.Anemiya**-gemoglobinning kamayib ketishi

**2.Atsidoz**-qon, limfa va to'qimalararo suyuqlik muhitini kislotali tomonga siljishi.

**3.Leykoz**-suyak kumigini zararlantiradigan usmalarning umumiy nomi

**4.Gemolitik anemiya**-eritrotsitlar gemolizga uchraydi

**5.EChT**-eritrotsitlarning chuchish tezligi

**6.Trombotsitopenik purpura**-qonda trombotsitlar yetishmovchiligi

**7.Gemoragik diatez**-o'z-o'zidan qon oqishi

**8.Gemoragik vaskulit**-mayda tomirlar zararlanishi

**9.Gemofiliya**-qon ivish xususiyatini buzilishi

**10.Leykopeniya**-qonda leykotsitlar sonini kamayib ketishi

### **Nazorat savollari**

1. Temir tanqisligi anemiyasi rivojlanishining asosiy sabablari nimalardan iborat?

2. Temir tanqisligi anemiyasining asosiy klinik belgilarini sanab bering.
3. Umumiy qon tahlilida qanday o'zgarishlar kuzatiladi?
4. Gemoglobin va eritrotsitlar ko'rsatkichlari qanday o'zgaradi?
5. Ferritin va zardob temir miqdori diagnostikada qanday ahamiyatga ega?
6. Temir tanqisligi anemiyasini boshqa anemiyalardan qanday farqlash mumkin?
7. Og'iz orqali beriladigan temir preparatlarini qabul qilish qoidalari qanday?
8. Parenteral temir preparatlari qachon qo'llanadi?
9. Hamshiralik parvarishida qanday muammolar aniqlanishi mumkin?
10. Gematologik bemorlarni rehabilitatsiya qilishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
11. Temirga boy mahsulotlarni sanab bering.
12. Anemiya profilaktikasi qanday olib boriladi?

### **“To'g'ri tashxisni top”**

**Maqsad:** Talabalarda laborator ko'rsatkichlarni tahlil qilish va tashxis qo'yish ko'nikmasini rivojlantirish.

#### **O'yin tartibi:**

Guruh 2–3 jamoaga bo'linadi. Har bir jamoaga bemorning qisqa klinik holati va laborator natijalari beriladi. Ular quyidagilarni aniqlashi kerak:

- Tashxis
- Qo'shimcha tekshiruv
- Hamshiralik parvarishi rejasi

#### **Vaziyat namunasi:**

Bemor holsizlanish, bosh aylanishi, tirnoq mo'rtligi, teri oqarishi bilan murojaat qilgan. Gemoglobin past, rang ko'rsatkichi kamaygan, ferritin past.

Talabalar:

- Tashxis qo'yadi
- Davolash yo'nalishini aytadi
- Parvarish choralari belgilaydi

Eng tez va to'g'ri javob bergan jamoa g'olib bo'ladi.

### **“Reabilitatsiya zanjiri”**

**Maqsad:** Gematologik bemorlarni kompleks rehabilitatsiya qilishni o'rgatish.

#### **O'yin tartibi:**

O'qituvchi aralash tarzda yozilgan kartochkalarni tarqatadi. Kartochkalarda quyidagilar yozilgan bo'ladi:

- Parhez
- Dori terapiyasi
- Jismoniy faollik
- Psixologik yordam
- Nazorat tekshiruvlari
- Profilaktika

Talabalar ushbu bosqichlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirib, gematologik bemor uchun reabilitatsiya dasturini tuzadilar.

So‘ng har bir guruh o‘z rejasini himoya qiladi va muhokama qilinadi.

### **Test savollari**

#### **1. Vitamin V12 yetishmovchiligi anemiyasini davolashda qo‘llaniladi?**

- 1.\*sianokobolin, V, S gurux vitaminlar, folat kislotasi;
- 2.ferrum lek, askorbin kislotasi;
- 3.vikasol, ferrum lek, gormonlar, folat kislotasi;
- 4.V,S, gurux vitaminlari, sitostatiklar, antibiotiklar

#### **2. Leykotsitlar funksiyasi?**

- 1.\*ximoya, antitoksik
- 2.organ va to‘kimalarga kislorod tashish
- 3.fermentlar xosil bo‘lishida ishtirok etish
- 4.karbonat angidridni tuqimalardan qonga o‘tkazish;

#### **3. Eritrotsitlarni funksiyasi?**

- 1.\*tana a‘zolari va tukimalarga kislorod
- 2.gemostaz va xujayra immunitetida
- 3.ferment xosil bo‘lishida ishtirok etish;
- 4.immun va allergik jarayonlarida qatnashish

#### **4. Temir yetishmovchiligi anemiyasini asosiy sababi?**

- 1.\*organizm temir moddasini kup sarflashi
- 2.gijjalar invaziyasi;

3.vitaminlar yetishmovchiligi;

4.tashqi ichki faktori sekretsiyasini buzilishi

### **5. Temir yetishmovchiligi anemiyasi teri qoplamalari**

1.terini oqimtir bo'lishi, shilliq qavatlarni ko'kimgtir bo'lishi;

2.terini oqish va ko'kimgtir tusda bo'lishi;

3.terini oqish-sarg'imgtir tusda bo'lishi;

4.teri sarg'aygan

### **6. Addison-Birmer anemiyasiga qaysi ko'rsatkich xos?**

1.giperxrom

2.normoxrom;

3.gipoxrom;

4.normaxrom, gipoxrom

### **7. 27yoshli bemorga vit V12 folievo-tanqislik anemiya tashxisi qo'yilgan. Ushbu kasallikka qaysi shikoyatlar xos emas?**

1.yo'tal

2.holsizlik

3.tana haroratining ko'tarilishi

4.ko'ngil aynish

### **Mavzuga oid muammoli masalalar**

#### **Muammoli masala№1**

**Shikoyatlari:** bosh aylanishi, yurak uynashi, yurak uynashi, yurak sohasida og'riq, tilda achishish, ich ketishi.

Ko'zdan kechirganda: teri rangi oqargan limon rangiga o'xshash, nafas olish 22 marta, puls 100marta, A/B100/70mm sim ust, til mo'rtaklari silliqdashgan, tiniq, qizil rangda.

Bemorda qanday kasallik?

#### **Muammoli masala№2**

Gematologiya bo'limiga 21yoshli bemor yotqizildi.

Ko'zdan kechirganda: bemor ahvoli og'ir, terida qon quyilishlar, og'iz bo'shlig'ida stomatit belgilari. I Paypaslab ko'rilganda limfa tugunlari kattalashgan, jigar va taloq kattalashgan, nafas olishi 26marta, puls 100marta

Bemorda qanday kasallik?

Bemor qanday parvarish qilinadi?

<b>2.10.O'quv moduliga ajratilgan soat 2.</b>	<b>Allergik kasalliklarning sabablari, belgilari va profilaktikasi. Zamonaviy tekshirish usullari.</b>
---	--

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg'ulot</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	1.Allergik kasalliklar kelib chiqishi sabablari klinikasi. 2.Allergik reaksiyalar va kasalliklarda, tez tibbiy yordam ko'rsatish, bemorlarni hamshira parvarishi.
<b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b> <b>1.Ta'limiy :</b> Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash Amaliy ko'nikmalarni egallash Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash Deontologik tarbiyaning shakllanishi Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b> Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish	
<b>Pedagogik vazifalar</b> Organizm sezgirligining ortishi va uni allergik reaksiyalar ko'rinishida namoyon bo'lishi. Allergenlar haqida ma'lumot.	<b>O'quv faoliyatini natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"><li>• organizm sezgirligining ortishi va allergik reaksiyalar</li></ul>

Allergik kasalliklarning sababi, belgilari, hamshira parvarishi. Allergik kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullari va profilaktikasi. Allergik kasalliklarda shoshilinch yordam ko'rsatish. Zaharlanish turlari, belgilari, bemorlarni parvarishlash. Zaharlanishlarda shoshilinch yordam berish.	ko'rinishlarini; <ul style="list-style-type: none"> <li>• allergenlarni turlarini;</li> <li>• allergik kasalliklarning sababi va belgilarini;</li> <li>• zaharlanish turlari va belgilarini;</li> </ul> zaharlanishni oldini olishni.
O'qitish metodlari	<b>“Allergenni top”</b>  <b>“Tezkor diagnostika”</b>  usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<p align="center"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitaladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar
<b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b>	1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida	Tinglovchilar bilimlarini eslab,

<p><b>1.O‘tgan mavzu bo‘yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash</b>  <b>20-25 daq</b>  <b>2.Yangi mavzuni to‘liq bayon etish 30-40.</b>  <b>3.O‘qitishning noan’anaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o‘qituvchi tomonidan “Ma’ruza o‘qish” usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga “<b>Allergenni top</b>”metodini qo‘llash orqali mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo‘llab javob oladilar  <b>“Tezkor diagnostika”</b></p> <p>sxemasi bo‘yicha tinglovchilar tomonidan to‘ldiriladi</p>
<p><b>3-bosqich</b>  <b>Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag‘batlantirilib, baxolar e‘lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Allergik kasalliklarning sabablari, belgilari va profilaktikasi. Zamonaviy tekshirish usullari mavzuni o‘qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:  52.A. Gadayev Ichki kasalliklar Toshkent-2022y;  53.A. Gadayev, M. Ziyaeva, R.To‘raqulov Terapiya o‘quv qo‘llanma Toshkent-2022y  54.B.N.Turaqulov, L.X. Musadjonova, X.A. Raxmatov Terapiyada hamshiralik parvarishi o‘quv qo‘llanma Navoiy nashriyoti-2019 yil.</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar</p>

**Mavzu: Allergik kasalliklarning sabablari, belgilari va profilaktikasi.  
Zamonaviy tekshirish usullari.**

## Reja:

1. Allergik kasalliklar kelib chiqishi sabablari klinikasi.
2. Allergik reaksiyalar va kasalliklarda, tez tibbiy yordam ko'rsatish, bemorlarni hamshira parvarishi.
3. Zaxarlanishlar, ularning turlari anafilaktik shokda tez tibbiy yordam berish, bemorlarni
4. Zamonaviy tekshirish usullari.

**Allergiya** organizmning har xil antigenlarga nisbatan sezuvchanligining o'zgarishi klinik jihatdan allergik reaksiyalar va kasalliklar sifatida namoyon bo'ladi.

**Antigenlar** – antigen grekcha so'z bo'lib, anti-qarshi, va genis – avlod degan ma'noni bildiradi. Organizmga tushib, immunologik reaksiyani paydo qiladigan xar qanday moddalar o'ziga xos maxsus antitelalar hosil qilishi bilan ifodalanadi. Antigen nomi 1899 yili vengriyalik olim Ladislau Doych tomonidan tavsiya etilgan. **Antitellalar** – bu organizmida antigenlar ta'sir qilgandan so'ng hosil bo'ladigan maxsus oqsillar immuno-globulinlar (gamma-globulin)dir. Antitellalarning asosiy xususiyati ular hosil qilgan antigenlarga sezgirligidir. Antitelo bilan antigenlarning o'zaro ta'sir etishi orqali antigen zararsizlantiriladi. Xamma antitellalar uchta katta gruppaga bo'linadi: antimikrobli, antitoksinli va antixujayrali.

Rivojlanishiga ko'ra allergik reaksiyalar shartli ravishda uch turga bo'linadi:

- allergik tezkor reaksiyalar (ATR)
- allergik kechikkan reaksiyalar (AKR)
- allergik sekinlashgan reaksiyalar (ASR)

ATR tipi klinik jihatdan organizm allergen bilan kontakt qilgach o'sha zahotiyoq yoki bir necha daqiqadan so'ng namoyon bo'ladi (masalan: allergik rinit, kon'yunktivit, anafilaktik shok).

AKR tipi «hal etuvchi» antigen bilan kontaktdan so'ng bir necha soat (odatda 5-6-soatdan kechikmay) o'tgach aniqlanadi. (masalan, allergik genezli gemolitik anemiya, zardob kasalligining ayrim shakllari).

ASR tipi sensibillangan organizmga allergenni hal etuvchi ta'siridan bir necha soatlar yoki kunlar o'tgach aniqlanadi (masalan, tuberkulin reaksiyasi, kontaktli dermatit).

Allergik reaksiyalarning rivojlanishida odatda 3 bosqich kuzatiladi. I-«immunogen» (yoki sensibilizatsiya bosqichi). II-«patokimyoviy (allergiya mediatorlari amalga oshishi) va III-«patofiziologik» (allergik reaksiyalarning namoyon bo'lishi, uning klinik jihatdan yaqqol ko'rinishlari).

Sensibilizatsiya holati klinik jihatdan deyarli bilinmaydi. Ammo, bunda organizmning normaga nisbatan turli a'zolari va sistemalari ayrim fermentlarining faolligi, immun globulinlarning konsentratsiyasi va boshqa o'zgarishlarga qarab chetga chiqishlari, farqlarini aniqlasa bo'ladi.

Bunday o'zgarishlarning eng mohiyatli turlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Vazomotor (mahalliy va sistemali) reaksiyalar, ular qon bosimi, regional qon aylanishi, mikrotsirkulyatsiya o'zgarishlariga olib keladi; Tomirlar o'tkazuvchanligining ortishi, bu esa shishlar va pufaklarning hosil bo'lishiga olib keladi;

Bronxiola, ichak va boshqa a'zolar muskul hujayralarining spastik qisqarishi, bu o'z navbatida asfiksiya, dispeptik o'zgarishlar (qusish, diareya, qorinda og'rik, sezish va h.k.) bilan namoyon bo'ladi;

Qon sistemasining mahalliy va keng tarqalgan xarakterdagi ivishi, ivishga qarshi va fibrinolitik omillari o'rtasidagi disbalans (muvozanatining buzilishi) bilan davom etuvchi (allergik reaksiyalarda qon ivishining pasayishini ham, trombozlarning rivojlanishini ham kuzatish mumkin) o'zgarishlar yuz beradi.

### **Allergik kasalliklar**

**Allergik kasalliklar** odam organizmining biror bir moddaga nisbatan sensibilizatsiya - sezgirligining ortishi natijasida kelib chiqadi. Organizmda allergik holatlarga olib keluvchi moddalar **allergenlar** deyiladi va ularning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Oziq-ovqat allergenlari – tarkibida oqsil moddalari ko'p bo'lgan maxsulotlar mosh, loviya, no'xot, konservantlar qo'shilgan maxsulotlar.
2. Dori allergenlari – kimyoviy yo'llar bilan ishlab chiqarilgan barcha dorilar.
3. Biologik allergenlar – qon, zardob, oqsil preparatlari, vaksinalar.
4. O'simlik allergenlari – o'simlikni ildizidan mevasigacha allergen bo'lishi mumkin.
5. Sanoat allergenlari - lak, bo'yoq, kley va x.k
6. Uy – ro'zg'or allergenlari – paryostiq pari, kutubxona changi, gilam changi.
7. Fizik omillar - issiq, sovuq, nur.

Yuqoridagi allergenlarni odam organizmiga ta'siri oqibatida quyidagi allergik reaksiyalar kelib chiqishi mumkin.

1. Maxalliy allergik reaksiya (Artyus-Saxarov fenomeni)

- 2.Eshak yemi
- 3.Kvinke shishi
- 4.Pollinioz
- 5.Anafilaktik shok.

Allergik reaksiyalarning turlariga qarab klinik belgilari turlicha bo‘ladi.

**Maxalliy allergik reaksiya (Artyus-Saxarov fenomeni)** – teri ostiga yoki mushak orasiga in’eksiya oqibatida yuzaga keladi va turlicha namoyon bo‘ladi; in’eksiya sohasida zichlashish, qizarish, shish ba’zi hollarda to‘qimalarning nekrotik o‘zgarishlari kuzatiladi. Agar bemorni hashorat chaqgan bo‘lsa, bu hollarda mahalliy sohada qizarish bilan birga kuchli qichishish (zud), og‘riq paydo bo‘ladi. Undan tashqari bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, tana haroratini ko‘tarilishi kabi belgilar paydo bo‘ladi.

#### **Birinchi yordam**

- 1.Dori vositasi yuborishni zudlik bilan to‘xtatish.
- 2.In’eksiya sohasiga sovuq kompress.UVCh qilinadi.
- 3.In’eksiya sohasi yoniga m/o 0,1% adrenalin – 0,3ml
- 4.Antigistamin preparatlaridan biri tab-ka (dimedrol, suprastin, tavegil)
- 5.Analgetiklar
- 6.Allergolog maslaxati.

**Eshak yemi** – teri so‘rg‘ichsimon qavatining shishi oqibatida, terida palaxsa-palaxsa toshmalar paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Toshmalar butun tana bo‘ylab tarqaladi. Toshmalar atrofidagi teri qizargan, toshmalarda kuchli qichishish kuzatiladi. Toshmalardan tashqari tana xaroratining ko‘tarilishi, uyqusizlik paydo bo‘ladi. Eshak yemi dori vositalari, kosmetik vositalar, ovqat maxsulotlari issiq yoki sovuq havo ta’sirida yuzaga keladi.

#### **Birinchi yordam**

1. Zudlik bilan allergenni organizmga ta’sirini to‘xtatish.
- 2.Antigistamin preparatlari tabletka yoki 1ml in’eksiya ko‘rinishida.
- 3.Natriy tiosulfat v/i
4. Allergolog maslaxati.

**Kvinke shishi** – Angionevrotik shish bo‘lib, shishlar teriga, teri osti yog‘ qavatiga, shilliq qavatlarga tarqaladi. Shishlar ko‘proq qavoqlarga, lablarga, og‘iz shilliq qavatiga, yuqori nafas yo‘llariga tarqaladi. Bu holatda ovozning

xirillashi, nafas olish va nafas chiqarishni qiyinlashuvi, xansirash, bo‘g‘iq yo‘tal paydo bo‘ladi. Bemor asfiksiyadan halok bo‘lishi mumkin.

Shishlar ovqat xazm qilish a‘zolari shilliq qavatiga tarqalsa, qorinda “o‘tkir qorin” sindromini eslatuvchi kuchli og‘riq paydo bo‘ladi. Jarayonga miya pardalari qo‘shilsa meningial simptomlar, tormozlanish, ensa muskullarining tortishishi, bosh og‘rig‘i, tirishish kabi belgilar paydo bo‘ladi.

### **Birinchi yordam**

- 1.0,1% adrenalin eritmasidan 0,3-0,5 ml teri ostiga.
2. Antigistamin preparatlari m/o-2ml.
3. Prednizolon 60-90 mg m/o yoki v/i
4. Laziks 80mg v/i
5. Bronxospazmda 2,4% eufillin eritmasini-10 ml fiz eritmada v/i
6. Bemorni zudlik bilan kasalxonaga yotkazish.

**Pollinoz** – atopik kasallik bo‘lib o‘simliklar changi ta’sirida yuzaga keladi. Bunda o‘tkir konyuktivit va rinit belgilari paydo bo‘ladi.

### **Birinchi yordam**

1. Antigistamin preparatlari tabletka yoki 1ml in’eksiya ko‘rinishida.
2. Konyuktivitda 15%li gidrokortizonli tomchilar
3. Burunga adrenalinli tomchilar.
4. Og‘ir xollarda kasalxonada davolash.

**Allergiya** organizmning har xil antigenlarga nisbatan sezuvchanligining o‘zgarishi klinik jihatdan allergik reaksiyalar va kasalliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

**Antigenlar** – antigen grekcha so‘z bo‘lib, anti-qarshi, va genis – avlod degan ma’noni bildiradi. Organizmga tushib, immunologik reaksiyani paydo qiladigan xar qanday moddalar o‘ziga xos maxsus antitelalar hosil qilishi bilan ifodalanadi. Antigen nomi 1899 yili vengriyalik olim Ladislau Doych tomonidan tavsiya etilgan. **Antitellalar** – bu organizmida antigenlar ta’sir qilgandan so‘ng hosil bo‘ladigan maxsus oqsillar immuno-globulinlar (gamma-globulin)dir. Antitellalarning asosiy xususiyati ular hosil qilgan antigenlarga sezgirligidir. Antitelo bilan antigenlarning o‘zaro ta’sir etishi orqali antigen zararsizlantiriladi. Xamma antitellalar uchta katta gruppaga bo‘linadi: antimikrobli, antitoksinli va antixujayrali.

Rivojlanishiga ko‘ra allergik reaksiyalar shartli ravishda uch turga bo‘linadi:

- allergik tezkor reaksiyalar (ATR)
- allergik kechikkan reaksiyalar (AKR)
- allergik sekinlashgan reaksiyalar (ASR)

ATR tipi klinik jihatdan organizm allergen bilan kontakt qilgach o'sha zahotiy oq yoki bir necha daqiqadan so'ng namoyon bo'ladi (masalan: allergik rinit, kon'yunktivit, anafilaktik shok).

AKR tipi «hal etuvchi» antigen bilan kontaktdan so'ng bir necha soat (odatda 5-6-soatdan kechikmay) o'tgach aniqlanadi. (masalan, allergik genezli gemolitik anemiya, zardob kasalligining ayrim shakllari).

ASR tipi sensibillangan organizmga allergenni hal etuvchi ta'siridan bir necha soatlar yoki kunlar o'tgach aniqlanadi (masalan, tuberkulin reaksiyasi, kontaktli dermatit).

Allergik reaksiyalarning rivojlanishida odatda 3 bosqich kuzatiladi. I-«immunogen» (yoki sensibilizatsiya bosqichi). II-«patokimyoviy (allergiya mediatorlari amalga oshishi) va III-«patofiziologik» (allergik reaksiyalarning namoyon bo'lishi, uning klinik jihatdan yaqqol ko'rinishlari).

Sensibilizatsiya holati klinik jihatdan deyarli bilinmaydi. Ammo, bunda organizmning normaga nisbatan turli a'zolari va sistemalari ayrim fermentlarining faolligi, immun globulinlarning konsentratsiyasi va boshqa o'zgarishlarga qarab chetga chiqishlari, farqlarini aniqlasa bo'ladi.

Bunday o'zgarishlarning eng mohiyatli turlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Vazomotor (mahalliy va sistemali) reaksiyalar, ular qon bosimi, regional qon aylanishi, mikrotsirkulyatsiya o'zgarishlariga olib keladi; Tomirlar o'tkazuvchanligining ortishi, bu esa shishlar va pufaklarning hosil bo'lishiga olib keladi;

Bronxiola, ichak va boshqa a'zolar muskul hujayralarining spastik qisqarishi, bu o'z navbatida asfiksiya, dispeptik o'zgarishlar (qusish, diareya, qorinda og'rik, sezish va h.k.) bilan namoyon bo'ladi;

Qon sistemasining mahalliy va keng tarqalgan xarakterdagi ivishi, ivishga qarshi va fibrinolitik omillari o'rtasidagi disbalans (muvozanatining buzilishi) bilan davom etuvchi (allergik reaksiyalarda qon ivishining pasayishini ham, trombozlarning rivojlanishini ham kuzatish mumkin) o'zgarishlar yuz beradi.

### **Allergik kasalliklar**

**Allergik kasalliklar** odam organizmining biror bir moddaga nisbatan sensibilizatsiya - sezgirligining ortishi natijasida kelib chiqadi. Organizmda allergik holatlarga olib keluvchi moddalar **allergenlar** deyiladi va ularning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Oziq-ovqat allergenlari – tarkibida oqsil moddalari ko‘p bo‘lgan maxsulotlar mosh, loviya, no‘xot, konservantlar qo‘shilgan maxsulotlar.
2. Dori allergenlari – kimyoviy yo‘llar bilan ishlab chiqarilgan barcha dorilar.
3. Biologik allergenlar – qon, zardob, oqsil preparatlari, vaksinalar.
4. O‘simlik allergenlari – o‘simlikni ildizidan mevasigacha allergen bo‘lishi mumkin.
5. Sanoat allergenlari - lak, bo‘yoq, kley va x.k
6. Uy – ro‘zg‘or allergenlari – paryostiq pari, kutubxona changi, gilam changi.
7. Fizik omillar - issiq, sovuq, nur.

Yuqoridagi allergenlarni odam organizmiga ta’siri oqibatida quyidagi allergik reaksiyalar kelib chiqishi mumkin.

1. Maxalliy allergik reaksiya (Artyus-Saxarov fenomeni)
2. Eshak yemi
3. Kvinke shishi
4. Polliniaz
5. Anafilaktik shok.

Allergik reaksiyalarning turlariga qarab klinik belgilari turlicha bo‘ladi.

**Maxalliy allergik reaksiya (Artyus-Saxarov fenomeni)** – teri ostiga yoki mushak orasiga in’eksiya oqibatida yuzaga keladi va turlicha namoyon bo‘ladi; in’eksiya sohasida zichlashish, qizarish, shish ba’zi hollarda to‘qimalarning nekrotik o‘zgarishlari kuzatiladi. Agar bemorni hashorat chaqgan bo‘lsa, bu hollarda mahalliy sohada qizarish bilan birga kuchli qichishish (zud), og‘riq paydo bo‘ladi. Undan tashqari bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, tana haroratini ko‘tarilishi kabi belgilar paydo bo‘ladi.

### **Birinchi yordam**

1. Dori vositasi yuborishni zudlik bilan to‘xtatish.
2. In’eksiya sohasiga sovuq kompress. UVCh qilinadi.
3. In’eksiya sohasi yoniga m/o 0,1% adrenalin – 0,3ml

4. Antigistamin preparatlaridan biri tab-ka (dimedrol, suprastin, tavegil)

5. Analgetiklar

6. Allergolog maslaxati.

**Eshak yemi** – teri so‘rg‘ichsimon qavatining shishi oqibatida, terida palaxsa-palaxsa toshmalar paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Toshmalar butun tana bo‘ylab tarqaladi. Toshmalar atrofidagi teri qizargan, toshmalarda kuchli qichishish kuzatiladi. Toshmalardan tashqari tana xaroratining ko‘tarilishi, uyqusizlik paydo bo‘ladi. Eshak yemi dori vositalari, kosmetik vositalar, ovqat maxsulotlari issiq yoki sovuq havo ta‘sirida yuzaga keladi.

### **Birinchi yordam**

1. Zudlik bilan allergenni organizmga ta‘sirini to‘xtatish.

2. Antigistamin preparatlari tabletka yoki 1ml in‘eksiya ko‘rinishida.

3. Natriy tiosulfat v/i

4. Allergolog maslaxati.

**Kvinke shishi** – Angionevrotik shish bo‘lib, shishlar teriga, teri osti yog‘ qavatiga, shilliq qavatlarga tarqaladi. Shishlar ko‘proq qavoqlarga, lablarga, og‘iz shilliq qavatiga, yuqori nafas yo‘llariga tarqaladi. Bu holatda ovozning xirillashi, nafas olish va nafas chiqarishni qiyinlashuvi, xansirash, bo‘g‘iq yo‘tal paydo bo‘ladi. Bemor asfiksiyadan halok bo‘lishi mumkin.

Shishlar ovqat xazm qilish a‘zolari shilliq qavatiga tarqalsa, qorinda “o‘tkir qorin” sindromini eslatuvchi kuchli og‘riq paydo bo‘ladi. Jarayonga miya pardalari qo‘shilsa meningial simptomlar, tormozlanish, ensa muskullarining tortishishi, bosh og‘rig‘i, tirishish kabi belgilar paydo bo‘ladi.

### **Birinchi yordam**

1. 0,1% adrenalin eritmasidan 0,3-0,5 ml teri ostiga.

2. Antigistamin preparatlari m/o-2ml.

3. Prednizolon 60-90 mg m/o yoki v/i

4. Laziks 80mg v/i

5. Bronxospazmda 2,4% eufillin eritmasini-10 ml fiz eritmada v/i

6. Bemorni зудlik bilan kasalxonaga yotkazish.

**Pollinoz** – atopik kasallik bo‘lib o‘simliklar changi ta‘sirida yuzaga keladi. Bunda o‘tkir konyuktivit va rinit belgilari paydo bo‘ladi.

### **Birinchi yordam**

1. Antigistamin preparatlari tabletka yoki 1ml in'eksiya ko'rinishida.
2. Konyuktivitda 15%li gidrokortizonli tomchilar
3. Burunga adrenalini tomchilar.
4. Og'ir xollarda kasalxonada davolash.

### **Anafilaktik shok.**

Anafilaktik shok – kuchli namoyon bo'ladigan o'tkir allergik reaksiya hisoblanadi va allergenlarni organizmga antibiotiklar, sulfanilamid preparatlari, vaksinalar, zardoblar, rentgen kontrast moddalar, toksik va kimyoviy moddalarning nojo'ya ta'siridan yoki hashoratlar chaqishi oqibatida kelib chiqadi.

Anafilaktik shokda allergik reaksiya allergen organizmga tushgandan so'ng bir necha daqiqa yoki soniyadan so'ng rivojlanadi. Bemorlarda birdan qizib ketish, qizarish, tirishishlar, o'limdan qo'rquv xissi va depressiya, bosh og'rig'i kabi belgilarga shikoyat qiladilar. Yuqori nafas yo'llarining shishi hisobiga bronxospazm yuzaga kelib, bemorlarda yo'tal, hansirash, quruq xirillashlar paydo bo'lishi mumkin. Oshqozon ichak tizimi silliq muskullarining spazmi xisobiga qorinda spastik og'riqlar, ko'ngil aynishi, qayt qilish, ich ketishi kuzatiladi. AQB birdan tushib ketishi pulsni ipsimonligi, gemorragik sindrom va toshmalar kuzatilishi mumkin. Bemorlarda o'lim o'tkir nafas yoki yurak qon tomir yetishmovchiligi yoki miya shishi oqibatida yuzaga keladi. Anafilaktik shok yashin tezligida rivojlanganda AQB birdan tushib ketadi, ong o'zgarishlari, tirishishlar kuzatiladi va odatda bu holat o'lim bilan tugaydi.

### **Zaxarlanishlarda tez tibbiy yordam.**

Zaxarlanishlar kimyoviy moddalarning toksik ta'siridan ,ba'zi sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlardan, dori-darmonlarni notartib iste'mol qilishdan, xashoratlar chaqqandan kelib chiqadi. Toksinlarning ozgina miqdori organizmga tushishi,biokimyoviy reaksiyalarda ishtirok etib, hujayra va to'qimalardagi normal moddalar almashinuvini va a'zolarining tarkibiy hamda funksional buzilishlariga olib keladi. Gaz, bug'lar, aerozol va chang holatidagi zaxarli moddalar nafas yo'llari shilliq qavatlari va alveola devorlari orqali qonga, undan jigarga tushadi va patologik holatlarni keltirib chiqaradi.

**Klinikasi.**Zaxarlanishni 3 hil klinik ko'rinishi bor.

1. O'tkir.
2. O'rta o'tkir.
3. Surunkali.

O'tkir intoksikatsiyalar organizmga toksik zaxarlarning bir marotaba katta miqdorda tushishi evaziga kelib chiqib, klinik belgilari o'sha zahotiyiq yoki qisqa vaqt oralig'ida namoyon bo'ladi.

O'rta o'tkir intoksikatsiya: xuddi o'tkir intoksikatsiyalarga o'xshaydi, faqat bu yerda zahar miqdori kamroq bo'lib, klinik ko'rinishi o'tkirda nisbatan pastroq bo'ladi.

Surunkali intoksikatsiya organizmga sekin-astalik bilan uzoq vaqtlargacha ta'sir etuvchi zaharlar oqibatida, shu holatga qayta o'tkir intoksikatsiya ta'siri va zahar kumulyatsiyasi (to'planishi) natijasida kelib chiqadi.

O'tkir intoksikatsiyalarda bemorlar tez tibbiy yordamga muhtoj bo'ladilar. Yordam toksik modda xususiyatlariga, organizmga tushish yo'llariga, miqdoriga asosan ko'rsatiladi. O'tkir intoksikatsiyalarga yordam ko'rsatishning umumiy qoidalari:

- Organizmga zaharli moddalar tushishini zudlik bilan to'xtatish.
- Organizmga tushgan toksik moddalarni organizmdan chiqarib yuborish.
- Organizmdagi toksik moddalarni neytrallashtirish.
- Organizm hayot faoliyati uchun o'ta zarur a'zolar funksiyasini tiklash.

Tez tibbiy yordam ko'rsatilganda agar jablanuvchi turgan joyning havosi tarkibida zaharli moddalar bo'lsa, darhol u joydan bemorni olib chiqib ketish zarur. Zaharli moddalar teri yoki kiyim- boshga tushgan bo'lsa, darhol issiq suv bilan yuvib tashlash kerak. Agar zaharli moddalar hazm yo'llariga tushgan bo'lsa zudlik bilan me'da yuviladi, aktivlashtirilgan ko'mir bilan adsorbsiyalanadi. Zaharlangan har bir kishiga individual yondoshish lozim.

### **Narkotik moddalardan zaharlanishda hamshira taktikasi:**

1. Me'dani zondsiz usulda yuvish (ko'p miqdorda suyuqlik ichirib, qusish refleksini chaqirish bilan),
2. Tuz surgilarini qo'llash (1 choy qoshiq achchiq tuzga 0,5 stakan sovuq suv),
3. Ko'p suyuqlik ichirish (choy, kompot),
4. Bemorni shifoxonaga yotqizish.

Narkotiklarga qarshi ziddi-zahar sifatida nalorfin ishlatiladi, u venaga (0,5 % eritmasi 1-2 ml) yuboriladi. Nalorfin yo'qligida teri ostiga atropin (0,1 % eritmasi 1 ml) yuborish mumkin. Reanimatsiya sharoitida forsirlangan diurez va peritoneal dializ usullaridan foydalaniladi, nafas susayganda o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi o'tkaziladi. Bundan tashqari yurak-tomir vositalari, analeptiklar (kofein, kordiamin), vitaminlar, glyukoza eritmasi yuboriladi.

### **Barbituratlardan zaharlanish.**

Barbituratlar qatoriga barbamil, barbital, fenobarbital, benzonal va b. kirib, yuqori dozalarda zaharlanishlarga sabab bo‘ladi. Barbituratlardan zaharlanish ko‘proq MNSning zararlanishi bilan namoyon bo‘ladi. Barbituratlar bilan zaharlanganda 4 bosqich kuzatiladi: a) uxlash, b) yuzaki koma, v) chuqur koma, g) komadan keyingi bosqich. Uxlash bosqichida bemorni uyqu tortadi, apatiya, ataksiya, nutqning buzilishi kuzatiladi. Qorachiq birmuncha toraygan, yorug‘likka reaksiya saqlangan, nafas va yurak faoliyati buzilmagan bo‘ladi. Bemor og‘riq va kuchli ovozga reaksiya beradi. Gipersalivatsiya kuzatiladi. Uxlash bosqichi 10-15 soat davom etadi. Yuzaki koma bosqichida uyqu chuqur bo‘lib, refleklar saqlangan. Es-xush yo‘qolgan, qorachiqlar toraygan, yorug‘likka reaksiya kamaygan bo‘ladi. Patologik refleklar paydo bo‘lishi mumkin. Nafas sekinlashgan, puls tezlashgan bo‘ladi. Bu bosqichda til orqaga ketib qolishi va qusuq massalarini aspiratsiyasi natijasida asfiksiya kelib chiqishi mumkin.

Chuqur koma davri chuqur uyqu, refleklarning yo‘qolishi, mushaklar tonusining yo‘qolishi, oyoq-qo‘llarni muzlashi, nafasni sekinlashishi, sianoz bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda o‘tkir yurak-tomir yetishmovchiligi, pulsni zaiflashishi va arterial bosimni pasayishi kuzatiladi. Nafas to‘xtashi, kollaps, o‘pka, miya shishi, paroksizmal taxikardiya rivojlanishi mumkin. Komadan keyingi davrda-harakatlar koordinatsiyasi buzilishi, emotsional labillik, depressiya kuzatilishi mumkin. O‘pka yallig‘lanishi, to‘qimalar oziqlanishining buzilishi kelib chiqadi. Yengil zaharlanganda uyquchanlik 1 kun, o‘rtachada esa 1-2 kun, og‘ir hollarda 5 kundan ortiq davom etadi.

### **Barbituratlardan zaharlanishda hamshira taktikasi:**

1. Barbituratlar og‘iz orqali qabul qilingan bo‘lsa tezlik bilan qustirish yoki me‘dani yuvish.

2. Nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini ta‘minlash maqsadida shilliq va qusuq moddalaridan tozalash.

3. Kislorod yostiqchasidan nafas oldirish.

4. Tuz surgilarini qo‘llash (1/2 stakan suvga 30 g. tuz)

5. Tozalovchi huqna qilish.

6. Faollashtirilgan ko‘mir berish.

7. Koma holatida sun‘iy nafas oldirish.

8. Qondagi zaharni chiqarib yuborish uchun peshob haydovchi dorilar berish

9. Bemorni shifoxonaga yotqizish.

### **Xolinolitik dorilardan zaharlanish.**

Xolinolitik vositalar-atropin, amizil, astmatol, skopolamin, aprofen va b. markaziy va periferik nerv tizimidagi xolinolitik tizimlarni tormozlaydi.

Xolinolitiklardan zaharlanganda og‘iz qurishi, yutish va nutqning buzilishi, yorug‘likdan qurqish, yurak o‘ynashi, nafas siqishi, bosh og‘rig‘i kuzatiladi. Akkomadatsiya falajlanadi, qorachiqlar kengayadi, yaqindan ko‘rish buziladi. Teri qoplamlari quruq, giperimiyalangan. Og‘ir hollarda ruxiy va harakat qo‘zg‘alishi, ko‘rish gallyutsinatsiyalari, jazavaga tushish, tutqanoqsimon xuruj, so‘ngra es-xushni yo‘qolishi kuzatiladi.

### **Xolinolitik dorilardan zaharlanishda hamshira taktikasi:**

Agar zahar og‘iz orqali kirgan bo‘lsa, me‘dani 1 % tanin yoki 1:1000 kaliy permanganat eritmasi bilan zond orqali yuvish, suyuqliklar ichirib qustirish lozim. Agar zahar ko‘z shilliq pardalari orqali kirgan bo‘lsa, tezlik bilan ko‘zni yuvish kerak. Taxikardiya inderaldan foydalanish mumkin. Agar gipertermiya kuchli bo‘lsa, sovuq suv yoki muzli xaltacha, nam artish usulidan foydalaniladi.

### **Ganglioblokatorlardan zaharlanish.**

Arfonad, benzogeksoniy, gangleron, dimekolin, paxikarpin, pentamin, pirilen va b. ganglioblokatorlar zaharlanishga olib kelishi mumkin. Paxikarpin bachadon tonusini oshirib, uning mushaklarini qisqarishini kuchaytirgani sababli ayollar homiladorlikni to‘xtatishda foydalangan. Bu maqsadda paxikarpin 0, 5 dan 8 g dozagacha ishlatilganda zaharlanishga olib keladi. zaharlanishning klinik belgilari: bosh aylanishi, ko‘rishni pasayishi, qusish, ko‘ngil aynishi, qorinda og‘riq, quloqlar shang‘illashi, og‘iz qurishi. Ruxiy qo‘zg‘alishlar, tirishishlar, og‘ir hollarda es-xushni yo‘qotish, kollaps rivojlanadi. Bemor nafas falajlanishi va yurak to‘xtashidan halok bo‘lishi mumkin.

### **Ganglioblokatorlardan zaharlanishda hamshira taktikasi:**

Birinchi yordam me‘dani yuvish, tuzli surgilar berish, tozalovchi klizmalar qilishdan iborat. Vegetativ gangliylardan nerv impulslari o‘tishini yaxshilash maqsadida prozerin (1 ml 0, 05 % eritmasi), ATF (2-3 ml 1 % eritmasi), V gurux vitaminlari beriladi. Harakat qo‘zg‘alishlarida geksenal yuboriladi. Kollaps rivojlanganda mezaton, yurak-tomir preparatlari qo‘llanadi.

### **Og‘ir metall tuzlaridan zaharlanish.**

#### **Mis birikmalaridan zaharlanish.**

Mis kuporosi, mis oksidimis karbonat va b. ko‘pincha nafas yo‘llari orqali tanaga tushadi. va ularni ta’sirlaydi. Ular qon gemolizi va ichki a’zolarida degenerativ o‘zgarishlarni chaqirish xususiyatiga ega. Yashirin davr (4-48 soat) o‘tgach, bemorda isitma ( $39-40^{\circ}$  S), titrash, kuchli terlash kuzatiladi. So‘ngra umumiy holsizlik, taxikardiya, qusish boshlanadi. Burundan qon ketishi, katta dozalarda esa o‘pka shishi, MNS zararlanishi rivojlanadi. Bemor tezda o‘lib qolishi mumkin. Mis birikmalari me‘daga tushsa og‘izda metall ta’mi, salivatsiya kuzatiladi. Bunga ko‘ngil aynish, qusish, qorinda og‘riq, chanqash, ich ketishi qo‘shiladi. Teri qoplamlari sarg‘ayadi. Til va og‘iz shilliq pardalari ko‘k rangga

bo'yaladi. Tana harorati pasayadi. Yurak qisqarishlari soni kamayadi. Og'ir hollarda koma, tirishishlar kuzatilishi mumkin.

### **Og'ir metall tuzlaridan zaharlanganda hamshira taktikasi:**

Birinchi yordam me'dani bir necha marta yuvishdan iborat. Shuningdek, faol ko'mir va magniy oksiddan foydalaniladi. Bemorga sut, yog'li ovqatlar berish taqiqlanadi. Bemorning terisi ostiga morfin va atropin, venasiga 100 ml 30 % natriy tiosulfat yuboriladi. Ko'p qusganda amnazin yuboriladi.

### **Tibbiy atamalar**

Intoksikatsiya-zaxarlanish

MNS – markaziy nerv sistemasi

Toksin – zaxarli modda

### **Nazorat savollar**

- 1.Allergik reaksiyalarning turlari
- 2.Allergik reaksiyalarning sabablari
- 3.Allergik reaksiyalarning klinik belgilari, asoratlari
- 4.Allergik reaksiyalarning davosi va hamshira parvarishi
- 5.Dorilar ta'sirida hosil bo'lgan kasalliklarning sabablari
6. Dorilar ta'sirida hosil bo'lgan kasalliklarda hamshira parvarishi
- 7.Anafilaktik shokda birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish
- 8.Zaharlanishlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish
- 9.Eshakemi bilan Kvinke shishini farqi
- 10.Zaharlanishlarning turlari

### **“Allergenni top”**

**Maqsad:** Talabalarda sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash ko'nikmasini rivojlantirish.

### **O'tkazish tartibi:**

Talabalar kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga klinik vaziyat yozilgan

kartochka beriladi. Masalan: bemorda aksirish, burun bitishi va ko‘z qichishishi bahor faslida kuchayadi.

Guruhlar quyidagilarni aniqlaydi:

- Qaysi allergik kasallik bo‘lishi mumkin
- Ehtimoliy allergen
- Qanday tekshiruv o‘tkaziladi
- Profilaktika choralari

Har bir guruh o‘z javobini taqdim etadi va umumiy muhokama qilinadi.

### **“Tezkor diagnostika”**

**Maqsad:** Zamonaviy tekshirish usullarini mustahkamlash.

#### **O‘tkazish tartibi:**

O‘qituvchi doskaga turli tekshiruv usullarini yozadi: prik-test, IgE aniqlash, spirometriya, eliminatsion test.

Talabalarga esa alohida kasallik nomlari beriladi (masalan, bronxial astma, atopik dermatit, allergik rinit).

Talabalar mos keladigan diagnostika usulini tezkor tarzda tanlab, nima uchun tanlaganini izohlaydi.

Eng tez va asosli javob bergan guruh g‘olib bo‘ladi.

### **Test savollari**

#### **1. Anafilaktik shokda birinchi yordam ko‘rsatish uchun tyyorlash kerak?**

- 1.\*adrenalin, mezaton, prednizalon
- 2.morfin, fentalin, droperidol
- 3.penitsillin, sulfadimetoksin kofein,
- 4.efedrin, papaverin, novokain

#### **2. Bemorni hashorat chvqgandan so‘ng kaft, boldir, belning qichishishi, to‘sh orqasidagi qisilish, tomirlar tortishishi, terida toshmalar, qusish belgilari paydo bo‘lgan. A/B pasaygan-80/40mm sim.ust. Sizning taxminiy tashxisingiz**

- 1.\*Anafilaktik shok

- 2.Kvinki shishi
- 3.Allergik dermatit
- 4.Eshak yemi

### **3. Kvinki shishiga ko‘proq sabab bo‘la oladi?**

- 1.\*oziq ovqat mahsulotlari
- 2.dori vositalar
- 3.aeroallergenlar
- 4.hashoratlarni chaqishi

### **Muommoli masalalar**

Bemorga penitsillin in'eksiyasi kilinganda sung uzini yomon xis kila boshladi.In'eksiya kilingan joy kichisha boshladi,kukrak kafasi soxasida sikilish xissi,bel va korin soxalarida ogrik paydo buldi, badani sovuk ter bilan koplandi. A/B 90/60 mm.sim.ust. puls tezlashgan, ipsimon nafas olishi kiyinlashib,xushini yokotgan.

### **S A V O L**

1. Sizning taxminiy tashxisingiz
2. Shoshilinch yordam.

### **Muommoli masala№1**

Qishloq xo‘jalik ishlarida ishlatiladigan pestitsidlardan foydalanishda xlor birikmalardan zaharlanish ro‘y berdi.

**Shikoyatlari:** yutal, kungil aynishi, qo‘shish, qorin sohasida og‘riq, bosh og‘rig‘i va ko‘rish qobilyatini pasayishi.

**Ko‘zdan kechirganda:** ko‘z shilliq pardalari qizargan, terida dermatit belgilari, tana harorati 39S.

Bemorda qanday kasallik?

Hamshira parvarishi?

### **Muommoli masala№2**

Bemor 49yoshda. U ko‘mir ishlab chiqarish korxonasida ishlaydi. Tibbiy ko‘rikdan o‘tishda bemorga “pnevmokonioz” deb tashxis qo‘yildi.

Pnevmonioz qanday kasallik?

Kasallikning davosi va profilaktikasi nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar**

1. B.U.Yuldoshev, B.H.Isomiddinov Ichki kasalliklar T 1994y
2. V.M.Bogolyubov Ichki kasalliklar T 1985y
3. O.Haydarov Ichki kasalliklar G‘. T 1996y
4. Morag Makkormik, M.X.Alimova, R.K.Solixodjaeva Hamshiralik ishi protokollari
5. A.E.Eshonqulov, Sh.M. Axmedov Odam anatomiyasi va fiziologiyasi T2010y
6. Y.L.Arslonov, T.A.Nazarov, A.A.Bobomurodov. "Ichki kasalliklar" Toshkent "ILM ZIYO"-2018y. 325-333bet, 280-281bet

<b>2.11.O'quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>Favqulotda xolatlar datez tibbiy yordam ko'rsatish."</b>
--	---

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg'ulot</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	1.Terminal xolatlar. Yurak-o'pka reanimatsiyasi. 2.Yuqori nafas yo'llari o'tkir obstruksiyasi. 3.Cho'kish. Issiqlik urishi. Kuyish. Sovuq urishi. 4.Qon ketishi.Qonni vaqtinchalik va uzil-kesil tuxtatish usullari. 5.Jarohatlar va jarohatni immobilizatsiya qilish texnikasi. 6.Zaxarlanishlarda va hashoratlar chaqishida birinchi yordam.
<b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b> <b>1.Ta'limiy :</b> Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash Amaliy ko'nikmalarni egallash Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash Deontologik tarbiyaning shakllanishi Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b> Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish	
<b>Pedagogik vazifalar</b> Favqulotda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha, ko'p uchraydigan kritik va shoshilinch holatlarda malakali tibbiy yordam ko'rsatishning umumiy tamoyillari. Favqulotda xolatlarda bemorlarni ruhan qo'llab quvvatlash va ularga yordam ko'rsatish usullari Bemorlarni xolatiga qarab yordam ko'rsatish.	<b>O'quv faoliyatini natijalari:</b> Tinglovchi: Bemorlarni xolatiga qarab yordam ko'rsatish.Shikastlangan bemorlarga tibbiy va ruhan yordam ko'rsatish.Favqulotda xolatlarda patsientlarni evakuatsiya qilishda faol qatnashish.Favqulotda vaziyat va tibbiy ofatlarda birinchi yordam ko'rsatishni. O'tkir nafas yetishmovchiligi, o'tkir

	<p>yurak qon – tomir yetishmovchiligi Asosiy tadbirlarni “SAV” ketma-ketligi. ekzogen zaharlanish, tabiiy ofatlarda shok holatlarida, terminal holatlarda, harorat ta’sirida (kuyish, muzlash)larning tushunchasi, tashxisi, klinik belgilari va birinchi tibbiy yordam ko’rsatish bo’yicha bilimlarni. Shikastlangan kishini ahvolini baholashni;hushsiz holatda birinchi yordam ko’rsatishni;ko’p qon yo’qotganda birinchi yordam ko’rsatishni;suyak singanda birinchi yordam ko’rsatishni;yurak xurujida birinchi yordam ko’rsatishni;nafas qiyinligi birinchi yordam ko’rsatishni;og’ir kuyganda birinchi yordam ko’rsatishni;turli jarohatlarda birinchi yordam ko’rsatishni. shoshilinch xolatlarda, favqulotda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam ko’rsatishni;</p>
O’qitish metodlari	<p><b>“Tezkor algoritm”</b></p> <p><b>“Rol o’ynash – Shoshilinch brigada” usullari bilan ishlash</b></p>
O’quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O’qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og’zaki so’rov, tezkor so’rovyozma so’rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o’quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg’ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
<p><b>1-bosqich o’quv mashg’ulotiga kirish</b> <b>10 daqiqa</b></p>	<p><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O’qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o’quv bo’limi tomonidan berilgan ro’yxat</p>	

	<p>asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O‘quv mashg‘ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o‘tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo‘llaniladigan usullarni aytib o‘yin qoidalarini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O‘tgan mavzu bo‘yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash</b></p> <p><b>20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to‘liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O‘qitishning noan’anaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o‘qituvchi tomonidan “Ma’ruza o‘qish” usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga ““Tezkor algoritm” tarzida mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo‘llab javob oladilar“Rol o‘ynash – Shoshilinch brigada” sxemasi bo‘yicha tinglovchilar tomonidan to‘ldiriladi</p>
<p><b>3-bosqich</b></p> <p><b>Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag‘batlantirilib, baxolar e’lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Favqulotda xolatlardatez tibbiy yordam ko‘rsatish.”.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>1. "Birinci shoshilinch tibbiy</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar</p>

	<p>yordam bo'yicha qo'llanma." 2010 yil.</p> <p>2. D. M. Sabirov, A. Z. Gazizov "Birinchi tibbiy yordam" 2017 yil.</p>	
--	--	--

## **Mavzu :” Favqulotda xolatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish.”**

### **Dars rejasi:**

Mavzu:Favqulotda vaziyatlar va shoshilinch xolatlarda birinchi hamshiralik yordami. Reja:

- 1.Terminal xolatlar. Yurak-o‘pka reanimatsiyasi.
- 2.Yuqori nafas yo‘llari o‘tkir obstruksiyasi.
- 3.Cho‘kish. Issiqlik urishi. Kuyish. Sovuq urishi.
- 4.Qon ketishi.Qonni vaqtinchalik va uzil-kesil tuxtatish usullari.
- 5.Jarohatlar va jarohatni immobilizatsiya qilish texnikasi.
- 6.Zaxarlanishlarda va hashoratlar chaqishida birinchi yordam.

### **Favqulotda vaziyat nima?**

Favqulotda vaziyat sharoit buzish va kishilar sog‘lig‘iga yoki atrof muhitga

sezilarli moddiy yo‘qotishlar , ijtimoiy tuzilmalarni barbod bo‘lishiga yoki kishilar qurbon bo‘lishiga olib kelgan yoki olib keladigan ofatlar yoki boshqa ofatlar , falokatlar natijasida yuzaga kelgan ma’lum hududdagi vaziyat.

### **Favqulotda vaziyat yuzaga kelgandagi havf.**

1. Kishi hayotiga tahdid soluvchi havf.
2. Kishi sog‘lig‘iga tahdid soluvchi havf.
3. Hayot faoliyati sharoiti buzilishi.
4. Sezilarli moddiy yo‘qotishlar.
5. Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar.

## **Favqulotda vaziyatlarni yuzaga kelish sabablari.**

Favqulotda vaziyatlarni yuzaga kelish sabablari turlicha, ammo ularni quyidagi uchta guruhga bo'lish mumkin:

1. Tabiat yaratgan sabablar.
2. Ijtimoiy mazmundagi sabablar.
3. Tabiat va kishi xatosi bilan birgalikda yaratilgan sabablar.

## **Favqulotda vaziyatlar tasnifi.**

Favqulotda vaziyatlarni asosan 2 turga bo'lib tasniflash bo'ladi (chizmaga qarang). Tabiiy ko'rinishdagi FV va texnogen xususiyatga ega bo'lgan FV. Tabiiy ko'rinishdagi FV tayfun, uragan, suv toshqini, qurg'oqchilik, ko'chki, zilzila, sunami, vulqonlarning otilib chiqishi, epidemik kasalliklar va boshqalarni kamrab oladi. O'zbekistonda ko'chki, suv toshqini va epidemik kasalliklar uchrab turadi.

## **Favqulotda vaziyatlar bosqichlari**

Favqulotda vaziyatlar bosqichlari tasnifi

Favqulotda vaziyatlar bosqichlariga muvofiq choralar ko'rish muhimdir. Favqulotda vaziyatlarni bosqichlarga bo'linishi bilan bog'liq bo'lgan turli xil yondoshuvlar mavjud. Ularni 4 katta guruhlariga ajratish mumkin. Bu – tayyorgarlik bosqichi, kechiktirib bo'lmaydigan yordam ko'rsatish bosqichi, sog'ayish bosqichi, ijtimoiy reabilitatsiya bosqichi.

1. Tayyorgarlik bosqichi: Infratuzilmani rivojlantirish, favqulotda vaziyatlarni oldini olish choralari.
2. Kechiktirib bo'lmaydigan yordam ko'rsatish bosqichi: kutqarish ishlari, kishi hayoti yoki mulklarni saqlab qolish bilan bog'liq turli xil kechiktirib bo'lmaydigan choralar.
3. Sog'ayish bosqichi: Tibbiy yordam ko'rsatish, travmadan keyingi stress holatlar.
4. Ijtimoiy reabilitatsiya bosqichi: Reabilitatsiya.

## Chizma №2: Favqulotda vaziyatlar sikli

### Favqulotda vaziyatlar bosqichlarida hamshiralik ishi.

Favqulotda vaziyatlar bosqichlarida hamshiralik faoliyati paytida FVlarning har bir bosqich jarayoni va parvarishga bo'lgan talablar o'zgaradi. Bundan tashqari FV lar va jamoaning xususiyatlariga qarab parvarishga bo'lgan talablar turli xil bo'lishi mumkin. Shuning uchun jamoada ishlayotgan hamshiradan FVlarda parvarishga bo'lgan qiziqish va kerak bo'lgan bilim va malaka talab qilinadi.

#### Saralash

Tibbiy xizmatning birinchi va asosiy vazifasi jabrlanuvchilarning saralashidan iboratdir. Tibbiy xizmat xodimlari tibbiy yordam ko'rsatish turini, shuningdek keyingi bosqichlardagi yordam ko'rsatishlarni hisobga olib jabrlanuvchilarni tashish imkoniyati va tartibini belgilaydi.

Ommaviy sanitar yo'qotishlar paytida tibbiy saralash shartlariga qat'iy rioya qilish kerak. Tibbiy saralash deganda nazarda tutiladi: bir xil davolash-evakuatsiya tadbirlarga muxtoj bo'lgan yarador, jabrlanganlar va kasallarni bir xil guruhlarga ajratish.

#### Saralash turlari.

<b>Tartib</b>	<b>Tasnif</b>	<b>Belgilash</b>	<b>Shikastlanish va kasallikning ahvoli</b>
<b>1-tartib</b>	Birinchi navbatda davolanish kerak bo'lgan guruh (og'ir ahvol)	Qizil rang (I)	Hayotni saqlab qolish uchun o'z vaqtida yordam ko'rsatish lozim
<b>2-tartib</b>	Palliativ davolashga muxtoj bo'lgan guruh (o'rtacha holat)	Sariq rang (II)	Hayotga havf yo'q, hatto vaqt o'tsa ham. Asosan muhim xayotiy ko'rsatkichlar stabil xolatda
<b>3-tartib</b>	Zaxira guruhi (engil holat)	Yashil rang (III)	Yuqoridagilarni istisno qilgan holda kasallikning yengil holati. Vrachlar tomonidan davolashga muxtojlik yo'q.

<b>4-tartib</b>	Vafot etganlar	Qora rang (o)	Xatto yurak-nafas olish reanimatsiya choralari olib borilganda ham tiklash imkoni bo'lmagan, tabiiy ofat paytida vafot etgan yoki og'ir jabrlanganlar.
-----------------	----------------	---------------	--

*Saralash paytidagi asosiy holatlar.*

Ahvolning og'irligi es-xushi, puls, shikastlanish turiga qarab baholanadi. Imkon darajada jabrlanganlarning shaxsi aniqlanishi lozim. Buning uchun shakastlangan shaxsni tasdiqlovchi, uning ismi va familiyasi, yoshi, jinsi hakida ma'lumot beruvchi birkalarni ishlatish lozim. Birkalar tabiiy ofat sodir bo'lgan joyda to'ldiriladi.

Tibbiy punktlar, poliiklinika, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish otryadlarda birlamchi hisob tibbiy kartochkalar to'ldiriladi. Unda pasport ma'lumotlaridan tashqari diagnoz, ko'rsatilgan tibbiy yordam xajmi va jabrlanuvchi qaerga evakuatsiya qilinganligi ko'rsatiladi.

Barcha davolash-profilaktika muassasalarning qabul-saralash bo'limlarida saralash ishlari olib borilgandan keyin jabrlanuvchiga saralash marka beriladi (yopishtirilib qo'yiladi). Unda jabrlanuvchiga tibbiy yordam ko'rsatilishi kerak bo'lgan navbati va bo'limi belgilangan bo'ladi. Saralash markalarning ranglari va shakllari oldindan ishlab chiqilish lozim va medpersonal mutahassislar, vrach boshchiligidagi saralash brigadalar qo'llayotgan xar bir markaning nima ma'no anglatishini bilishi lozim.

**Umumiy sovuk kotish xolatida davolash chora-tadbirlari**

1. Issik xonaga olib kirish.
2. Tanani issik va kuruk lattalar bilan ishkallash.
3. Issik suyukliklar ichirish.
4. Alkogol 50 – 100 ml ichga.

***Kursatmalarda:***

2 ml 20%li Kamfora er-masi yoki 1 ml 10%li Kofein er-masi t/o.

50 ml 50 %li Glyukoza er-masi v/i.

0,5 – 1ml 0,1%li Adrenalin e-masi t/o.

Yurak faoliyati pasayganda v/i 0,5 – 1ml 0,025 yoki 0,05% li Strofantin er-masi yoki 0,5 – 1 ml 0,06%li Korglyukon er-masi 10 – 20 ml 10%li Glyukoza er-masida yuboriladi.

Gospitalizatsiya.

### **Umumiy issik urish xolatlarida tez tibbiy yordam**

-Sikuvchi kiyimlardan ozod etish.Soya-salkin joyga bemor boshini kutarib yotkizish.

-Bosh va yurak soxasiga sovuk kuyish;

-Ogir xolatlarda:

**-T/o 1-2ml 10%li Kofein er-masi yoki 2ml 20%li Kamfora er-masi yoki 1ml 1%li Lobelin er-masi.- Sun'iy nafas oldirish, kislorod berish.**

### **ELEKTROTRAVMA**

**Elektrotravma** – elektr tokining organizmga shunday ta'siriki, bunda markaziy nerv sistemasi, yurak qon tomirsistemasi, va nafas sistemasi zararlanishi va tokning kirgan va chikkan joylari kuyishi bemorda namoen bo'ladi. Elektrotravma tok kuchiga, elektr tokining tarkalish yo'liga va terining elektr o'tkazuvchanligiga bog'lik. Elektr toki terining kuyishiga, xatto ulimga xam olib kelishi mumkin. Tananing elektr tokini yaxshi o'tkazadigan kislmlari: yuz terisi, kaftlar oraligi, tinalgan jaroxatlar, granulyatsiyalar. Elektr tokining tukima va organlarda tarkalish yo'li elektr toki halkasi deyiladi.

Eng xavflisi yuqori halka (qo'l-qo'l, qo'l-bosh) yeki to'liq halka (2 oeq-2 qo'ldir). Elektr toki fakat terini emas balki tanani butun elektr toki yunalishi bo'yicha shikastlaydi. Elektr toki yunalishi bo'yicha biologik uzgarishlar sodir bo'ladi: musqul tukimasi, bezlar tukimasi, nerv xujyralari qo'zg'alishi natijasida xujayralar membranalarida kutblanish sodir bo'ladi. Xujayralarning funksional xolatlariga qon va kislota-asos muvozanati siljishi ta'sir qiladi. Oksillarning koagulyatsiyasi va tukimalarning nam nekrozi kelib chikadi.

Nekroz bo'lgan joylarda ovkat xazm traktida, jigar, ut va siydik kopidan qon ketishi, yeki o'pkaning qonashi, kurishning va eshitishning buzilishi, suyaklar sinishi, chikishi, ichki a'zolar shikastlanishi va lab yerilishi mumkin. Katta kuchli tok elektr yeyida yenishga, tana kislmlari ajralishi, tukimalarning ajralishiga olib keladi. Kuygan, nekroz bo'lgan tukima chikitlari qaytadan qonga surilib, intoksikatsiya chakiradi. Mikrotsirqo'lyatsiya buziladi, tomirlar o'tkazuvchanligi oshadi, shish kuchayadi. Arteriyalar trombozi oeq yeki qo'llar nekroziga olib keladi. Elektr toki bilan shikastlanganda, klinik ulimga asosiy sabablar MNSning shikastlanishi, (uzunchok miya) yurak fibrillyatsiyasi, mushaklarning tetanik kisqarish natijasidagi, elektrik asfiksiyadir. Kuchsiz uzgaruvchan tok (1 m A

gacha) barmok uchlarida elektr simi tegaetgan joyda teri kichishi bilan kurinadi. Elektr toki kuchayishi bilan mushaklarga o'tadi va mushaklar kisqaradi. Jabrlanuvchi panjalarni yeza olmaydi. Musqo'llar kisqarishi suyaklar sistemasida sinishlarga olib kelishi mumkin. Elektr toki ta'sirini kuchaytiruvchi omil organizmning terlashi va elektr tekkan joy mahalliy Yana bir Kuyishidir.

Elektr toki qo'l musqo'llaridan tana musqo'llariga o'tadi. Musqo'llar kisqarishi va spazmi ko'krak kafasi ekskursiyasiga qarshilik qiladi va laringospazm sodir bo'ladi. Shu sababli jabrlanuvchi yerdamga chakira olmaydi. Elektr tokining kuchi va kuvvati ortib borganda yurak faoliyati buziladi va yurak fibrillatsiyasiga olib keladi.

Elektr toki ko'krak kafasidan utganda, yurak faoliyatining buzilishiga (ya'ni elektrastoliyadan to qorinchalar fibrillatsiyasigacha) nafas tuxtashiga va xush yo'qolishiga olib keladi. Elektr toki ta'sir kilganda xaet uchun zarur bo'lgan a'zolar faoliyati buziladi (qorinchalar fibrillyatsiyasi, nafas musqo'llari spazm iva nafas markazining uzoq paralichiga olib keladi). Bo'lar reanimatsion muolajalar kechikkanda ulimga olib keladi.

#### **Davolash:**

1. Elektr tokining ta'sirini bartaraf qilish.
2. O'pka-yurak reanimatsiyasi, yurak tashki massaji va defibrillyatsiyasi.
3. Qaytadan yurak ritmi buzilishi sodir bo'lishini xisobga olib bemor albatta kasalxonaga yetkiziladi.
4. Antikoagulyantlar (geparin) va fibriolitiklar.
5. O'pka v amiya shishuvida siydik xaydovchilar.
6. Metabolitik asidoz kerreksiyasi (biqarbonat natriy 4%-150 ml).
7. Mikrotsirqo'lyatsiyani yaxshilash (reopoligyukin, reomakrodeks va boshkalar).
8. Kislorod ingyalyatsiyasi yeki sun'iy nafas kursatmasiga qarab olib boriladi.

#### **Tibbiy terminlar**

Asistoliya- yurak urishining to'xtashi

Qonsentrlangan – quyuuq, % yuqori, kuchli kislota yoki ishqorga nisbatan

#### **QON KETISH**

Qon ketish bu- qon tomirlardan qonning sizib yoki oqib chiqishidir.

#### **QON KETISH TASNIFI:**

1. Tomir butunligiga ko'ra
  - a) qon tomir butunligi buzulishi bilan.
  - b) qon tomir butunligi buzilmagan.
2. Qaerdan qon ketishiga qarab,
  - a) arterial

b) venoz

v) kapillyar

g) parenximatoz.

3. Tashqi yoki ichki.

4. Qachon qon ketishiga qarab

a) birlamchi - shu zahotiyoq travmadan keyin

b) ikkilamchi-bir qancha vaqtdan keyin.

Ichki qon ketish belgilari:

- ✓ teri rangpar
- ✓ A/B pasayadi.
- ✓ taxikardiya
- ✓ holsizlik
- ✓ hansirash
- ✓ gemogloblin pasayadi
- ✓ ko'z oldi qorong'ilashishi
- ✓ hushdan ketish.

Xavfi -qon ivimaydi va shuning uchun to'xtamaydi.

- «kofeynaya gusha»
  - « dekteobraznyy stul»
  - gemotoraks
  - nafas qiyinlashuvchi.
  - qon tupirish - yo'talganda balg'am.

Qon yo'qotishni 3 darajasi bor.

I. Yengil daraja umumiy qonning 10-15% kompensatsiya 1-2 sutkada bo'ladi.

II. O'rta daraja 15-20% bunda klinik belgilar bo'lishi mumkin.

III. Og'ir daraja-20-30%, hushsiz A/B 80-70 mm sm ust., 35-50% qon yo'qotganda o'linga sabab bo'ladi.

## **QON KETISHDA BIRINCHI YoRDAM**

- Qonni to'xtatish
  - Yo'qotilgan qon o'rnini bosish
  - Yuz bergan patologik o'zgarishlarni davolash.
- Vaqtinchalik qon to'xtatish usullari

- Qo'l yoki oyoqni tepaga ko'tarib turish
- Qon tomirni bosib turish.
- Jgut bog'lash.
- Bo'g'imlarni oxirigacha bukib turish.
- Bosib turuvchi bog'lam qo'yish

Butunlay (okonchatelnaya), mutloq qon to'xtatish usullari

- ▶ Mexanik – tomirni bog'lash, tomirni tikish.

- ▶ Fizik – temperatura, lazer nuri bilan operatsiya (beskrovnaya), koagulyatsiya, oqsil – elektronlar bilan koagulyatsiya.
- ▶ Ximik vositalar - qon tomirlarni toraytiradi yoki qon quyilishini kuchaytiradi.
- ▶ Biologik – gemostatik gubka, fibrin plenka, tomponada-salnik bilan, muskullar bilan.

### **Nazorat savollari**

1. Favqulodda holat deganda nimani tushunasiz?
2. Favqulodda vaziyatda birinchi navbatda qanday tamoyil asosida bemor baholanadi?
3. Hayotiy muhim ko‘rsatkichlarga nimalar kiradi?
4. Nafas yo‘li o‘tkazuvchanligini qanday tekshiriladi?
5. Sun‘iy nafas berish qachon amalga oshiriladi?
6. Yurak-o‘pka reanimatsiyasi qaysi hollarda boshlanadi?
7. Anafilaktik shok ning asosiy klinik belgilarini sanab bering.
8. Anafilaktik shokda birinchi yordam algoritmi qanday?
9. Miokard infarkti ning asosiy belgilarini ayting.
10. Ko‘krak og‘rig‘i bo‘lgan bemorga birinchi yordam qanday ko‘rsatiladi?

### **“Tezkor algoritmi”**

**Maqsad:** Talabalarda favqulodda holatda harakat ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etish ko‘nikmasini shakllantirish.

#### **O‘tkazish tartibi:**

Talabalar kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir guruhga favqulodda holat yozilgan vaziyatli kartochka beriladi. Masalan: bemor hushini yo‘qotgan, nafas olmayapti yoki bemorda to‘satdan ko‘krak og‘rig‘i paydo bo‘lgan.

Guruhlar quyidagilarni ishlab chiqadi:

- Birinchi navbatdagi harakat
- Hayotiy ko‘rsatkichlarni baholash
- Qanday tez yordam chorasi ko‘riladi
- Qachon shifokor yoki reanimatsiya chaqiriladi

So‘ng har bir guruh doskada o‘z algoritmini taqdim etadi. O‘qituvchi to‘g‘ri ketma-ketlikni umumlashtiradi.

Bu metod tez fikrlash va klinik tafakkurni rivojlantiradi.

## **“Rol o‘ynash – Shoshilinch brigada”**

**Maqsad:** Talabalarda amaliy harakat, jamoaviy ishlash va mas’uliyatni oshirish.

### **O‘tkazish tartibi:**

Talabalar rollarga bo‘linadi:

- Hamshira
- Feldsher
- Bemor
- Qarindosh

Vaziyat beriladi: masalan, bemorda anafilaktik shok belgilari yoki miokard infarktga shubha.

Hamshira va feldsher quyidagilarni bajaradi:

- Bemorni to‘g‘ri joylashtirish
- Nafas yo‘lini tekshirish
- Dori tayyorlash (adrenalin, nitroglitserin va boshqalar)
- Qon bosimini o‘lchash
- Tez yordam chaqirish

Mashg‘ulot yakunida muhokama qilinadi:

- Qaysi harakat to‘g‘ri bajarildi
- Qaysi joyda xato bo‘ldi
- Qanday yaxshilash mumkin

Bu metod talabalarning favqulodda vaziyatda o‘zini tutishi va tez qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

### **Test savollari:**

#### **1.Kollaps bu nima?**

- A.nafas yetishmovchiligi
- V.Buyrak yetishmovchiligi
- S.O‘tkir yurak yetishmovchiligi
- D.O‘tkir tomirlar yetishmovchiligi

#### **2.Me‘dadan qon ketishining asosiy belgisi:**

- A.“kofe quyqasi” singari kusish;
- V.ko‘pikli qon aralash balg‘am ajralishi
- S.ishtaxaning yomonlashuvi

D.tana haroratining ko‘tarilishi

### **3.Tabiiy ofatlar bu**

A.Suv toshqinlar,yong‘inlar,zilzila,dovullar

V.hashoratlar,kemiruvchilar,qushlar,hayvonlar

S.Terrolistik xarakatlar

D.Atmosfera harorati va bosimning o‘zgarishi

### **4.Dezinfeksiya turlarini aniqlang.**

A.Mexanik, fizik, kimyoviy va biologik;

V.Biologik, mexanikaviy

S.Yakuniy va davomli

D.Kimyoviy va biologik.

### **5.Asfiksiyada birinchi navbatdagi vazifa nimadan iborat?**

Nafas yo‘llarining o‘tkazuvchanligini ta’minlash

Bemorni tinchlantirish va muolajani tushuntirish

Og‘riq qoldiruvchi dori vositalarini yuborish

Infuziya terapiya o‘tkazish

### **6.Evakuatsiya yo‘li bu.....**

A.Bemorni olib chiqish va transportiroka qilish

V.Tibbiy yordam ko‘rsatish

S.Bemorni faqat olib chiqish

D.Bemorni joydan joyga ko‘chirish